

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA
MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**URALOV AZAMAT
URALOVA GAVHAR**

**TA‘LIM METODLARI,
TEXNOLOGIYALARI VA
DIDAKTIK O‘YINLAR**
(o‘quv qo‘llanma)

Toshkent – 2025

UO‘K:

KBK:

U:

Ta’lim metodlari, texnologiyalari va didaktik o‘yinlar: Uralov Azamat, Uralova Gavhar – Toshkent: **Yangi asr avlodi**, 2025. **156 b.**

ISBN:

Mas’ul muharrir:

T.Mirzaqulov,
filologiya fanlari doktori, professor

Texnik muharrir:

A.Nizamov

Taqrizchilar:

I.Ermatov,
filologiya fanlari doktori, professor
G.Berdaliyeva,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya

Mazkur o‘quv qo‘llanma maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 236-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlangan bo‘lib, unda o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilgan talablar, bugungi kun ta’limi va metodikasi, keng qo‘llaniladigan turli metod va texnologiyalar hamda ish tajribamizdan kelib chiqqan turli didaktik o‘yinlar o‘rin olgan.

O‘quv qo‘llanma barcha pedagoglar va shu sohada ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar uchun mo‘ljallangan.

O‘quv qo‘llanma Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil 24-apreldagi 4-sonli qarori bilan chop etishga tavsiya etilgan.

KIRISH

Bizga ma'lumki, yoshlar bilan ishlash masalalari alohida e'tiborni talab qiladi. Bu borada o'qituvchi mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlarga ega bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini doimo yodda tutgan holda tarbiya berishga harakat qiladi. Darslarga ilg'or pedagogik texnologiyalarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, darsda yangi-yangi usullarni topish, noan'anaviy darslar DTS va Milliy dastur talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini singdirishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analarga iftixor tuyg'usini tarkib toptirishda ijtimoiy fanlarni o'rni beqiyosdir.

Xalqni – xalq, millatni – millat qiladigan, farzandlar kelajagini ta'minlaydigan, insonni inson sifatida shakllantira oladigan asosiy kuch bu – ta'lim va sohada islohotlar ekanligi hammamizga kundek ravshan. Sababi ilm-ma'rifat va ta'limsiz taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Har qanday maqsad va islohotlar natijadorligiga ilm-fan taraqqiyoti bilan yetib boriladi. Shu sababli, davlatimiz rahbari Prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talabiga mos yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash hamda milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yuksak madaniyatli yangi avlodni voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratdilar. Xususan, bugungi kunda umumta'lim maktablari faoliyatini yaxshilash, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash ishlari, innovatsion metodlar asosida dars berish sifatini oshirish, yoshlarning sifatli ta'lim olishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratishga eng ustuvor vazifa sifatida qarala boshlandi. Albatta, bu bejiz emas. Zero, ta'lim sifati rivojlansa, hamma sohada o'zgarish, rivojlanish kuzatiladi.

Innovatsion ta'lim o'zining dolzarbligi bilan pedagogikani ishg'ol qilib bormoqda. Shu asnoda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar talaygina bo'lib qoldi. Ta'lim jarayonida yuz berayotgan turli o'zgarishlar

har qanday muallimni e'tiboridan chetda qolmasligi lozim. Darhaqiqat, o'z ustida ish olib bormagan, izlanmagan, tahlil va tahrir qilmagan o'qituvchi ortda qolmog'i mumkin. O'quvchisini suyuntira olib, unga bor mehrini bag'ishlab, nimaniki bilsa, o'rgatib, sirlashib ishlayotgan muallim va muallimalar bugun respublikamizda talaygina. Biz ularni ishlarini kuzatar ekanmiz suyunamiz, xursand bo'lamiz.

Ta'lim mazmunining yangilangani ta'lim jarayoni, shakli va usullaridagi zamonaviy yangilanishlarni, yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etilishini taqozo etishi o'z-o'zidan ma'lum. Ta'lim va tarbiyaning asosi maktab bo'lsa, maktabni maktab qiladigan kuch esa pedagog xodimlar hisoblanadi. Respublikamizda hozirgi kunda **10104** ta umumta'lim maktablari mavjud bo'lib, ularda **6 336 933** nafar o'quvchiga **542687** nafar pedagoglar ta'lim-tarbiya berishmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sonli farmoni kun talabi asosida amalga oshirilgan muhim hujjat sifatida e'tirof etildi. Bu maktab pedagogik jamoasining ilg'or xorijiy tajribalar asosida harakatlanishi va o'quvchilarning kelajagini ta'minlash borasidagi amalga oshiriladigan yangicha metodlar hamda pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish sari odimlashi nazarda tutilgan muhim siyosiy hujjat sifatida qaraldi. Shuningdek, ta'lim tizimi kunning muhim masalasiga aylanganligini ko'rsatdi. Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor berila boshlangan davrda, ayniqsa, DTS (2017), "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020) va "Milliy o'quv dasturi"ning (2022) zamonaviy ruhda yaratilganligi ushbu jarayonlardagi eng muhim bosqich sifatida xarakterlanadi.

PF-134-sonli farmonda **2024-yil 1-sentabrga** qadar Milliy o'quv dasturining ta'lim jarayoniga **to'liq joriy etilishini**, shu jumladan, 2022-yil yakuniga qadar 3-, 6-, 7- va 10-sinflar uchun, 2023-2024-yillarda 4-, 5-, 8-, 9- va 11-sinflar uchun darsliklar, mashq daftarlari hamda o'quv qo'llanmalar yaratilishini ta'minlash vazifasining qo'yilishi ta'lim tizimidagi milliy o'zbek modelining yaratilishi bilan ifodalandi.

Dastur asosida 296 nomdagi yangi avlod darsliklari, mashq daftarlari, o'qituvchi metodika kitoblari yaratildi. Jumladan, 189 ta darslik, 50 ta mashq daftari, 57 ta metodik qo'llanmalar va darsliklarning mobil ilovalari yaratildi. Maktab ta'limi tizimidagi malakali pedagog xodimlarni qo'shimcha rag'batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-avgustdagi 425-sonli qarori bilan Vazir jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Unga asosan, malakali pedagog kadrlarga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 5,5 baravar miqdorida 9 oy davomida har oylik ustama to'lanib boshlandi.

Davlatimiz tomonidan yaratilgan bunday imkoniyatlardan kelib chiqib, har bir o'qituvchi oldiga yangi maqsadlar va vazifalar belgilab olishi lozim. Bugun o'quvchilar ancha o'yinqaroq. O'qituvchi esa bilim berishga, berilgan bilimlarni qaytarib so'rashga moyil. Interfaol mashqlar esa ikki shaxsni, ya'ni o'qituvchi va o'quvchini bir-biriga bog'laydi, murosaga keltiradi. Boshqacha qilib aytganda bola "o'ynaydi", o'qituvchi darsini shu mashqlarga singdiradi.

Biz ham pedagoglarini yangi metodikalarga o'rgatish borasida ayrim tajribalarimiz bilan o'rtoqlashmoqchimiz.

Ushbu qo'llanma oliy ta'lim talabalari hamda maktab ta'limida faoliyat yuritayotgan pedagoglar uchun yaratilgan bo'lib, ularning metodik jihatdan sifatli va qiziqarli darslar o'tishlariga xizmat qiladi deb hisoblaymiz. Qo'lingizdagi ushbu qo'llanma sizga ta'lim berishda asqatishiga ishonchimiz komil. Faqat quyidagi interfaol metodlarni o'z o'rnini bilan, vaqt me'yorlariga amal qilib, o'quvchilar yoshini va saviyasini hisobga olgan holatda o'tkazsangiz samarasi yuqori bo'ladi.

I BOB. BUGUNGI TA'LIM XUSUSIDA AYRIM NAZARIY MA'LUMOTLAR

1.1. TA'LIM VA O'QITUVCHI SHAXSI

1 §. Talaba – ta'lim – o'qituvchi tizimi

Bugungi kun ta'lim mazmuni davlat va jamiyat talablariga ko'ra, pedagogik texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlari asosida belgilanadi, shakllanadi, rivojlanadi. Ta'lim mazmunini shakllantirish zamonaviy pedagogikada ilg'or tajribalarga asoslangan holda quyidagi muhim tarkibiy qismlar hisobiga amalga oshiriladi: o'qituvchilar egallashi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar tizimi; tanlangan ilmiy-nazariy bilimlarga muvofiq keladigan amaliy ko'nikma va malakalar tizimi; o'qituvchilarni ijodiy faoliyat usullariga o'rgatish; faoliyat qayta xotirlash, ijodiy va ilmiy-ijodiy darajada bo'lishi.

Shu o'rinda ayrim terminlarning mazmuni bilan tanishib o'tsak.

Ko'nikma egallangan tajribalar asosida muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati, **malaka** esa muayyan harakatlarni bajarish va boshqarish jarayonlarining avtomatlashuvidir.

Qayta xotirlash faoliyati o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan yoki darslikda berilgan namunaga qarab mashq bajarish faoliyatidir. Bu esa o'rganuvchining faollik darajasini chegaralaydi. U izlanishga, kashf qilishga ehtiyoj sezmaydi. **Qisman izlanuvchanlik** faoliyatida o'qituvchi yo'naltiruvchi topshiriqlar yordamida til hodisalarining o'xshash va farqli tomonlari ustida o'ylashi, uni topishi, avvalgi bilimlarni qisman noma'lum sharoitlarda qo'llashi lozim. **Ilmiy-ijodiy faoliyatda** esa o'qituvchi hech qanday tashqi yordamsiz, olgan bilimlarini butunlay yangi sharoitda (masalan, kompyuterda) qo'llay olishi, faoliyat uchun zarur bo'lgan, lekin o'zida bo'lmagan bilimlar manbalarini bilishi, ulardan nutqiy vaziyat taqazosiga ko'ra unumli foydalanish usullarini egallashi talab etiladi. O'qituvchining ijodiy faoliyat tajribasiga qanchalik ko'p asoslansak, ta'limning samaradorlik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Shu sababli ijodiy yondashuv muhim ahamiyat kasb etmog'i lozim.

Talabaning ta'lim jarayonida o'qituvchi maqomiga o'tishi, maktab amaliyoti bilan bog'lanishi, o'z maqomi va mavqeyini tiklashi, jamoada

o‘z o‘rnini egallashi uchun barcha imkoniyatlarini ishga solmog‘i kerak. Natijada, u o‘zining oldiga qo‘ygan maqsadiga erishadi. Shu sababli ham “*talaba – ta’lim – o‘qituvchi*” tizimi yangilangan ta’lim mazmunida yetakchi – bosh omil hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchi metodikani chuqur o‘rganishi, kommunikativ savodxonlik me‘yorlari bo‘yicha DTS talablarini yaxshi bilishi darkor. Shuningdek, o‘quvchi so‘z boyligini oshirish va boyitishning xilma-xil usullarini bilishi, til imkoniyatlaridan unumli foydalanishni o‘rganishi, egallangan nutqiy ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, rivojlantirish, takomillashtirish, ularni amaliyotga tatbiq etish yuzasidan izchil ma’lumotlarga ega bo‘lishi lozim.

2 §. O‘qituvchi shaxsiga va ta’lim jarayonini tashkillashtirishga qo‘yiladigan talablar

Fan-texnika asri va jadal rivojlanayotgan ijtimoiy-siyosiy hayot o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘ymoqda. Chunonchi, bu borada O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni qayd etgan edi: “O‘qituvchi kasbi dunyodagi eng ulug‘ va sharaflil kasb”. Yuqorida qayd etilgan fikrdan bugungi kun o‘qituvchisi shaxsiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar mazmuni anglashiladi. Zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi zarur?

O‘qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus ma’lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlariga ega hamda ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs sanaladi.

O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1. O‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli ma’lumotlarni bera olishi lozim.

2. Zamonaviy o‘qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lishi talab etiladi.

3. O‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalarini chuqur o'zlashtirib olishga erishishlari lozim.

8. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to'g'riligi;

b) nutqning aniqligi;

v) nutqning ifodaviyligi;

g) nutqning sofliigi (uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarning noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda kontselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan holi bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;

d) nutqning ravonligi;

j) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqolalar, matallar va ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).

9. O'qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishini o'zlashtirishga erishishi lozim.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

Ta'lim jarayonini tashkillashtirishga qo'yiladigan talablar. Ta'lim sohasidagi dolzarb va murakkab vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchi shaxsiga bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy hayotda ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadga erishish, o'quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni odobli, bilimli, e'tiqodli, ishbilarmon, mehnatkash, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi, Yangi O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchilarimizga, uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

O'quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish va amalga oshirishda o'quvchilarning tarbiyalanganlik va bilim darajasini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya maqsadiga muvofiq o'quv materialini tanlash, uni analiz va sintez qila olish, ilmiy materiallarni qayta ishlab, o'quv materialiga aylantira olish, ma'lum murakkab matnlarni va o'quv materialini o'zlashtira olish ko'nikmasini shakllantirib borishi lozim. O'qituvchilik ishida muvaffaqiyatga erishish uchun har bir muallim pedagogik mahoratni egallashi zarur. Pedagogik mahorat egasi kam kuch sarf qilib, katta natijalarga erishadi, o'z ishining natijasi bilan mo'jizalar yaratadi, ijodkor bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin. Pedagogik faktlar va ularning tahlili shundan dalolat beradiki, muallim o'quvchilar bilan muomalada ma'lum axloqiy talablar, mezonlarga amal qilishi zarur.

Pedagogik faoliyat jarayonida muallim har bir o'quvchining qadr-qimmatini inson sifatida hurmat qilishi, o'quvchiga nisbatan ishonch, o'quvchining bilimi va xulqini baholashda talabchan, adolatli bo'lish, bolalarda o'z-o'ziga nisbatan talabchanlik va tanqidiy munosabatni o'stirish, mehribon, g'amxo'r bo'lishi, mushkul vaziyatga tushib qolganda unga ko'maklashish, nizolarni ahloqiy mezonlar asosida hal etishi, jamoaning fikr-mulohazalarini e'tiborga olish, ularga ishonch bilan qarash, bolalar bilan muomala va munosabatlarda ularning har biriga alohida yondashish, pedagogik takti saqlash muhim hisoblanadi. Ta'lim metodlaridan foydalanishning samaradorligi va muvaffaqiyati o'quvchilar mustaqilligi va ijodiy faolligini rivojlantirishga qanchalik yordam berishiga bog'liq. O'qituvchi o'quvchilarga mustaqil faoliyat ko'rsatishi

uchun sharoit yaratsa, o'quvchilar bilimlarini bamisoli o'zlari olayotgandek his etishsa, mazkur metod samarali bo'ladi. Ta'lim metodlarida o'qituvchining qiyofasi, uning dunyoqarashi, uning psixologik-pedagogik, metodik va maxsus ilmiy tayyorgarligi namoyon bo'ladi. O'qituvchining pedagogik faoliyati davomida ko'pgina omillarni to'playdi, tahlil qiladi. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirishda o'qituvchilik kasbiga qiziqish, havas katta rol o'ynaydi. Uning bilimi qanchalik keng va chuqur bo'lsa, unda o'quvchilarga shu bilimni berish ishtiyoqi shunchalik zo'r bo'ladi. Bunday o'qituvchi bugungi kunda eng yaxshi pedagog hisoblanadi, ularning ko'pchiligi o'z fanining ustalari, metodistlari bo'lib qoladi. Pedagogik faoliyatning nazariy asosiy kasbga oid bilimlardir. U faqatgina o'z fanini emas, balki pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarini o'zlashtirishi va ularni muntazam to'ldirib borishi lozim. Ilg'or pedagogik texnologiyaning markazida ta'lim jarayonning rahbari hamda shu jarayonning subyekti ham obyekti bo'lgan o'qituvchi va o'quvchi turadi.

Shunday ekan, bu ikki shaxsning hamkorligi, o'zaro muloqoti, bir-biriga ko'rsatadigan ta'siri eng zamonaviy va milliy talablar asosida tashkil topishi kerak. Buning uchun birinchi navbatda, o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayoni oldiga qo'yilgan talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarish tamoyillari hamda yo'llari, o'quvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish usullari, u bilan hamkorlik qilish, uni o'qishga, o'rganishga yo'naltirish, o'quvchi shaxsi faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ular bilan muloqotga kirishish, muoammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, sinfda ijodiy, ishchan muhitni vujudga keltirish, o'quvchi faoliyatini aniq va to'g'ri baholash metodlari bilan qurollangan bo'lishi lozim.

Bugungi kunda deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar ta'lim jarayonida o'quvchi darsning markaziy figurasi ekanligi tan olinmoqda. Qolgan barcha harakatlar uning atrofida kechadi va shakllanadi. Haqiqatan ham yangi ijtimoiy va iqtisodiy talablar asosida ta'lim maqsadiga erishish uchun o'qitishning zamonaviy, ilg'or usullariga murojaat qilamiz. Ijtimoiy fanlar: ona tili va adabiyot, tarix, huquq asoslari fanlarini o'qitishda turli noan'anaviy metodlardan foydalaniladi. Ular

orasida didaktik o‘yinlar o‘quvchining shaxs sifatida ham psixologik, ham bilim jihatidan muhim qirralarini kashf etishga xizmat qiladi. Shu o‘rinda “*Didaktika*” so‘zi haqida to‘xtalib o‘tsak. **Didaktika** (yunoncha “*didaktikos*” – o‘rgatuvchi, ta’lim beruvchi) pedagogikaning tarmog‘i. Didaktika atamasi ilk bor Yevropada XVII asrda o‘qitish va ta’lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo‘llanila boshlagan. Diaktikaning bugungi kundagi maqsadi o‘qitishning eng samarador usul va yo‘llarini topishdan iborat.

3 §. Ta’lim metodlari oldiga qo‘yilgan asosiy talablar

“**Metod**” – yunoncha “*metodos*” – “yo‘l” degan so‘zdan olingan bo‘lib, u, tadqiq qilish ma’nosini anglatadi hamda *ta’lim metodi* ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyati hisoblanadi.

Pedagogikada **ta’lim metodlari** o‘qitishning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o‘quv materialini nazariy va amaliy yo‘naltirish usullarini anglatadi. O‘qitish metodlari ta’lim jarayonida ta’lim beruvchi hamda ta’lim oluvchi faoliyatining qanday bo‘lishi, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta’lim oluvchilar qanday ish-harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Shuningdek, ta’lim metodi o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning o‘qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo‘li hisoblanadi.

Hozirgi zamon didaktikasi va xususiy metodikasida ta’lim metodlarini tavsiflashga turlicha yondashuvlar mavjud. Ta’lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog‘liq, ya’ni ular falsafiy metodologik asosga ega va ta’lim jarayonidagi qarama-qarshiliklarni, ta’lim jarayonining mazmun-mohiyatini va tamoyillarini to‘g‘ri anglash natijasi sanaladi. Ta’lim materiali ta’lim mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantig‘iga bog‘liq. Pedagogik qarashlarda nazariyalar qanchalik kam ifodalangan bolsa, ta’lim metodlari bu nazariyalarga shuncha kamroq bog‘liq bo‘ladi. Pedagogika fani maktablar va ta’lim beruvchilarning ilg‘or ish tajribalarini umumlashtiradi, an’anaviy ta’limning ilmiy asoslarini ko‘rsatib beradi,

o'qitishning zamonaviy, samarali metodlarini ijodiy ravishda izlab topishga yordam beradi. Shu sababli ham *ta'lim metodlari oldiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:*

1. O'quv materialini o'rganish yo'li fikr yuritishning didaktik-materialistik usullarini, milliy mafkuraga hamda milliy qadriyatlarga asoslangan axloq, xulq-atvorning irodaviy sifatlarini shakllantirishga olib kelishi kerak.

2. Ta'lim metodi ilmiy dalillar bilan ravshan va aniq asoslangan bo'lishi lozim.

3. Ta'lim metodlarining tizimliliigi ularning samaradorlik darajasini belgilaydi.

4. Ta'lim metodlari oldiga muqarrar sur'atda qo'yiladigan yana bir talablarning tushunarli bo'lishi.

5. Bolani sezgi organlari orqali bilishga o'rgatish va o'quv jarayonida ko'rgazmali qurollardan iloji boricha ko'proq foydalanish.

6. Ta'lim metodlari oldiga qo'yiladigan talablardan yana biri bilimlarning asosli va puxta bo'lishi. Ta'lim metodlari yaxshi natija beradigan bo'lishi lozim. Ta'lim beruvchining tushuntirish va ta'lim oluvchilarning o'ziashtirish usuli rejalashtirilgan yoki mo'ljallangan natijani berishi kerak.

4 §. Pazl o'yilari va boshqotirmalar

Pazl va boshqotirmalar aslan sodda o'yinlar turkumiga kirib, kichik yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallangan. Ammo bugungi kunda boshqotirmalar murakkablashib, yuqori sinf o'quvchilarida mantiqiy va tanqidiy fikrlashni o'stirish uchun ham keng qo'llanilmoqda. Ular orasida foydali va rivojlantiruvchi didaktik o'yinlar ham talaygina. Bunday didaktik o'yinlar yorqin ranglarda ishlangan turli multfilm qahramonlari ishtirokida bo'lib, alifbo saboqlarini, hisob-kitobni, rasm chizishni, chet tillarini o'rganishni osonlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Sport o'yinlari, xotira mashqi, harakatli o'yinlar singari musobaqalar ham ma'lum darajada o'quvchilarga foyda keltirishi mumkin. Ular yordamida yo'l harakati qoidalarini, aqlni charxlashni, xotirani mustahkamlashni o'rganish mumkin bo'lsa-da, sport o'yinlari kabi

badanni chiniqtirish va sog‘lom o‘shishga yordam bermaydi. Bunday o‘yin mashqlar faqat g‘alaba qozonish maqsadida amalga oshiriladi.

Pazl o‘yinlar. Bu o‘yinlar boshlang‘ich sinflarda, kichik yoshdagi o‘quvchilarga mos bo‘lib, rang-barang bo‘yoqlar yordamida yaratilgan, asosan, ko‘z xotirasini, eslab qolishni rivojlantiruvchi o‘yin hisoblanadi. O‘yin sharti bo‘yicha mevalar o‘rnini almashtirish natijasida 3 ta qatorda bir xil mevali katakcha hosil bo‘lishi kerak. Albatta, o‘yin tezligi ham hisobga olinadi. Bunday o‘yinlar o‘quvchi bolalar zehni oshirishga, chaqqon bo‘lishga yordam berishi mumkin. Yoki kim qaysi harakatni bajarganligini eslab qolish orqali ham o‘tkazish mumkin.

Mantiqiy o‘yinlar. Biror masala yoki jumboqni yechishda o‘yinchidan topqirlikni, izlanuvchanlikni talab qiladigan o‘yinlardir. O‘z qobiliyatini sinab ko‘rmoqchi bo‘lgan o‘quvchilar uchun “Magik Square” (sehrli kvadrat) o‘yinida 5 ta murakkab mantiqiy masalani yechish tavsiya etiladi. Bunday o‘yinlarni On-Line muhitida o‘ynash mumkin.

Boshqotirmalar. Mantiqiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantiradigan “test-o‘yin” deb nomlanadi.

Bir soniyada aks ettirilgan tasvirni xotirada saqlab qolish va uni qayta tasvirlab berish vazifalari orqali o‘yinchining qobiliyati aniqlanadi.

Kompyuter o‘yinlari. *Kompyuter o‘yinlari zararli emas, aksincha...* Ko‘pincha bolalarimizning kompyuter va telefonlarda o‘yin o‘ynashidan xavotirga tushamiz. Bu zararli, sog‘lig‘i uchun ziyon-ku, deb o‘ylaymiz. Bo‘lmagan gap! Kompyuter o‘yinlari mutlaqo zararsiz – agar me‘yorini bilsak, haddan ziyod berilib ketmasak, elektron o‘yinlarni hatto kattalar va bolalar uchun eng foydali mashg‘ulotlar ro‘yxatiga kiritsa ham bo‘ladi. Negaligini darslarda o‘rganib tushunib olasiz degan umiddamiz.

Quizlet o‘yinlari. Mashq qilish va o‘rganayotgan narsangizni o‘zlashtirishning eng oson usuli. O‘zingizning fleshkartalaringizni va o‘quv to‘plamlaringizni yarating yoki boshqa o‘quvchilar tomonidan yaratilgan millionlardan birini tanlang: bu sizga bog‘liq. Quizlet bilan har oy 50 milliondan ortiq o‘quvchi o‘qiydi, chunki bu tillar, tarix, so‘z boyligi va fanlarni o‘rganishni sodda va samarali qiladigan yetakchi ta’lim va fleshkartalar dasturi hisoblanadi.

Quizlet learning dasturi xavfsiz o‘rganishingizga yordam beradi. Quizlet learning dasturidan istalgan mavzu, jumladan lug‘at, biologiya, kimyo, ijtimoiy tadqiqotlar, AP, GRE va boshqalar uchun foydalanishingiz mumkin. Lug‘atni yodlash, talaffuzni o‘rganish va o‘zingizni 18 dan ortiq xorijiy tillarda, shu jumladan ispan, fransuz, nemis va xitoy tillarida sinab ko‘rishga imkon beradigan o‘quv rejimlari yordamida o‘zbek tillarini yanada samarali o‘rganish uchun qulayligi bilan ajralib turadi.

1.2. TA'LIM METODLARI OLDIGAGI TALABLAR

5 §. Ta'lim metodlari va vositalarining tavsifi

Metodlar bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'z navbatida kichik guruhlar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo'linadi. Shu sababli o'quv-biluv faoliyatini tashkil qilish, amalga oshirish jarayonining o'zi esa axborot uzatish, qabul qilish, anglash, o'quv axborotlarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishni nazarda tutishni hisobga olsak, birinchi guruh metodlariga so'z orqali axborotni uzatish va eshitish orqali qabul qilish metodlari – **og'zaki metodlar**: hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar; ikkinchi guruh metodlariga o'quv axborotlarini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari – **ko'rgazmali metodlar**: tasviriy, namoyish qilish va boshqalar; uchunchi guruh metodlari – o'quv axborotini amaliy mehnat harakatlari orqali berish – **amaliy metodlar**: mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va boshqalar kiradi. Demak, amaliyotda keng qo'llanilib kelayotgan ta'lim metodlari turli ko'rinishda ifodalanishi mumkin. O'qitish metodlari va o'qish metodlari ta'lim metodlari tarkibiga kiradi. Agar o'qituvchi bilimlarni og'zaki bayon etsa, bolalar uni tinglaydi; agar o'qituvchi mustaqil ish topshirsa, o'quvchilar bajarishadi. Bilimlarni og'zaki bayon etish, mustaqil ishlash kabilar o'qitish metodlari bo'lib, ular vositasida didaktik vazifalar hal etiladi.

Og'zaki bayon metodlari. Hikoya, tasvir, suhbat, ma'ruza ta'limning bilimlarni og'zaki bayon qilish metodlari sanaladi. Bu metodlar evristik suhbatni hisobga olmaganda, asosan, o'quvchilarning xotirasiga mo'ljallab tashkil etiladi. qurilish jihatidan ularning tarkibi bir xil: *o'qituvchi tushuntiradi, bolalar tinglaydi.*

Hikoya. Ta'limning turli bo'g'inlarida qo'llaniladigan universal metodlardan biri hikoyadir. Hikoyaning bir necha xil turi mavjud: kirish hikoyasi o'quv materialini o'rganishga bolalarni tayyorlash maqsadida o'tkaziladi. Kirish hikoyasi badiiy asarlar bilan tanishtirish, yangi mavzuga oid omillarni eslash, ularni dastlabki tahlil etish bilan daxldor metoddir.

Ma'ruza. Ma'ruza mavzuni ta'lim beruvchi tomonidan "monolog" sifatida bayon etishdir. Ma'ruza o'rta umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida, texnikum, litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlar hamda malaka oshirish sohalarida foydalaniladigan ta'lim metodi bo'lib, unda o'zaro ta'sir o'qituvchining bayoni va bolalar(talaba va tinglovchilar)ning tinglashi, ayrim omillar, asosiy g'oya va bog'lanishlarni yozib olish shaklida amal qiladi. Ma'ruza uchun vaqt bolalarning tayyorgarlik darajasi, o'quv material hajmiga ko'ra belgilanadi. Ma'ruza jarayonida o'quvchilarning faolligi, tashabbuskorligini oshirish maqsadida o'qituvchi o'z nutqini ko'rgazmali qurol, darslikda berilgan omillar, muammo va topshiriqlar bilan uyg'unlashtiradi. Ma'ruza jarayonida ko'rgazma qurolidagi omillarni tahlil etishga bolalar diqqatini tortish, o'qituvchi aytgan qoida, ta'rif, aniqliklarni dars materiallariga chog'ishtirish yo'llari bilan bolalar faolligi oshiriladi. Shuningdek, o'quv materialiga oid terminlarga izoh berish, ayrim o'rinlarda o'quvchilarning o'zlariga xulosa chiqarishni taklif etish talabalarning o'quv-biluv faoliyatining samarador amal qilishini ta'minlaydi.

Binar ma'ruza. Ikki o'qituvchining birgalikda ma'ruza yoki amaliyotni tashkil etishiga qaratilgan faoliyati. **Binar** – lotincha "qo'sh", "ikki" degan ma'noda qo'llaniladi.

Suhbat. Suhbat o'qituvchi o'quvchining o'zaro ta'siri dialog shaklida amal qiladigan ta'lim metodidir. Unda mavzu mazmuniga xos, atroflicha o'ylangan, bir-biriga bog'liq savollarni qo'yish va savollarga javob izlash hamda javob qaytarish yo'llari bilan o'qituvchi va o'quvchi faoliyati o'zaro muvofiqlashadi.

Ko'rgazmali metodlar. Ko'rgazmalilik didaktikada eng asosiy qoida bo'lib, uning yordamida ko'rish, o'qish va tafakkur o'zaro uyg'unlashadi. Ko'rgazmali metodlarning quyidagicha turlari mavjud:

Illyustratsiya metodi: og'zaki bayon qila turib, rasmlar, chizmalar, jadvallar, doskadagi yozuvlarga diqqatini tortish.

Demonstratsiya metodi: kinoapparat, LITE (layt) kabi texnik vositalar asosida, shuningdek, televizor eshittirishlaridan, videotasvirdardan foydalanib, kinolentalarni, turli tasvirlarni namoyish qiladi.

Tabiiy ko'rgazmalar – narsalarning o'zi, predmetlar, turli jonivorlarning mulyajlarini ko'rsatish. Ko'rgazmali metodlar eshitish va ko'rish o'quvlarini o'zaro uyg'unlashtirish vositasi hisoblanadi. Shu tufayli ulardan bilimlarni Og'zaki bayon qilish metodlari bilan yonma-yon foydalanish ta'limning samaradorligini oshiradi.

Muammoli izlanish metodlari. Muammoli izlanish turidagi metodlar o'quvchilarning tafakkuriga, binobarin, ularning ijodiy faoliyatiga yo'nalgan ta'lim metodidir. Bu metodlar asosida o'quv-tarbiya ishlari tashkil etilganda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ta'siri quyidagicha umumiy ko'rinishga ega bo'ladi.

- turli topshiriqlar asosida muammoli holat yaratish;
- muammoli holatda ishtirok etish va muammoni qabul qilish;
- farazlarni aytishni taklif etish;
- muammoni hal etishga oid farazlarni aytish;
- farazlardan tanlangan muammoni mosini bajarishga tatbiq etishni so'rash;
- tanlangan farazni muammoni bajarilishiga tatbiq etish;
- xulosalar chiqarishga ko'maklashish;
- xulosalar chiqarish;
- chiqarilgan xulosalarni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini ko'rsatish;
- xulosalarni amaliyotga tatbiq etish.

Muammoli izlanish metodlari maktab tajribasida ko'proq qo'llanilishi lozim. Muammolarni qo'yish, ularni izohlashda suhbat, hikoyadan ham foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruza o'qib turgan paytda turli o'quv topshiriqlari, muammolar ham hal etiladi. Ko'rgazma qurollar vositasida bolalarga sinov topshiriqlar beriladi. Ana shularga ko'ra muammoli izlanish metodlarining quyidagi turlari farqlanadi.

Muammoli hikoya – o'rganilayotgan mavzu doirasida hikoya boshida, hikoya davomida, hikoya oxirida bolalar oldiga muammolar qo'yib, ularning mavzuga qiziqishlarini oshirish yo'li.

Muammoli ma'ruza – ma'ruzadan oldin o'quvchilarni mavzuga qiziqtirish maqsadida yoki ma'ruza oxirida o'quvchilar oldiga muammolar qo'yish yo'li bilan ta'lim maqsadiga erishish. O'quv materialining asosiy qismini ma'ruza vositasida, nisbatan oson qismini

topshiriqlarni bajarish, muammolarni qo'yish yo'li bilan ham o'rgansa bo'ladi.

Keyingi paytlarda maktablarda muammoli amaliy ishlar, masalan, optikadan laboratoriya ishi, ilmiy tadqiqot ishlari (tarixiy materiallarni tasnif etish, u yoki bu geografik tumanga tabiiy va iqtisodiy geografiya nuqtayi nazaridan tasnif yozish) keng o'rin olmoqda. Bular bolalarbop sinov tadqiqot metodlaridir. Ko'rinadiki, muammoli izlanish metodlari bilimlarni og'zaki bayon etish, ko'rgazmali metodlar bilan birga qo'shib olib borilganda o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini yanada oshiradi.

Mustaqil ishlash metodlari. Mustaqil ishlar ta'limning turli guruhlari, sikllarida, darsning barcha bosqichlarida o'tkaziladigan, o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmalari, rahbarligida bajariladigan intellektual va amaliy topshiriqlardir. Hozirgi paytda mustaqil ishlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi.

Darslikdagi qoidalar va ta'riflar ustida mustaqil ishlash: darslikdagi qoida va ta'rifni o'qish va ularga oid omillarni ajratish; o'qituvchi bergan, o'qituvchi topshiriqiga ko'ra to'plagan omillarni tahlil etish va xulosa chiqarish; darslikning ayrim betlarini tanlab o'qish va shu bilimlardan amaliyotda foydalanish yo'llari to'g'risida qisqacha hisobot tayyorlash; qoida, ta'riflarni mantiqiy qismlarga ajratish va terminlarga izoh yozish; darslik, o'quv qo'llanmalarni va qo'shimcha adabiyotlardan o'rganilgan mavzu doirasida omil to'plash; ma'ruza, hikoya, suhbat paytida o'qituvchi chiqargan xulosalarni darslikdagi qoida, ta'rif aniqliklariga solishtirish.

Darslikdagi amaliy materiallar ustida mustaqil ishlash: darslikdagi mashq, misol va masalalar variantlar asosida musobaqalashib bajarish; darslikdagi amaliy materiallar asosida turli diogramma, jadval, chizmalar tayyorlash; laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish rejasi tuzish.

Mashg'ulotlarda turli mustaqil ishlarni bajarish bolalarda mustaqillikni tarbiyalaydi. Mustaqillik esa shaxsiy sifat hisoblanadi. Mustaqil ishlash metodlaridan foydalanishda qator qoidalarga rioya qilinadi; o'quvchilarni mustaqil ishlashga tayyorlash; mustaqil ishlarning tushunarli bo'lishi; mustaqil ish uchun yetarli vaqt ajratish; mustaqil ish natijasini tekshirish.

Didaktik o‘yinlar metodi. (Bu metodga ikkinchi bobda kengroq to‘xtalamiz) Keyingi yillarda ilg‘or o‘qituvchilar tajribasida didaktik o‘yinlardan ta‘lim metodlari sifatida foydalanish odat tusini olib bormoqda. Didaktik o‘yinlarning samaradorligi shundaki, ular vositasida o‘quv-tarbiya ishlari hayotga yaqinlashtiriladi, shuningdek, ularning har birida bilimlarni og‘zaki bayon etish, ko‘rgazmali, amaliy metodlarning elementlari qo‘llaniladi. Shu xususiyatlariga ko‘ra didaktik o‘yinlar sintetik xarakterga ega.

Amaliy metodlar. Ta‘limning amaliy metodlarida o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta‘siri bolalar oldiga qo‘yiladigan topshiriqlar hamda ularni qabul qilish shaklida amal qiladi.

Amaliy metodlarning quyidagicha turlari mavjud:

Laboratoriya tajribasi amaliy metod bo‘lib, ular turli ko‘rinishlarga ega: kimyodan va boshqa tabiiy o‘quv fanlaridan yoppasiga laboratoriya mashg‘uloti, fizikadan o‘quv praktikumi, yoppasiga kuzatish kabi ish turlari mashg‘ulotning bir qismini oladi, ba‘zan ularga bir necha o‘quv soatlari ajratiladi.

O‘quv ustaxonasida turli topshiriqlarni bajarish, o‘quv-ishlab chiqarish sexida, o‘quvchilar guruhida ishlash ham amaliy metodlar sirasiga kiradi. O‘quvchilar turli mehnat qurollaridan qaychi, pichoq, chizg‘ich, sirkul va sh.k. dan foydalanib qirqish, o‘lchash kabi ishlarni bajaradi.

Elektron hisoblash mashinalari, ovozni yozib olish va eshittirish apparatlari bilan ishlash, o‘quv materiallari asosida kompyuterlarda dasturlar tuzish amaliy metodlarning yangi turlari sanaladi.

Amaliy metodlarning eng qadimiy turi mashqdir. **Mashq** – o‘rganilgan bilimlarni turli o‘quv sharoitlariga tatbiq etish yo‘li. Mashq vositasida turli malakalar: inteluktual va aqliy, xususiy (masalan, matematika, ona tili bo‘yicha) va umumiy (masalan, barcha o‘quv fanlariga oid) malakalar tarkib toptiriladi.

O‘quv materialini og‘zaki bayon qilish metodi bayon qilinayotgan ma‘lumotlarning to‘g‘ridan to‘g‘ri ta‘lim beruvchining jonli nuqti orqali idrok qilinishi bilan tavsiflanadi va ana shu xususiyatiga ko‘ra ta‘limning boshqa metodlaridan farq qiladi.

Ta'limning ko'rgazmalilik metodidan amaliy faoliyatda foydalanishda namoyish etish, tasvirlash va ekskursiya metodi bilan ish ko'rishda ta'lim oluvchilarni turli mavzularda tasviriy materiallar bilan ishlashga jalb etish muhim didaktik ahamiyatga ega.

Amaliy mashg'ulotlar metodi, asosan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustahkamlash va uni amalda qo'llay olish, tegishli ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Mashq qildirish metodi o'quv predmetlarining mazmuni va tavsifiga qarab turlicha olib borilishi mumkin. Ta'lim oluvchilarning o'zlashtirgan ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mashq qildirish lozim.

Laboratoriya metodi. Bu ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga atrofni o'rab turgan obyektiv borliqdagi narsa va hodisalar, ularning shakli, hajmi, tarkibi, tuzilishi, o'zgarishi va rivojlanishi qobiliyatlari haqida yangi-yangi bilimlar berish, o'zlashtirayotgan ilmiy bilimlarni mustahkamlash hamda tegishli ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim vositalari. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan vositalar ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. O'qitishning *asosiy vositalari* bu asosiy o'quv mazmuniga ega bo'lgan rejalar, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari. O'qitishning *qo'shimcha vositalari* bu ta'lim oluvchilardagi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantiruvchi masalalar, mashqlar to'plami, ma'lumotnomalar, tarqatma materiallar, ko'rsatmali va ko'rgazmali vositalar, fleshxotiralar, AKT va boshqalar. O'qitishni takomillashtiruvchi *dastur vositalari* – bu mutaxassislar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va predmetdagi tegishli mavzular bo'yicha dars jarayonini takomillashtirishga imkon beruvchi intellektuallashtirilgan dasturlar va uni amaliyotga joriy etishga sharoit yaratuvchi dasturiy-texnik vositalar.

1.3. TA'LIM METODLARI VA TEXNOLOGIYALARI

6 §. Metod va uning turlari

Innovatsiya (inglizcha *innovation*) - yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi. Interfaol so'zi interaktiv so'zidan olingan bo'lib, **Interaktiv** ("inter" - o'zaro, "act" - harakat qilmoq) - o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, **o'qitishning interfaol** usullari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rnini qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi. Interfaol metodlar kunning dolzarb masalasi sifatida bir necha bor muhokamalarga sabab bo'lgan. O'quvchilarning faollashuviga olib keladigan bu termin ham bir metoddan kelib chiqib turlicha talqin etiladi. Shu bois bu terminni yuzaga chiqaruvchi metodlar haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Ma'lumki, bilim berish, o'qitish "*ta'lim jarayoni*" deb, ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi fan esa "*metodika*" deb yuritiladi. Ta'lim jarayonida maqsadga erishish, masalalarni hal qilish yo'llari, usullari esa *metod* demakdir.

"Metod" yunoncha so'z bo'lib, "yo'l" ma'nosini ifodalaydi va obyektiv borliqdagi predmet, hodisalarni, ya'ni tadqiqot manbayini ilmiy tahlil qilish, o'rganish orqali uning mohiyatini, tabiati, tarkibiy qismlarini, muayyan o'ziga xos xususiyatlarini topish, ochish, ular haqida ilmiy xulosalar, umumlashmalar chiqarish usulini anglatadi.

Ta'lim usuli o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlari bo'lib, u o'quv materialini nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirish yo'llarini anglatadi. Shunisi ravshanki, ko'proq hamkorlikda ishlash metodlari eng samarali metodlar hisoblanadi.

Ta'limning shakli, vositalari, metodlari maktablarda sinfdan sinfga, oliy ta'limda bosqichdan bosqichga o'tgan sari oddiydan murakkabga qarab o'stirib borilgan holda qo'llanilishi lozim. Masalan, ta'limning quyi bosqichlarida ko'proq rasmlar, narsa-buyumlarning o'zidan foydalanilsa, o'rta va yuqori sinflarda turli jadvallar, chizmalardan, video lavhalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi, o'rta muxsus va oliy ta'limda esa ta'lim jarayonida kodoskop, slayd, kompyuter, internet kabi zamonaviy axborot vositalarini yanada kengroq qo'llash mumkin.

O'qituvchi dars jarayonida bir emas, bir necha metodlardan bir darsda foydalanish mumkin, ushbu metodlarning to'g'ri qo'llanishi mashg'ulotning ilmiy-nazariy samaradorligini oshiradi, o'quvchilarni aqliy va ilmiy jihatdan faollashtiradi. Turli xil pedagogik vaziyatlarda o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyati fikrlarining o'zgarib, avlmashinib turishi, albatta, dars metodlarining o'zgarishiga ham sabab bo'ladi. Bu bosh natijada har bir darsning boshqalariga o'xshamagan shaklda, o'ziga xos tarzda tashkil etilishiga yordam beradi va o'quvchilarda ushbu fanga qiziqish, yangiliklarni ilg'ab olishga intilish hissini uyg'otishga yordam beradi.

Yuqorida aytilganlardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, ta'lim metodi – o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli.

7 §. Ayrim metodlar xususida

Jonli muloqot metodi – o'quvchilar tomonidan mavzuni puxta o'zlashtirishga erishish, hamkorlikda faol ishlashni shakllantirish, ma'lum vaziyatlarni boshqarishni o'rgatish, o'quvchilarning badiiy kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish hamda o'quvchilarda tayanch va fanga doir kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida amalga oshiriladi. Metod shartiga ko'ra jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun o'zbek tili va birorta xorijiy tilni mukammal o'zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish kerak. O'quvchining o'z fikrini aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berishi, ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish qobiliyati

shakllanadi. Muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z nuqtayi nazarini himoya qila bilish, uni ishontira olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur bo‘lgan qarorlarni qabul qila olish shakllanadi.

Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi. Kompyuter internetga ulanib “ZOOM” dasturlari ishga tushiriladi. Oldindan kelishib olingan yozuvchi, san’atkor, shifokor, tarixchi bilan “Vebkamera” yordamida aloqa o‘rnatiladi. Dars jarayonida o‘quvchilar monitorda ular bilan jonli efirda muloqotga kirishadilar. Natijada o‘quvchilarning nazariy bilimlarini kengaytirib, amaliyotda mustaqil va samarali foydalana olish ko‘nikmalarini hosil qiladi va ijtimoiy faollikni shakllantiradi, shuningdek, yetuk axloqiy sifatlarni tarkib toptirib, teran va sog‘lom fikr yuritishga o‘rgatadi.

Muammoli vaziyat metodi – ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Metod shartiga ko‘ra o‘qituvchi birorta muammoli vaziyatga tavsifi beradi. Masalan, “Xorazmshohlar davlatining qulashi”, “Sotiboldining xotinini o‘limi”, “O‘quvchilarning imloviy savodsizligining oshishi” kabi muammolarni berishi mumkin. Muammoni qo‘yayotganda jabobi yo‘q muammolarni bermaslik kerak. Sinf mikro guruhlariga bo‘linadi. Guruhlar muammoli vaziyatning kelib chiqish **sababini** aniqlaydilar. So‘ngra uning **oqibatlari** to‘g‘risida fikr yuritadilar, vaziyatni **yechimini topish** yo‘llarini ishlab chiqadilar va **taqdimot** qiladilar.

Muammo	Sabablari	Oqibatlari	Yechimi
Sotiboldining xotini nega o‘ldi?	Sotiboldi ham, xotini ham juda	Vaqtida kasallik davolanmadi. Bor imkoniyatlarini	Har qanday vaziyatda ham bemor shifokor ko‘rigiga olib borilishi kerak edi. Kasalligi

	befarq va nochor edi.	boshqa narsalarga sarflab yubordi	aniqlanib, o'sha bo'yicha chora ishlab chiqilishi lozim edi.
--	-----------------------	-----------------------------------	--

Bahs-munozara metodi – biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs-munozara va fikr almashuv tarzida o'tkaziladigan jarayon. Muammoli vaziyat metodini ham bahs-munozara metodida tashkil etish mumkin. Shu sababli bu ikki metod bir-biriga juda yaqin hisoblanadi. Ammo “Bahs-munozara” metodi muammoni to'laroq, aniqroq, chuqurroq yechishga qaratilgan. Bahs-munozara vaqtida o'quvchilar ta'limdagi ba'zi muammo va kamchiliklar bo'yicha fikr almashadilar. Mazkur metoddan dars paytida foydalanilganda o'quvchilarning turli kompetensiyalari shakllanadi. Metodni qo'llashda muammoli savol beriladi. Hamma o'quvchilar javob berishadi, barcha o'quvchilar tinglanib, fikr-mulohazalar tahlil etilib, to'g'rilari ajratib olinadi. Aniq va maqbul bo'lgan yechimlar tanlab olinib, umumlashtiriladi va xulosa beriladi. Badiiy adabiyotga aloqador bo'lgan mavzular bahs-munozaraga olingan bo'lsa, xulosalar umumlashtirilmaydi, barcha kichik guruhlar o'z xulosalarida qolishlari uchun o'qituvchi umumlashtirmagani maqul.

Munozara metodi – bu metod yordamida o'quvchilarga muayyan muammo bo'yicha to'liq axborotlar etkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni o'quvchilar ayovsiz “shturm” qiladilar va pirovard natijada muammoga tegishli ma'lumotlarni atroflicha o'rganadilar.

O'qituvchi mavzuni oldindan tanlaydi va ishtirokchilarni taklif etadi. U o'quvchilarga “aqliy hujum” topshirig'ini beradi va uning qoidalarini tushuntiradi. “Hujum”dan maqsad – muammo yechimiga oid variantlarni mumkin qadar ko'proq taklif etish. Bunda o'quvchilar o'z aql-idrokini markazlashtirishga harakat qiladi va diqqatni muammo yechimiga qaratgan holda fikrlar bildiradi. Bildirilgan g'oyalar umumiy fikrga zid bo'lsa-da, hech biri rad etilmaydi. O'qituvchi darsga yaxshi qatnashmayotgan o'quvchilar g'oyalarini ham rivojlantirib turishi lozim.

Bir o‘quvchi kotiblik qiladi va u yuzaga kelgan barcha g‘oyalarni yozib boradi. Muhokama vaqtida so‘zga chiquvchilar tartibi o‘rnatiladi, munozaraga barcha ishtirokchilar jalb etiladi va ularga o‘z fikrlarini ifodalash uchun imkoniyatlar berildi. Bu metodning aqliy hujum metodidan farqli tomoni shundaki, fikrlar xilma-xilligi va miqdori inobatga olinadi. Dars so‘nggida yagona yechimga kelinmaydi. Hamma o‘z fikrida qolishi taminlanadi.

Intervyu metodi – o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatishga qaratilgan jarayon. Sinfdagi o‘quvchilar mikro guruhlariga bo‘linadi (5 yoki 6 nafardan). Har bir mikro guruhdan bir o‘quvchi gazeta yoki televideniya muxbiri sifatida tanlanadi. Muxbirlar alohida tayyorgarlik ko‘rishlari lozim. Yoritilishi lozim bo‘lgan mavzu yuzasidan savollar tuzishlari uchun har bir muxbir o‘z mikro guruhidan yordam oladi. Savollar imkon qadar takroriy bo‘lmasligi kerak. Muxbirlar tayyor bo‘lgach, boshqa mikro guruhlar oldiga borib intervyu olishadi. Har bir guruh muxbiri o‘z maqsadiga erishishi uchun savollarni aniq berishi, javoblarni tahlil qila olishi, masalaga qanday yondashayotganligi kuzatib boriladi.

Takrorlash darsida savol namunalari:

1. Bugundi dars qanday o‘tyapti?
2. Siz bugun nimalarni o‘rganmoqchisiz?
3. Kitob o‘qish insonni qay darjada zukko qiladi? O‘qimaslikchi?
4. Ma’lumot olish bilan bilim olishning nima farqi bor?

A. Qahorning “Bemor” hikoyasi bo‘yicha savollar namunasi:

1. Sotiboldi nega bunday holatga tushdi deb o‘ylaysiz?
2. Yosh bolaning tongda qilgan duosi rostdan ham ijobat bo‘ladimi?
3. Abdurahimboy obrazi orqali siz kimlarni ko‘ryapsiz?
4. Vaqealar yilning qaysi paytida sodir bo‘lgan? Asoslar keltira olasizmi?
5. Aslida bemor kim?

Har bir o‘quvchi berilgan savollarga asosli, dalillar bilan fikrlar aytishi, muxbir ularni baholab borishi lozim. O‘z isbotini topmagan javob

uchun baho qo'yilmasligi muhim. Dars tugagandan so'ng o'qituvchi muxbirlarni va savollarga to'g'ri javob bergan o'quvchilarni baholaydi.

Tasavvur olami metodi – o'quvchilarning o'tilayotgan fan bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini hayotning keyingi bosqichlarida bemalol qo'llashi bo'yicha shaxsiy kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradi. Mazkur metoddan unumli foydalana olgan o'qituvchi dars jarayonini rejalashtirishda qiynalmaydi. Chunki bugungi kun yoshlarining o'zlashtirish sifat ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishi, o'qituvchini dars jarayonida zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanishiga bog'liq. Kompyuter texnologiyalarini chuqur va puxta o'zlashtirgan o'qituvchilar bu metodni amalga oshirishga aslo qiynalishmasalar kerak. Tasavvur olami metodini amalga oshirishda "Power direktor" dasturidan foydalanish mumkin. O'qituvchi mavzusidan kelib chiqqan holda turli rolik, lavha va tasvirlarni nafaqat kompyuter yordamida balki mobil telefonida ham qisqa vaqtda tayyorlay olishi mumkin. Tasavvuri boy, dunyoqarashi keng insonni shakllantirishda bu metodni o'rni katta. Mazkur metod nafaqat o'qituvchi, balki o'quvchilarni ham ijodkorlikka yo'naltiradi. Metod darsni ko'rgazmalarga boyligi bilan boshqa darslardan ajratib turadi.

Kichik guruhlarda ishlash metodi – o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lum bir topshiriqni hamkorlikda bajarish uchun o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratib, berilgan topshiriqning yechish yo'llarini ishlab chiqishni taqozo etuvchi metod. Ya'niy ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda o'quvchilar kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish imkoniga, boshlovchi rolida bo'lish, bir-biridan o'rganish va turli fikrlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi. Kichik guruhlarda ishlash metodida boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyati mavjud bo'ladi. Chunki o'qituvchi bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilarni mavzuga jalb etadi va baholay oladi.

Metodni qo'llanishida sinf o'quvchilari 4 yoki 5 nafardan mikro guruhlar ajratiladi. Muammodan bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi. Mikro guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar. Belgilangan vazifalar yuzasidan o'qituvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va o'qituvchi tomonidan yo'naltirib turiladi. O'rganilgan mavzuni mikro guruhlar taqdimot qiladilar. Bajarilgan barcha topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi. Dars so'ngida barcha mikro guruhlar baholanadi. Baho mikro guruhga bitta qo'yiladi.

Natijada o'quvchilar mavzuni yaxshi o'zlashtirishadi, muloqotga kirishish ko'nikmasi takomillashadi, vaqt tejaladi, barcha o'quvchilar jalb etiladi, o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

Davra suhbati metodi – o'quvchilar o'rtasida va kichik guruhlarda aylana stol atrofida o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodi. Davra suhbat i metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish talab etiladi. Bu har bir o'quvchining bir-biri bilan ko'z aloqasini o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining **og'zaki** va **yozma** shakllari mavjud. **Og'zaki davra suhbatida** o'qituvchi mavzuni boshlab beradi va o'quvchilardan ushbu mavzu bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir o'quvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki holda bayon etadilar. So'zlayotgan o'quvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashishiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. **Yozma davra suhbatida** ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir o'quvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir o'quvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va yonidagi o'quvchiga uzatadi. Konvertni olgan o'quvchi o'z javobini qog'ozga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi o'quvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Barcha o'quvchilar javob yozib bo'lgach, konvertlar yigib olinib, tahlil qilinadi.

Savol-javob metodi – o‘quvchilarga mavzu yuzasidan savollarga javob berishni nazarda tutadigan metod. Nazariy jihatdan savollar turli maqsadlarni ko‘zlab beriladi, lekin bu maqsadlar alohida ko‘rinishlarga ega bo‘ladi va ular quyidagi maqsadlarda beriladi: tekshirish uchun, o‘rgatish uchun, faoliyat yuritishga erishish uchun, turlicha bo‘lgan fikr-mulohazalarni aniqlab olish uchun, o‘xshashlik jihatlarni aniqlab olish uchun, (kishining ixtisoslik tajribasiga yaqinlashish uchun), tortinchoq o‘quvchilarni jarayonga jalb etish uchun, o‘quvchilarni darsga jalb etish uchun. Bu metod vaqtdan unumli foydalanishga, mavzuni takrorlashga va o‘qituvchi guruhni to‘liq nazorat qila olishiga yordam beradi.

Metodni amalga oshirish uchun savol berish qoidalarini puxta o‘zlashtirish lozim. Bunda o‘quvchi savollarni aniq va tushunarli ifodalashi, so‘roq so‘zlarni o‘z o‘rnida ishlatishi, savolni avval butun guruhga berish, so‘ngra savolga javob beradigan o‘quvchining ismi-sharifini ayitishi talab etiladi.

Qoidaga ko‘ra ayrim savollarni bermaslik kerak bo‘ladi: **Zanjirband savollar** – o‘qituvchi ketma-ket bir necha savollar berib, o‘quvchilarga na o‘ylashga, na javob berishga vaqt beradi. **Suggestiv savollar** – o‘qituvchi o‘quvchiga huddi tayyor javob berib qoyganday bo‘ladi. O‘quvchida boshqa bir fikr-mulohazasini bildirish imkoniyati bo‘lmaydi. **Alternativ savollar** – ya‘ni o‘quvchi faqat “ha” yoki “yo‘q” deb yoki bo‘lmasa, bitta yoki ikkala javobni berishi mumkin bo‘lgan savollar. **Stereopotip savollar** – savolning mazmunida “. . . nima?” degan ma‘no bo‘lmasligi kerak. Savol aniq va tushunarli berilishi lozim. **Qopqon yoki qalbaki savollar** – biror o‘quvchini uyaltirish uchun, yashiringan tanbeh yoki kesatib gapirishlar tariqasida berilgan savollar.

Nuqtayi nazaring bo‘lsin metodi – o‘quvchilar o‘rtasida munozara yuzaga kelishi va ular munozara jarayonida o‘z fikrlarini o‘z sinfdoshlaridan ularning nuqtayi nazarini o‘zgartirishga ishontiradigan g‘oyalarni eshitib o‘zgartirish yoki avvalgisini mustahkamlash imkonni berish maqsadida qo‘llanadi. Nuqtayi nazaring bo‘lsin metodida o‘quvchilar maktab, mintaqa, respublika va butun dunyo uchun xarakterli

bo'lgan eng dolzarb muammolar ustida o'z nuqtayi nazarlarini asosli dalillash va himoya qilishga o'rganadilar.

Metod talabiga ko'ra o'quvchilar muayyan muammoga o'z nuqtayi nazarini asosli dalillab, himoya qilishga, muammo muhokamasi jarayonida o'z fikrini o'zgartirishga, o'quvchilar o'rtasida munozara jonlanishini yuzaga kelishiga, ochiqdan-ochiq savollar usuli bilan odatda dars jarayonida faol bo'lmagan o'quvchilarni munozarada ishtirok etishiga o'rgatadi.

Bu metodni o'tkazish uchun o'qituvchi sinfning to'rt burchagiga yoki sinfning ma'lum ochiq makoniga to'rtta jadval osib qo'yadi. Sinf o'quvchilaridan (o'quvchilar soniga bog'liq holda) olti nafarini chaqiradi. Dars jarayonida band bo'lishi uchun ishtirok etmayotgan o'quvchilarga ham topshiriq berish zarur. Metodni boshlashdan avval o'qituvchi darsga yo'l-yo'riqlar berishi zarur, jumladan: takidlov o'qib berilganidan keyin o'z fikringizga muvofiq jadvallar yonidan joy egallang; o'z nuqtayi nazaringizni asosli dalillab berishga shay turing; agar muammoga nuqtayi nazaringizni o'zgartirishga undovchi asosli dalilni eshitsangiz, o'z o'rningizni almashtirishingiz mumkin; sinfdoshlaringiz takidlariga o'z fikringizni bayon etishga shay turing kabi. O'qituvchi darsda faol ishtirok etmayotgan o'quvchilarga topshiriqlar beradi, masalan: ularning fikricha eng ahamiyatli ta'kidlovlarni yozib borish, o'yin jarayonida o'z o'rnini o'zgartirmagan o'quvchilarni yozib borish, eng asosli dalillab berilgan javoblarni yozib borish singari.

Aqliy hujum metodi – biror muammo bo'yicha o'quvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga (to'xtamga) kelinadigan jarayon. Metodning mohiyati jamoa hamkorligi asosida muammoni yechish jarayonlarini vaqt bo'yicha bir qancha bosqichlarga (g'oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqish) ajratishdan iborat. Dars jarayonida aqliy hujumdan maqsadli foydalanish ijodiy, nostandart tafakkurlashni rivojlantirish, fikrlar orasidan maqbulini tanlab olishga o'rgatadi. Aqliy hujumni uyushtirish bir muncha sodda bo'lib, undan ta'lim mazmunini o'zgartirish jarayonida foydalanish bilan birgalikda

ishlab chiqarish muammolarining yechimini topishda ham juda qo‘l keladi.

Dastlab 5 yoki 6 nafardan iborat mikro guruh yig‘iladi va ular oldiga muammo qo‘yiladi. Bu muammo yechimi to‘g‘risida barcha ishtirokchilar o‘z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kimning o‘zga kishi g‘oyalariга hujum qilishi yoki baholashiga haqqi yo‘q. Demak, aqliy hujum yo‘li bilan qisqa vaqtda o‘nlab g‘oyalarni yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud bo‘ladi. Aslini olganda g‘oyalar sonini qo‘lga kiritish asosiy maqsad emas, ular muammo yechimini oqilona ishlab chiqish uchungina asos bo‘ladi. Bu metod shartlaridan biri hech qanday tashqi ta’sirsiz qatnashuvchilarning har biri faol ishtirokchi bo‘lishi kerak. Bildirilgan g‘oyalarning besh yoki oltitasigina asosiy hisoblanib muammo yechimini topishga salohiyatli imkoniyatlar yaratadi. Televideniya orqali uzatiladigan “Zakovat” ko‘rsatuvi Aqliy hujum metodida amalga oshiriladi.

Aqliy hujum metodining *yozma* va *og‘zaki* shakllari mavjud. ***Og‘zaki shaklida*** o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga o‘quvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. O‘quvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. ***Yozma shaklida*** esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar marker doskaga (magnitlar yordamida) yoki pinbord doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. Aqliy hujum metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu usul to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

Arra metodi – barcha guruh a’zolari o‘quv materialini yuzasidan tuzilgan yagona topshiriq ustida ishlashga qaratilgan jarayon. Avval sinf o‘quvchilari mikro guruhlariga bo‘linadi. Guruh ichida o‘quvchilar berilgan topshiriqlarni qismlarga ajratib, bo‘lib oladilar. Har bir o‘quvchi o‘ziga tegishli qismini puxta o‘zlashtirib o‘sha topshiriq bo‘yicha mutaxassisga aylanadi. Dars oxirida har bir kichik guruhdagi mutaxassislar uchrashuvi qayta tashkil etilgan guruhlarda o‘tkaziladi. Har

bir mutaxassis o‘zi o‘zlashtirgan topshiriqni boshqalarga tushuntiradi. Mavzu shu tariqa navbatma-navbat o‘zlashtirib olinadi. Mavzuni mutaxassislar o‘zlari egallagan bilimlarni xuddi arra tishlari ketma-ket kelganidek navbat bilan o‘rtoqlariga bayon qilishadi. Mazkur guruhlarda o‘quv materiali mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi. Shu sababli mazkur metodni arra metodi deb atashadi. Metodning maqsadi shuki, mikro guruhda ishlashi bilan birga jamoa va mikro guruhlar faoliyati uzviy olib boriladi, barcha o‘quvchilar to‘liq jalb etiladi, o‘ylagan fikrlarini yozma tarzda bayon etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O‘quvchilar bilimi test savollari yordamida individual tarzda o‘tqazilib nazorat qilinadi va baholanadi. Guruh a‘zolarining ballari jamlanadi, eng yuqori ball to‘plagan guruh g‘olib sanaladi.

O‘z o‘rningni top metodi – ko‘plab muammolarning yechimini topish uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, fikr bildirishda o‘z fikrini himoya qilishga, qaysi fikr tomonida ekanligini aniqlashga o‘rgatadigan usul. Agar sinfda u yoki bu mavzu bo‘yicha tortishuvlar vujudga kelsa bu metod yordamida muammoning yechimini topish mumkin. Birinchidan, o‘z o‘rningni top metodidan ko‘pincha darsning kirish qismida foydalanishadi va o‘tilayotgan mavzuni o‘rganishga turli xil yondashuvlar mavjudligi namoyish etiladi. Ikkinchidan, o‘quvchilarga o‘z fikrini bayon qilishga, muloqot ko‘nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo‘ladi. Uchinchidan, dars so‘ngida o‘qituvchi tomonidan mavzuni o‘zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi.

Sinfning qarama-qarshi burchaklariga ikkita plakat osiladi. Ularning biriga “roziman”, ikkinchisiga “rozi emasman” degan so‘zlar yozilishi kerak. Plakatlarda ba’zi bir mavzuga oid savollar bo‘yicha bildirilgan qarama-qarshi fikrlar ham yozilish mumkin. Masalan: “anjir gullaydi va meva tugadi”, yoki “anjir gullamasdan meva tugadi”. Darsni tashkil etish qoidalari muhokama qilinadi va qaralayotgan muammo yuzasidan o‘z fikrlariga mos keladigan plakat yoniga borish zarurligi o‘quvchilarga taklif etildi. Bo‘lingan o‘quvchilardan o‘z qarashlarini asoslash so‘raladi. Bu paytda bir guruhdan ikkinchi guruhga o‘tishga ruhsat etiladi va shu tariqa sinf o‘quvchilarining hammasi jalb etildi. Muammo bo‘yicha fikrlar

bildirilgach, o‘quvchilar ichida munozara davomida o‘z nuqtayi nazarini o‘zgartirganlar va boshqa guruhga o‘tuvchilar bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda ular o‘z o‘rnini o‘zgartirish sabablarini asoslashi kerak bo‘ladi. Dars so‘ngida ishtirokchilardan opponentlari ichida muammo yuzasidan eng ishonchli fikr aytgan o‘quvchilarni aniqlash so‘raladi.

Menyu metodi – darsni qismlarga bo‘lib, menyu holatida o‘zlashtirishga qaratilgan ijodiy jarayon. Sinf o‘quvchilari bilan yakka tartibda yoki mikro guruhlarda ish olib borishni xohlagan ijodkor o‘qituvchiga Menyu metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda kichik guruh (o‘quvchi) ga aniq topshiriq beriladi. Misol, “O‘zbekiston fuqarolarining huquqlari” yoki “Bemor” hikoyasi tahlili mavzulari o‘tilayotganda ishlatish mumkin. O‘qituvchi har bir guruh uchun alohida topshiriq tayyorlaydi.

O‘zbekiston fuqarolarining huquqlari”	“Bemor” hikoyasining tahlili
I. Konstitutsiyaviy huquqlar.	I. Tarixiy faktlarning berilishi.
II. Ma‘muriy huquq asoslari.	II. Tibbiyot sohasining ahvoli.
III. Fuqarolik huquqlari asoslari.	III. Ijtimoiy sohani rivojlanishi.
IV. Mehnat huquqlari asoslari.	IV. Til elementlaridan foydalanish.
V. Ekologik huquqlari asoslari.	V. Iqtisodiyotning rivoji.

Sinf o‘quvchilaridan iborat mikro guruhlardan har bir guruh topshiriq oladi va 3 daqiqa davomida muhokama qilishadi, so‘ngra har bir guruhlardan bittadan vakil o‘qituvchi stoliga kelishadi va tayyor “Menyu”ni olib qaytishadi. Bu uzun qirqilgan qog‘ozlar – topshiriqlar bo‘lib, ularda xilma-xil huquq normalari bayon qilingan bo‘ladi. Guruh vakili topshiriqlardan tanlab oladi va o‘z guruhiga olib keladi, keyin boshqa o‘quvchi shu ishni bajaradi va zaruriy materiallar yig‘ilguncha bu holat davom etadi. 10 daqiqa davomida topshiriq muhokama qilinadi va rasmiylashtiriladi. Bu jadval qo‘lda tayyorlanishi ham mumkin yoki javoblar og‘zaki ham, yozma ham bo‘lishi mumkin. Boshqa guruh vakillari savollar berishadi, o‘qituvchi esa guruh ishlarini, sardor faoliyatini baholab beradi.

Debat metodi – o‘quvchilarda ijtimoiy fikrni o‘zgartirishga ta’sir etish qobiliyati mavjudligiga ishonch tuyg‘ularini rivojlantiradigan jarayon. Debatlar asosida darslarni tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad muammoning yechimini topishda o‘quvchi o‘zgalarni o‘z yondashuvining to‘g‘riligiga ishontirishdir. O‘z fikrini aniq va mantiqiy bayon etish, buning uchun esa ishonarli dalillar va hulosalar topish ko‘nikmalarini shakllantirishda debatlar o‘tkazish samarali metod hisoblanadi.

Debatda qatnashish uchun iqtidorli o‘quvchilar tanlanadi va ular ikki guruhga ajratiladi: rezolyutsiyani qo‘llab-quvvatlaydigan va ularga qarshi chiquvchi ishtirokchilar debatlarini o‘tkazish qoidasini chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishlari kerak. Guruh sardori reglamentga rioya qilishni kuzatuvchi - yordamchini tayinlaydi.

Faktlar tarkibi 3-5 ta holatga asoslangan; mantiqiy ifodalangan va daliliy materiallar bilan mustahkamlangan faktlar tayyorlash uchun o‘quvchilarga yetarlicha vaqt beriladi. Ularga muammoning ko‘lamini anglash va bahsda o‘z fikrini saqlab qolishlari uchun aniq, mantiqiy faktlar tayyorlashda o‘qituvchi yordam berishi kerak. Shu bilan birgalikda o‘quvchilar qarshi tomon bildirgan fikrlarni qanday bo‘lishi mumkinligini taxmin qilishlari va oldindan bu fikrlarni inkor etishga ham tayyorgarlik ko‘rishlari lozim.

Bahslashuv natijasida o‘quvchilar nimalarni qo‘lga kiritish mumkinligini tushunib yetsagina dars samarasi to‘g‘risida gapirish mumkin. O‘quvchilarni shunday dalil-isbot topish ko‘nikmalarini egallashga o‘rgatish kerakki, natijada bildirilgan fikrni qarshi tomonning muhokama qilishiga o‘rin qolmasin. Shundagina o‘quvchilar tengdoshlarining qarashlarini hurmat qilishga yoki xususiy tasavvurlarini sinfdoshining fikri oldida ojiz ekanligini tan olishga o‘rganadi, eng asosiysi, ularda erkin fikr yuritish ko‘nikmalari shakllana boradi.

Tanqidiy fikrlash metodi – bahsli savollarni yechish uchun o‘quvchilarda tinglash, muloqot olib borish, turlicha fikrlarni taqqoslash, boshqa kishi taqdiriga befarq qaramaslik kabi xislatlarni shakllanishiga

xizmat qiladigan jarayon. Metod masalalarni yechish va tegishli hukm chiqarish, analitik fikrlash qobiliyatlari rivojlantiradi, ma'lum ketma-ketlikda tafakkur yurgizish, to'g'ri yechimlarni topish malakalari oshiradi. Jamiyatda har bir fuqaro o'z oldida turgan muammolarni oqilona yechish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Metodning maqsadi, o'quvchilarni darslarda ko'proq bahsli tortishuvlarga sabab bo'ladigan muammolarning yechimini topishga jalb etishdan iborat.

Munozarali bo'lgan savollarni analitik-sintetik tahlil qilish va obyektiv fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun tanqidiy fikrlash metodi kerak bo'ladi. Ro'y berayotgan voqelikni tanqidiy fikrlash asosida baholash quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin: 1. O'quvchining o'z fikrini erkin ifodalashi. 2. O'z fikrini oydinlashtirish. 3. O'quvchilarning fikrlarini asoslanganligini tekshirib ko'rish. 4. Boshqalar fikrini o'rganish. 5. O'z holatini va o'zgalar fikrini tahlil etish. 6. Muammo bo'yicha yechim qabul qilish.

Tanqidiy fikrlash metodining so'ngi bosqichidan so'ng o'quvchilar tomonidan bildirilgan turlicha fikrlar qaytadan baholanadi va mutanosiblik aniqlanadi. Buning uchun: qaysi natija eng qulay va ishonchli? Kimning chiqishi maqsadga muvofiq bo'ldi? Siz bahsga qanday nuqta qo'ygan bo'lardingiz? Kabi savollar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Ta'lim sandiqchasi (keys-stadi) metodi – o'quvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatni tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim jarayoni.

Ta'lim sandiqchasi metodi ta'lim axborotlar kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va sandiqchada bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida bashorat qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan ta'lim texnologiyasidir. Shu jihatdan ayrim manbalarda bu metodni texnologiya sifatida ham beriladi. (Keys-stadi inglizcha "case" – aniq vaziyat, hodisa, "study" – o'qitish). Bu metod

aniq vaziyat, hodisaga asoslangan o‘qitish metodi hisoblanib, keys-uslub – real iqtisodiy yoki ijtimoiy vaziyatlar ta’rifini qo‘llaydigan ta’lim berish texnikasini bildiradi. Bunda *vaziyat* deganda biron aniq hodisaning ta’rifi nazarda tutiladi. Guruhga haqiqiy axborot taqdim etilib (u haqiqiy hodisaga asoslangan yoki o‘ylab chiqilgan bo‘lishi mumkin), muammolarni muhokama qilish, vaziyatni tahlil etish, muammoning mohiyatini o‘rganib chiqish, ularning taxminiy yechimlarini taklif qilish va bu yechimlar orasidan eng yaxshisini tanlab olish taklif etiladi.

Bunday metodlar keysda tavsiflangan aniq vaziyat o‘rganishni voqelikka bog‘lab qo‘yadi hamda o‘quvchiga muammoni hal etish bo‘yicha vaziyatni tahlil qilish tahminlarni shakllantirish muammolarni aniqlash qo‘shimcha ma’lumotni yig‘ish taxminlarni aniqlashtirish va aniq qadamlarni loyihalashtirish imkonini beradi. Masalan:

1-keys. Hozirgi kunda lotin grafikasiga to‘liq o‘tish masalasi dolzarb muammo bo‘lib turibdi. Nima uchun bu jarayon ko‘p yillardan buyon nihoyasiga etmayapti? Muammoni bartaraf etish bo‘yicha takliflaringizni tayyorlang.

2-keys. Amaldagi lotin alifbosida ayrim harfiy birikmalar va harflar yozilishi murakkab bo‘lganligi tufayli e’tirozlarga sabab bo‘lmoqda. Lotin yozuvini isloh qilish yuzasidan qanday taklif bera olasiz? Sizningcha, ayrim tovushlarni harfiy birikmalar orqali ifodalagan ma’qulmi yoki bitta harf bilan? Alifbodagi qaysi harf o‘zgartirilishi kerak deb o‘ylaysiz va uni qanday ifodalash tarafdorisiz?

BBB metodi – o‘qituvchi o‘quvchining nimalarni bilishini, nima bilmoqchi ekanligini inobatga olib, uning bilmoqchi bo‘lgan mavzusi yuzasidan ma’lumot berishi va dars so‘nggida esa nimalarni bilib olganliklari aniqlashtirilishiga qaratilgan jarayon. Bu metoddan asosiy maqsad – o‘quvchi ehtiyoji va qiziqishlarini inobatga olgan holda darslarni tashkil etishdan iborat.

B – bilaman.

B – bilmoqchiman.

B – bilib oldim.

Bu sxema orqali o‘quvchiga topshiriq beriladi. O‘quvchilar yangi mavzu bo‘yicha nimalarni bilishini aytishadi. Keyin o‘qituvchi yana nimalarni bilishni istashlarini, bilmoqchi ekanligini so‘raydi. O‘quvchilar aqli yetganicha bilmagan narsalarini aytishadi, o‘qituvchi ularga yordam tariqasida dars rejasi bo‘yicha mana shu narsalarni bilasizlarmi, deya so‘rashi ham mumkin. O‘quvchilar reja bo‘yicha berilgan savollarni bilishmasa, sxemaning bilmoqchiman qismiga yozib qo‘yishadi. Dars so‘ngida esa bilib olgan narsalarini bilib oldim qismiga yozishadi.

Bilaman	Bilmoqchiman	Bilib oldim
<i>S vitamini borligini</i>	<i>S vitaminining hayotimizdagi o‘rnini</i>	<i>S vitamini orqali immunitet hosil bo‘lishini</i>

Galereya metodi – kichik guruhlarda birdaniga bir nechta masalani muhokama qilish imkonini berishga mo‘ljallangan usul. Bunda guruhning har bir a‘zosi barcha taklif etilgan masalalar muhokamasida ishtirok etishi va o‘z ulushini qo‘shishi mumkin. Bu metodda dars o‘tish bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi.

1. Masalani qo‘yish. O‘qituvchi har bir guruhga ma’lum muammo yoki masalani beradi.

2. Har bir guruh o‘z masalasi ustida ishlash. Masalalar ustida ishlash kichik guruhlarda amalga oshiriladi (odatda 5 – 10 daqiqa).

3. Kichik guruhlar qo‘shni guruhlar masalasi yechimini oxirigacha yetkazishga o‘tadi. Har bir kichik guruh o‘z g‘oyalarini yozgan katta varaqlarini olmasdan doira bo‘ylab siljiydi (Variant sifatida guruh siljishi o‘rniga doira bo‘ylab ishlangan g‘oyalar yozilgan katta varaqlarni uzatish mumkin. Bunda charxpalak metodining elementlaridan foydalaniladi).

4. Qo‘shni masalasi yechimini oxirigacha yetkazish. Har bir kichik guruh katta varaqqa yozilgan qo‘shni guruh g‘oyalarini o‘rganadi. Savol belgisi bilan rozi bo‘lmaganlarni belgilaydi. Qo‘shni masalasi yechimi bo‘yicha o‘z g‘oyalarini yozadi. 5 daqiqadan keyin guruhlar doira bo‘ylab

keyingi kichik guruhga o'tib, yana joylari bilan almashadi. Siljishlar soni kichik guruhlar (qo'yilgan masalalar) soniga teng.

5. O'z masalasiga qaytish. Masaladan masalaga doira bo'yicha o'tishlar har bir kichik guruh o'zining dastlabki masalasiga qaytish bilan tugallanadi. Guruhlar katta varaqlarida yig'ilgan g'oyalarni o'rganadilar.

6. Taqdimot va ish natijalari muhokamasi. Har bir guruhdan bir a'zo navbati bilan o'zlarining qog'oz varaqlarida yig'ilgan natijalar – g'oyalarni tushuntirish va sharhlar bilan taqdim etadi. Boshqa guruhlar ular taqdimot qilayotgan guruh varag'iga yozgan g'oyalarni tushuntiradilar va sharhlaydilar. Zarur hollarda g'oyalar umumiy guruhda muhokama qilinishi mumkin. Shuningdek, har bir guruhdan bir ishtirokchi Gid vazifasida ishtirok etishi va boshqa guruh vakillariga o'z muammosining asosiy g'oyasini tushuntirishi nazarda tutiladi.

Blits-so'rov metodi – ma'lum mavzu yoki bob yuzasidan qilinayotgan takrorlash darslarida savol tipida ko'rsatilgan variantlarni javob tipida ko'rsatilgan variantlarga mosligini belgilovchi jarayon. Bunda quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin. Dastlab mavzular yoki savollar yoziladi javoblar varianti yuqorigi ustunlarga yozilib qo'yiladi. Keyin maxsus belgilar bilan javoblarni belgilaydi. Shuni unutmaslik kerakki, javoblar faqat bitta ustunga mos va savollar ham bitta javobga mos bo'lishi nazarda tutiladi. Ayrim holatlarda savollar aynan bir ustundagi javoblarga mos tushib qolishi mumkin.

Ona tili fanidan Blits-so'rov metodi uchun namuna.

№	Misollar	Ot	Sifat	Son	Olmosh	Fe'l	Ravish	Ko'makchi
1	Yurmoq					+		
2	Bola	+						
3	Men				+			
4	O'ninchi			+				
5	Bilan							+
6	Sekin						+	
7	Yaxshi		+					

O‘quvchilar tomonidan to‘g‘ri javob topilgandan so‘ng, baholanadi. 7 ta savolga nisbatan 4-5 ta to‘g‘ri javob – qoniqarli; 6 ta to‘g‘ri javob – yaxshi; 7 ta to‘g‘ri javob – a‘lo.

8 §. Ta‘lim texnologiyalari nazariyasi va amaliyoti

Rezyume texnologiyasi. Bu texnologiya murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yo‘la mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Chunonchi, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Texnologiyaning maqsadi: o‘quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, mavzu yuzasidan izlanishga, fikrlarni jamlashga, shuningdek, taqqoslash yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o‘quv muammosini yechimini topishga o‘rgatishdan iborat. Texnologiya mavzu yuzasidan kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishni, jamoaga o‘z fikri bilan ta‘sir etishni, uni maqullashni, shuningdek, berilgan muammoni yechishda, mavzuga umumiy tushuncha berishda o‘tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo‘llay olishni o‘rgatadi.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi: o‘qituvchi o‘quvchilarning soniga qarab 4 yoki 5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;

o‘qituvchi o‘quvchilarni mashg‘ulotning maqsadi va o‘tkazilish tartibi bilan tanishtiradi va har bir kichik guruhga qog‘ozning yuqori qismida yozuvi bo‘lgan, ya‘ni asosiy muammo, undan ajratilgan o‘quv muammolari va ularni yechish yo‘llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaqlarini tarqatadi;

har bir guruh a‘zolari ularga tushgan varaqlardagi muammolarning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o‘z fikrlarini flomaster yordamida yozma bayon etadilar.

Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoni yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar;

kichik guruh a‘zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdimot etadi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o‘qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi;

o'qituvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so'rab, ular fikrini aniqlaydi, guruhlar fikridan so'ng taqdimot guruhi o'z xulosasi bilan tanishtiradi;

o'qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izoh berib, ularni baholaydi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

Labirint texnologiyasi. Texnologiya o'quvchilarning o'quv va hayotiy faoliyatlarida uchraydigan turli holat va vaziyatlardan chiqib keta olish, vaziyatni to'g'ri baholash hamda tezlik bilan kerakli yechimini topish, fikrlash qobiliyati va nutqiy faoliyatini o'stirish hamda muloqot qilish madaniyatini shakllantirish jarayoni hisoblanadi. Asosan bu texnologiyada muammodan qanday chiqib ketish lozimligi o'rgatiladi. Bu texnologiyada turli interfaol mashqlarni ham amalga oshirish mumkin.

Texnologiyaning maqsadi: o'quvchilarning o'quv va hayotiy faoliyatlarida uchraydigan turli xolat va vaziyatlardan o'z obro'larini saqlagan holda chiqishga o'rgatish, vaziyatni to'g'ri baholash va tezlik bilan kerakli yechimini topish ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatish, shu boradagi malakalarini oshirishga ko'maklashish, ularning fikrlash qobiliyati va nutqiy faoliyatini o'stirish hamda muloqot qilish madaniyatini shakllantirishga qaratiladi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: o'qituvchi mashg'ulot boshlanishi oldidan o'quvchilar uchun stullardan doira shaklida joy tayyorlaydi (doira shaklidagi joyning o'rtasiga savat (yoki tuvak)dagi guldastani qo'yish maqsadga muvofiq. Joyni bunday jihozlanishi mashg'ulotni qiziqarli va jonli o'tishiga yordam beradi. Imkon bo'lsa, bunday mashg'ulotni ochiq havoda, ya'ni tabiat qo'ynida o'tkazilsa, u holda o'quvchilar yashil maysalar ustida doira shaklida bemalol joylashib olsalar ham bo'ladi. Bu tabiat bilan integratsiyani taminlash orqali o'quvchilarning odatdagi darslardan boshqacharoq shaklda o'tishini taminlaydi. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishi bilan o'quvchilarni shu davradan joy egallashlarini so'raydi. So'ngra o'quvchilarning faoliyati rang-barang va hamisha har turli qiziq voqealar, hodisalar, vaziyatlarga boy ekanligi haqidagi qisqacha suhbat bilan mashg'ulotni boshlaydi.

Misol tariqasida o'qituvchi, o'quvchilar faoliyatida uchragan yoki uchraydigan vaziyatlardan biri to'g'risida gapirib beradi va shu vaziyatdan chiqish yo'lini so'raydi (yoki o'qituvchi vaziyatni aytib, uning uchta yechimini ham aytadi va o'quvchilardan uchta to'g'ri variantdan bittasini tanlashlarini va nima uchun shu variantni tanlaganliklarini tushuntirib berishlarini so'raydi).

Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarni xohishlariga ko'ra, uch kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi va ularga har bir kichik guruh ag'zolari tajribalaridan kelib chiqqan holda, o'quv va tarbiyaviy jarayonlarda o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatida uchraydigan yoki uchragan biron-bir muammoli vaziyatlarni eslashlari, ulardan eng qiziqarli, eng muammolisini tanlab, ularning yechimini (vaziyat, muammoning yechimi uch variantdan test yoki aniq bir javobdan iborat bo'lishi mumkin) ham topib qo'yish topshirig'ini beradi. Masalan, *o'quvchi uyga berilgan she'rni yod olishga qiynalyapti*. O'qituvchi shu muammodan kelib chiqib, labirint texnologiyasini qo'llashi mumkin.

FSMU texnologiyasi. Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki darsning mustahkamlash qismida o'quvchilarning o'tilgan mavzu va bo'limlardagi ba'zi mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida biror bir bo'lim o'rganilgach qo'llanilishi mumkin. Chunki bu texnologiya o'quvchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, fikrlarining sabablarini topishga, tahlil etishga, bahslashish madaniyatiga, xulosalarini umumlashtirish darajasini aniqlashga o'rgatadi. Bu texnologiya o'quvchilarni barchasini bir vaqtda baholash imkoniyati mavjudligi bilan ham qulaylik tug'diradi.

Texnologiyaning maqsadi: o'quvchilarni tarqatilgan oddiy qog'ozga (maxsus blankaga) o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga, fikrlarni sabablarini asoslab, xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: jarayon ikki usulda tashkil etilishi mumkin. ***Birinchi holatda,*** o'qituvchi har bir o'quvchiga FSMU

texnologiyasining to‘rt bosqichi yozilgan qogoz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to‘ldirishni iltimos qiladi. Bu yerda:

F-fikringizni bayon eting;

S-fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating;

M-ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U-fikringizni umumlashtiring. Kabi talablarni qo‘yishi mumkin.

Ikkinchi holatda, o‘qituvchi sinf o‘quvchilarini mikro guruhlariga bo‘lib oladi. Har bir mikro guruhga FSMU texnologiyasining to‘rt bosqichi yozilgan qogoz varaqlarini tarqatadi va mikro guruhda ularni to‘ldirishni talab etiladi. Bu yerda:

F-fikrlaringizni bayon eting;

S-fikrlaringiz bayoniga sabablar ko‘rsating;

M-ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misollar keltiring;

U-fikringizni umumlashtiring. Kabi talablar qo‘yiladi.

Birinchi holatda fikrlar asoslanganligi va tog‘riligi inobatga olinib baholansa, ikkinchi holarda ularning miqdori hisobga olinib baho qo‘yiladi. Ikkinchi holatda qaysi guruh yig‘gan ballar ko‘p bo‘lsa, yuqori baho olishlari lozim.

Skarabey texnologiyasi. Skarabey interfaol texnologiya bo‘lib, u o‘quvchilarda fikriy bog‘liqlik, mantiqiy fikrlash, xotiralarining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o‘z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi.

Mazkur texnologiya o‘quvchilarga mustaqil ravishda o‘z bilimlarining sifati va saviyasini xolis baholashga, o‘rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlashga zamin yaratadi. U ayni paytda turli g‘oyalarni ifodalash va ular orasidagi bog‘liqliklarni aniqlashga ham xizmat qiladi.

Texnologiyaning maqsadi: o‘quvchini erkin fikrlashini ta’minlashdan iborat. Texnologiyada har bir o‘quvchi o‘zini erkin tutishi, fikrlarini erkin bayon eta olishi, har qanday qo‘rquvni yenga olishi muhim hisoblanadi.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi: muammoli masala beriladi. O‘quvchilar muammoga aloqador bo‘lgan fikriy bog‘liqlikni aniqlab,

mantiqiy fikrlashini ko'rsatib berishlari kerak. Bunda xotiralarining rivojlanishiga imkoniyat yaratiladi. Har bir o'quvchi muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini ko'rsatadi. O'quvchilar muammo yuzasidan berilgan fikrlarni erkin bayon etishlariga qo'yib beriladi. Fikrlar xato yoki to'g'ri ekanligi muhim emas

Mavzu yuzasidan berilgan har bir fikr baholanib boriladi. Baholar umumlashtirilib dars yakunlanadi.

Ikki qismli kundalik texnologiyasi. Bu pedagogik texnologiya bo'lib, yozma nutqni rivojlantiradi. Bu uslub o'qib chiqilgan mavzu bo'yicha tushunchalarni shaxsiy tajriba bilan bog'lashga imkon beradi. Texnologiyani qo'llashda o'qituvchi yo'nalish berib turishi lozim. Aks holda o'quvchilar faolligi sezilmay qoladi. Texnologiya to'g'ri ishlatilsa, o'rganilayotgan mavzu chuqur va puxta, o'quvchilar yodida qoladigan tarzda o'zlashtiriladi.

Texnologiyaning maqsadi: o'rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg'otish, yozma nutqni rivojlantirish, mavzu yuzasidan fikrlarini erkin bayon etish, ayrim hollarda boshqalar fikriga qo'shilish (agar to'g'ri bo'lsa), o'z fikrini qisqacha konspekt qilish. Shu jihatdan ham bu texnologiyani ayrim manbalarda konspekt qilishning zamonaviy usuli deb aytishadi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: 1-bosqich. O'quvchilarga oldindan tayyorlab qo'yilgan matn o'qish uchun taklif etiladi. Agar o'qilgan matn tahlili bo'lsa, bu bosqichni keragi bo'lmaydi.

2-bosqich. Hamma matn bilan tanishganiga ishonch xosil qilib, daftarni vertikal chiziq bilan ikkiga bo'lish so'raladi. Bu bosqichda daftardan yaxlit bir bet ajratilishi tavsiya etiladi, aks holda fikrlar sig'may qolishi mumkin.

3-bosqich. O'quvchilarga, daftarni chap tomoniga muallif sitatalar (g'oyalari, fikrlari)ni yoqqanlarini (yoki yoqmaganlarini) yoki asarning o'zlari istagan biror qismini, band yoki qatorini, so'z yoki iborasini yozishlari aytiladi.

4-bosqich. O'ng tomonga o'quvchi mazkur sitataga berilgan o'zini izohini yozadi, ya'ni o'qilgan matn haqidagi tushunchasini umumlashtirib

beradi. Matn yuzasidan fikri izohlanadi, bu fikrning to'g'ri yoki xatoligi muhokama etilmaydi. Xato fikr bildirilgan bo'lsa, o'qituvchi menning fikrim boshqacharoq, deya o'z fikrini aytib ketishi lozim.

5-bosqich. Topshiriqni shu qismi tugagandan keyin o'quvchilarga (o'z xohishiga ko'ra) bittadan sitatalarni va ularga yozilgan izohni o'qish taklif etiladi. Sitata va ularning izohi o'qilayotganda savol berish yoki mazkur sitataga o'z izohini berishga ruxsat etiladi. Bu sitatani oqlashi yoki qoralashi ham mumkin. O'quvchilar sherik (uchliklar yoki kichik guruhlar) bo'lib ham ishlashlari mumkin.

Zinama-zina texnologiyasi. Texnologiyaning ishlatilishi o'quvchilarning ketma-ket javob berishiga mo'ljallangan. Bu texnologiyani o'tkazish uchun o'qituvchi o'quvchilarga rangli kartochkalar yordamida teng sonli kichik guruhlariga ajratadi. Har bir kichik guruh uchun sardorlar tayyorlanadi. Sardorlar mavzu savollarini olib, o'quvchilarga birma-bir berib boradi. Agar guruh 6 ta o'quvchidan tashkil topgan bo'lsa, har bir o'quvchi savolga javob berishi lozim. Savollar guruh sardorlari tomonidan o'quvchilarning javoblarini nozorat qilinadi.

Texnologiyaning maqsadi: o'quvchilarni navbat bilan mavzu yuzasidan fikrlarini berishiga qaratilgan. Guruh sardori tomonidan berilgan savollarga har bir o'quvchi javob berishi, berilgan savollarning javoblari guruh nazoratchisi tomonidan tahlil qilib borilishi lozim. Bu nazotarchi o'qituvchi bo'lishi ham mumkin.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: o'quvchilar har bir to'g'ri javob uchun bir balldan to'plab jami 5 ballgacha ball to'plashi kerak. Shundan so'ng, o'qituvchi o'quvchilarning to'plagan baliga qarab qayta guruhlaydi. Har bir guruh o'zlarining iqtidoriga qarab turli xildagi topshiriqlarni beradi. O'quvchilar bu topshiriqlarni bajarib bo'lgandan so'ng, o'zaro savol-javob o'tkazadilar har bir guruh o'z topshiriqlarini ko'rgazmali qurollar, yoki taqdimotlar asosida bayon etadi. Topshiriqni mukammal bajargan kichik guruhlarda g'oliblar aniqlanadi va rag'batlantiriladi.

Bumerang texnologiyasi. Bu texnologiya o'quvchini (yoki o'quvchilarni) dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab berish, fikrini erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'lish hamda dars mobaynida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarni baholay olishga qaratilgan. Bumerang texnologiyasi ijtimoiy va tabiiy: tarix, huquq, adabiyot, biologiya, geografiya fanlarini o'qitilishida ko'proq samara beradi.

Texnologiyaning maqsadi: o'quv jarayoni mobaynida tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari, suhbat yoki munozara va turli savollar orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, baholash hamda o'quv jarayoni mobaynida har bir o'quvchi tomonidan o'z baholarini egallashga imkoniyat yaratishdan iboratdir. Texnologiyaning qo'llanishi jarayonidan amaliy mashg'ulotlar, seminar yoki suhbat-munozara shaklidagi darslarda yakka tartibda, kichik guruh va jamoa shaklida foydalanishi mumkin. O'quvchi dars jarayonida mustaqil o'qishlari, o'rganishlari va o'zlashtirib olishlari uchun mo'ljallangan tarqatma materiallar (o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha darslikdan qisqa matnlar, suratlar, ma'lumotlar)dan foydalanishi mumkin.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

✓ o'quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi: har bir guruh azolariga 1 dan 5 gacha raqam tarqatiladi va o'quvchilar darsning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi;

✓ o'quvchilarga mustaqil o'rganish uchun mavzu bo'yicha matnlar tarqatiladi va berilgan matnlar o'quvchilar tomonidan yakka tartibda mustaqil o'rganiladi;

✓ har bir guruh a'zolaridan yangi guruh tashkil etiladi: 1 raqamli o'quvchilar alohida, 2 raqamli guruh alohida (qolganlari ham shunday) guruhlarga qayta bo'linadi;

✓ yangi guruh a'zolarining har biri guruh ichida navbati bilan mustaqil o'rgangan matnlari bilan axborot almashadilar, ya'ni bir-birlariga so'zlab beradilar, matnni o'zlashtirib olishlarishga erishadilar;

✓ berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun guruh ichida ichki nazorat o'tkaziladi, ya'ni guruh a'zolari bir-birlari bilan savol-javob qiladilar;

✓ yangi guruh a'zolari dastlabki holatdagi guruhlariga qaytadilar:

- darsning qolgan jarayonida o'quvchilar bilimlarini baholash yoki to'plagan ballarini hisoblab borish uchun har bir guruhda "guruh hisobchisi" tayinlanadi;

- o'quvchilar tomonidan barcha matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o'qituvchi o'quvchilarga savollar bilan murojaat etadilar, og'zaki so'rov o'tkazadilar;

- har bir guruh a'zosi tomonidan guruhdagi matnning mazmunini hayotga bog'lagan holda bittadan savol tuziladi;

- guruhlar tomonidan tayyorlangan savollar orqali savol-javob tashkil etiladi ("guruh hisobchilari" berilgan javoblar bo'yicha ballarni hisoblab boradilar);

Guruh a'zolari tomonidan to'plangan umumiy ballar yig'indisi asosida g'olib guruh aniqlanadi.

Xulosalash texnologiyasi. Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan. Xulosalash texnologiyasida mavzu turli rakurslardan qaralib muhokama etiladi. Aytaylik, A.Qahorning "O'g'ri" hikoyasi o'tilayotgan bo'lsin. Tahlil qilinayotgan hikiyaga tilshunoslik tomonidan, tarix tomonidan yoki iqtisod tomonidan qaralib har bir qarash o'z ichida yutuq va kamchiliklari muhokama etiladi. Shu bilan bir qatorda mikro guruhlarda ishlanayotganligi bois fikrlar xilma-xilligi ham paydo bo'ladi.

Texnologiyaning maqsadi: Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yo'la mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: avval mavzu yaxshilab tanishtiriladi yoki o'qib chiqiladi. Keyin sinf o'quvchilari mikro guruhlariga bo'lib olinadi. Har bir mikro guruhga mavzuning bir tarmog'i vazifa qilib beriladi: masalan, 1-guruhga til nuqtayi nazardan tahlil etish, 2-mikro guruhga tarixiy faktlarning berilishi.... kabi. Har bir mikro guruh o'ziga berilgan yo'nalish bo'yicha aniq xulosalarini aytishi lozim. Bu xulosalarda ijobiy yoki salbiy jihatlar, qahramonlarga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatlar, mavzuning afzalligi yoki kamchiligi, jarayondan foydalanish yoki zarar ko'rish hollari tahlil etilib, ma'lum xulosalarga kelishi kerak.

O'quvchilarning kreativ fikrlashlariga qarab baholab chiqiladi. Imkon qadar baholarni har bir mikro guruhga bitta qilib qo'yilishi tavsiya etiladi.

Insert texnologiyasi. Katta-katta materiallarni ma'lim belgilar qo'yib o'qish orqali mavzuni muhokama qilgan holda o'zlashtirish jarayoni. Amerikalik pedagoglar tomonidan taqdim etilgan adabiyotlarda "Notanish matni insert texnologiyasi yordamida o'qish" jarayoni ona tili va adabiyot darslarida qo'llanilsa, samarali bo'lishi nazarda tutiladi. Chunki har bir darsda o'quvchilar yangi ma'lumotlar, manbalar va yangi shaxslar hayoti bilan tanishishlari kerak bo'ladi. Adabiyot fanidan badiiy asar tahlil qilinayotgan bo'lsa, o'quvchilarga bu asar bo'lib beriladi. Har bir o'quvchi o'zi o'qiyotgan asarga qalam bilan insert belgilarini qo'yib o'qiydi.

Texnologiyaning maqsadi: o'quvchi matni oxirigacha o'qib chiqib, hozir o'qiganlaridan hech narsani mutlaqo eslab qolmasligi ko'p o'quvchilar uchun oddiy hol hisoblanadi. "Insert" usuli orqali o'qish esa tushunib o'qish, o'qish jarayonida faol bilim olish imkonini beradi. Insert (belgi qo'yib o'qish) – o'qish va yozishni samarali amalga oshirishda, o'quvchilarda darslik bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda, ayniqsa, qulay usul. Bu texnologiya ham konspekt yozishning interfaol usuli sifatida e'tirof etiladi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: Unda belgilar quyidagicha bo'lishi kerak:

“B” – bilaman;

“–” – o'ylaganimga zid, notanish;

“+” – yangilik;

“?” – tushunmadim, ya’ni qo‘shimcha ma’lumot kerak;

“!” – hayratlandim.

Belgilangan matnni o‘qish jarayonida o‘quvchi o‘z bilimi va tushunchalariga 5 turdagi belgilarni qo‘yib borishi zarur. Muhokama qilish uchun quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. Qanday bilimlar tasdiqlandi?

2. Qanday yangi axborot uchratdingiz?

3. Sizda qanday savollar tug‘ildi?

4. O‘qigan matndan nimani tushunmadingiz?

5. O‘qigan matndagi voqea, fakt yoki jarayonga o‘z munosabatingizni bildiring!

Bu ishga matnning katta - kichikligiga qarab vaqt ajratish zarur. Darsda matnni to‘g‘ri tahlil qilgan va faol ishtirok etgan o‘quvchilar baholanadi.

Charxpalak texnologiyasi. O‘quvchilarga o‘tilgan mavzu boyicha bilimlarini mustahkamlash yoki tekshirish hamda bir-birini baholash imkoniyatini beruvchi metod. Charxpalak texnologiyasidan foydalanganda huddi “Davra suhbat” metodida foydalanilgandek aylana stol (charxpalak) atrofida o‘tkaziladi. Ushbu metodni guruhni ikkita kichik guruhga ajratgan holda ham o‘tkazish mumkin. Har bir guruhga bittadan “nazoratchi”ni biriktirib qoyish lozim. Nazoratchilar o‘quvchilarning javoblarini va baholashning haqqoniyligini nazorat qilib turadilar.

Guruh o‘quvchilarini ikki guruhga ajratish kerak bo‘ladi. Birinchi guruhdagilar “o‘quvchilar”, ikkinchi guruhdagilar esa “o‘qituvchilar” etib tayinlanadilar. “O‘quvchilar” aylana stolning tashqarisida (“charxpalakning chelakchalari”), “o‘qituvchilar” esa aylana stolning ishkarisida (“charxpalakning o‘qlari”) joylashadilar. Keyingi bosqichda “o‘qituvchilar” “o‘quvchi”, “o‘quvchilar” esa “o‘qituvchi” bo‘lib joylarini almashadilar.

Texnologiyaning maqsadi: Charxpalak texnologiyasi uchun savollarni o‘qituvchining o‘zi yoki o‘quvchilar ishlab chiqishlari mumkin.

Savollar o‘tilgan mavzu boyicha berilib, qisqa va aniq javobni talab etadigan bo‘lishi kerak.

Charxpalak texnologiyasi qo‘llanilganda o‘quvchilar berilgan savollarga tezda fikr yuritib, tayinlangan “o‘qituvchilar”ga javoblarini beradilar. Ushbu metod qo‘llanilganda o‘quvchilar o‘tilgan mavzu boyicha bilimlarini sinab ko‘rishni va bir-birlarining bilimlarini baholashni o‘rganadilar.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi: o‘qituvchi metodni o‘tkazish uchun tanlab olgan mavzuni e‘lon qiladi hamda o‘quvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

1. Shundan so‘ng o‘quvchilarni ikki guruhga – “o‘qituvchi” va “o‘quvchilar”ga ajratadi. Guruhlar aylana stolga joylashadi.

2. O‘qituvchi o‘zi ishlab chiqqan savollarni “o‘qituvchilar”ga tarqatadi yoki “o‘qituvchilar” o‘zlari berilgan mavzu boyicha savollarni ishlab chiqadilar.

3. “O‘qituvchi” ro‘parasida o‘tirgan “o‘quvchi”ga savol beradi. “O‘quvchi” javob bergandan so‘ng uni baholaydi.

4. Berilgan vaqt tugagandan so‘ng, “o‘quvchilar” soat yo‘nalishi boyicha o‘z joylarini almashtiradilar, bunda “o‘quvchi” keyingi “o‘qituvchi”ning ro‘parasiga o‘tadi. “O‘qituvchilar” joylarini o‘zgartirmaydilar.

5. “O‘quvchi” keyingi “o‘qituvchi”ning savoliga javob beradi va “o‘qituvchi” tomonidan baholanadi.

6. “O‘quvchi” “charxpalak”dagi barcha “o‘qituvchilar”ning savollariga javob bergandan so‘ng, baholar jamlanadi.

7. Bu bosqichda “o‘qituvchilar” “o‘quvchi”, “o‘quvchilar” esa “o‘qituvchi” bo‘lib joylarini almashadilar va yuqoridagi bosqichlar takrorlanadi. Metod so‘ngida o‘quvchilarning baholari e‘lon qilinadi.

Charxpalak 2 texnologiyasi. O‘quvchilarni ma‘lum topshiriq yuzasidan boshqa o‘quvchilar tomonidan to‘liq baholashi nazarda tutiladigan jarayon. Bunda o‘qituvchi har bir o‘quvchiga charxpalak texnologiyasi tushirilgan maxsus blanka (charxpalak qog‘ozi) tarqatadi. Sinfning har bir o‘quvchisi charxpalak blankasini to‘ldiradi. Blankada 5

ta savol berilishi lozim. O‘quvchi berilgan barcha savollarga to‘liq javob berishi lozim, aks holda past baho olishi mumkin.

R	Savollar:	Javob	Baho	Baho	Baho	Baho	O‘rtacha baho
1	Ot nima?	Narsalar	2	3	3	3	3
2	Sifat nima?	Nearsa-ning belgisi	4	5	4	4	4
3	Ravishning turlari?	–	0	0	0	0	0
4	Fe‘l nisbatlar?	–	0	0	0	0	0
5	Bog‘lovchining turlari	Teng va ergashtiruvchi	5	5	5	4	5
			O‘quvchining bahosi				2.4

Texnologiyaning maqsadi: bir o‘quvchini berilgan savollarga javoblarini bir necha o‘quvchi tomonidan baholanib, baholar umumlashtirilib, real bahoga aylantirishga qaratiladi. Barcha o‘quvchilarni bir vaqtda baholashga erishish.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi: barcha o‘quvchilarga savollar yozilgan blanka tarqatiladi. Tarqatilgan blankalarga har bir o‘quvchi o‘zining bilimidan kelib chiqib javoblar yozadi. Barcha o‘quvchilar savollarga javoblar yoib bo‘lgach, blankalar yonidagi o‘quvchiga charxpalak singari uzatiladi. Yonidagi o‘quvchi javob yozgan o‘quvchi yozgan 5 ta savolning javoblarni tekshirib baholaydi. Keyin yana charxpalak aylanib, keyingi o‘quvchi tomonidan baholanadi. Shu tariqa charxpalak 5 nafar o‘quvchi tomonidan baholangach, so‘nggi o‘quvchi baholarni hisoblab, 25 ga bo‘ladi va o‘rtacha bahoni o‘quvchining bahosi punktiga yozib qo‘yadi. Shu tariqa barcha o‘quvchilar bir vaqtda baholab olinadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ta'lim metodlari va vositalari nimalardan iborat?
2. Og'zaki bayon metodlari nima?
3. Ko'rgazmali metodlar deganda nimalarni tushunasiz?
4. Didakik o'yinlar metodi.
5. Ta'lim metodlari va texnologiyalari
6. Metod va uning turlari haqida nimalarni bilasiz?
7. Kichik guruhlarda ishlash metodi qanday o'tkaziladi?
8. Aqliy hujum metodining yozma va og'zaki shakllari mavjudligi aniq. Bu hususida nimalarni bilasiz?
9. Ta'lim texnologiyalari nazariyasi va amaliyoti

Tayanch so'z va iboralar:

Ko'nikma, malaka, didaktika, metod, pazl o'yilari va boshqotirmalar, mantiqiy o'yinlar, kompyuter o'yinlari, Quizlet o'yinlari, og'zaki metodlar, ko'rgazmali metodlar, amaliy metodlar, og'zaki bayon metodlari, binar ma'ruza, suhbat, muammoli izlanish metodlari, mustaqil ishlash metodlari, didakik o'yinlar metodi, amaliy metodlar, laboratoriya metodi, ta'lim vositalari, jonli muloqot metodi, muammoli vaziyat metodi, intervyu metodi, tasavvur olami metodi, kichik guruhlarda ishlash metodi, davra suhbatlari metodi, savol-javob metodi, nuqtayi nazaring bo'lsin metodi, aqliy hujum metodi, arra metodi, o'z o'ringni top metodi, menyu metodi, debat metodi, tanqidiy fikrlash metodi, ta'lim sandiqchasi metodi, BBB metodi, galereya metodi, blits-so'rov metodi, rezyume texnologiyasi, labirint texnologiyasi, FSMU texnologiyasi, skarabey texnologiyasi, ikki qismli kundalik texnologiyasi, zinama-zina texnologiyasi, bumerang texnologiyasi, xulosalash texnologiyasi, insert texnologiyasi, charxpalak texnologiyasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asqarova O'., Nishonov M., Xayitbayev M.. Pedagogika. – T.: Talqin, 2008.
2. Mavlonova R. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2004.

3. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: Fan, 2006.

4. Muslimov N., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013.

5. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1990.

6. Niyozmetova R. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. – T.: Fan, 2007.

7. Nurmonov A., A. Sobirov, N. Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar uchun darslik. T. 2001-yil.

8. Supiyeva Buxolidaning fikr va g'oyalari

9. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.

10. To'xtaboyev A., Eraliyev A. Tashkiliy xatti-xarakatlar. – Andijon: Xayot, 2001.

11. To'xtaxojayeva M. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2010.

12. Uralov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent -2021.

13. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Boolajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014.

14. Usmonov I. Kimyo fanini o'qitishda didaktik o'yinli texnologiyalardan foydalanish. – Namangan, 2014.

15. www.edunet.uz– maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti

16. Yo'ldoshev J. F., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – Toshkent, 2008.

17. Ziyodova T.U. Hozirgi o'zbek adabiy tilini o'rganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish. O'quv-metodik qo'llanma. Akademik litseylar uchun. – T.: 2002.

18. Подласий И.П. Педагогика. – Москва: Высшая образования, 2008.

Elektron ta'lim resurslari

19. <https://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-mahsus-talim-vazirligi-na-v2.html?page=4>

20. https://testjavoblari.blogspot.com/p/blog-page_92.html

II BOB. DIDAKTIK O‘YINLARNI O‘TKAZISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI

2.1. DIDAKTIK O‘YIN TALABLARI VA DARS TURLARI

1 §. Didaktik o‘yin talablari

Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarni o‘quvchilarning bilim olish va o‘yin faoliyatining uyg‘unligiga qarab turli guruhlariga ajratib olish mumkin. Syujetli-ro‘lli o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar, ishbilarmon o‘yinlar, konfrensiya o‘yinlar kabi mashqlarga ajratish mumkin. O‘qituvchi-pedagog avval o‘quvchilarni individual (yakka tartibdagi) so‘ngra guruhli o‘yinlarga tayyorlashi va uni o‘tkazishi, o‘yin muvaffaqiyatli chiqqandan so‘ng esa ularni ommaviy o‘yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o‘quvchilar didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko‘nikma malakalarga ega bo‘lishlari, bundan tashqari guruh jamoasi o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga kelishi lozim. Hamkorlik-kollabaratsiyada o‘quvchilar bir-birlari bilan qanday aloqa o‘rnatishi muhim sanaladi. Didaktik o‘yin talablarida kollabaratsiyaning o‘rnini o‘qiruvchi belgilab beradi. Shu sababli ham har bir didaktik o‘yinning qay tusda o‘rin olishi o‘qituvchidan yuqori boshqaruvchanlik talab etadi.

O‘qituvchi-pedagog didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarni o‘tkazishda qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishi va uni o‘tkazishda quyidagi didaktik talablarga qat’iy rioya qilishi talab etiladi:

1. Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlar dasturida qayd etilgan mavzularning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarni, o‘quvchilarda shakllanishi lozim bo‘lgan kompetensiyalarni hal qilishga qaratilgan bo‘lishi;

2. Ijtimoiy jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag‘ishlanib, dars mashg‘ulotlarida ularning o‘yin davomida hal qilinishi;

3. Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-ahloq meyorlariga mos kelishi;

4. O‘yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda va izchillikda bo‘lishi;

5. O‘qituvchining odilligi va adolatli qaror qabul qilishi;

6. Mashg'ulotlar davomida didaktik prinsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishishi kerak.

Quyiroqda fanni o'qitishda tashkil etish va o'tkazish mumkin bo'lgan didaktik o'yinli mashg'ulotlardan ayrimlarining tavsilotlari keltiriladi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlar orasida mantiqiy mashg'ulotlari ham muhim o'rin tutadi. Mantiqiy mashg'ulotlari o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda ilmiy dunyo qarashini imkon qadar kengaytirishda, qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirishda, ilmiy adabiyotlar va darsliklar bilan mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarni orttirish, mustaqil hayotga ongli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rolli mashg'ulotlarni o'tishdan oldin mashg'ulot mavzusini maqsad va vazifalarini belgilab, shu mavzuga oid qo'shimcha ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar ko'zdan kechiriladi. Mashg'ulotni o'tishdan bir hafta oldin mashg'ulot mavzusi e'lon qilinib unga tayyorgarlik ko'rish uchun adabiyotlar tavsiya etiladi. Ushbu mashg'ulotda turli ro'llarni tanlash, mavzuni har tomonlama yoritish, maruza tayyorlash o'quvchining ixtiyorida bo'ladi.

Didaktik o'yinlarni tanlashda o'quvchilarga bilim va tarbiya berishning quyidagi tartib qoidalariga rioya qilinadi.

1. Didaktik o'yinlar tanlash va ulardan foydalanishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi, fikrlash tezligi va mas'uliyatlilik jamiyatning bir a'zosi sifatidagi tayyorgarligi va bilim saviyasi hisobga olinadi.

2. Tanlangan har bir o'yin o'quvchilarga sistemali bilim berish, malaka va ko'nikmalar, shuningdek, hayotiy tasavvurlar hosil qilish bilan birga ularning barkamol bo'lib yetishishiga va ruhan tetik o'sishiga qaratilgan bo'ladi.

3. Didaktik o'yinlarni tanlashda ta'limning aniq maqsad va vazifalari asos qilib olinadi hamda dars mavzusidan kelib chiqib ishlatiladi. Didaktik o'yinlar ta'lim mazmunini aniqlashtirishning muhim vositalaridan biri bo'lib, u o'quvchilarda o'qish motivini, istagini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda tafakkurini kengaytiradi.

Didaktik o‘yin – ta’lim beruvchi usul bo‘lib, bu usul muayyan ta’limiy maqsadlarga erishishga, yani o‘tilgan o‘quv materiallarini aniqlashga, qaytarishga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo‘ladi. Har bir didaktik o‘yinni o‘tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Masalan: doiraviy misollar o‘yinida ikkinchi o‘nlik ichida hisoblash malakalarini mustahkamlashdan iborat bo‘lgan didaktik topshiriq qo‘yiladi. Ayrim hollarda xotirani mustahkamlash muhim hisoblansa, ba’zan bilim tezligiga ko‘proq urg‘u qaratiladi. Didaktik topshiriq darsga qo‘yiladigan umumiy maqsadning bir qismini tashkil qiladi. Har bir didaktik o‘yinning ham, har qanday o‘yindagi singari qoidalari bo‘ladi. O‘sha qoidalarga amal qilinmasa, o‘yinning o‘yin sifatidagi ahamiyati, o‘qituvchi mavqeyi, o‘yinning ta’lim tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo‘qoladi. O‘yin qoidalari o‘yin topshirig‘iga kiritiladi va bu qoidalarga barcha barobar bo‘ysunishi shart hisoblanadi. O‘yin topshirig‘i – o‘qituvchining bolalarga o‘yinning qanday o‘ynalishini, kim g‘olibligini aniqlashdan iborat. Har bir didaktik o‘yin o‘z navbatida quyidagi komponentlardan tuziladi: o‘yin maqsadi, qoidalari, jihozi, mazmuni natijasi.

1. O‘yin qoidalari. O‘yinni olib borish va unga qatnashish tarkibini aniqlab beradi. Qoidalar o‘yin maqsadidagi mos holda o‘quvchilar faoliyatini tartibga solish uchun kerak bo‘ladi.

2. O‘yin mazmuni o‘quvchilarning bajarishi kerak bo‘lgan harakatlari bilan aniqlanadi, ona tili darsida bu harakatlar ko‘proq mashqlar bajarish va mantiqiy fikrlash hamda imloviy muammolarni yechishdan iborat bo‘ladi. O‘yin jihozi o‘yinni o‘tkazish uchun kerak bo‘lgan predmet – modellar real va shartli predmetlar, kartochka va ko‘rgazmalardan iborat.

3. O‘yin natijasi. Qo‘yilgan vazifaning bajarilishi bilan aniqlanadi. Natija o‘quvchilarni qoniqtirishi kerak. Aks holda o‘quvchilar bu o‘yinda ishtirok etishni istamay qoladilar.

2 §. Didaktik o‘yin – dars turlari

Didaktik o‘yinlar esa ta’limiy o‘yinlardir. Ayrim manbalarda interfaol mashqlar deb ham yuritiladi. U o‘qituvchi tomonidan tuzilib, o‘yin maqsadi va qoidalaridan tashkil topadi. O‘quvchi ushbu o‘yinlarda

ham yangi bilim oladi ham tengdoshlari bilan to'laqonli muomalaga kirishadi. O'yin har doim o'quvchining hissiyotlari bilan kechadi: hayajon, javobgarlik, mas'uliyat, jamoadoshlarining munosabati, g'alaba shukuhi, qayg'u va boshqalar. Shunday ekan bir soat darsda u nafaqat ta'lim oladi, balki his-tuyg'ularini ham tarbiyalaydi. "O'yin – bolalar yashayotgan va o'zgartirishlari kerak bo'lgan dunyo sari yo'l", – degan edi Maksim Gorkiy.

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashda ham didaktik o'yinlarning ahamiyati muhim hisoblanadi. Musobaqa tarzida tashkil etilgan "Kim birinchi?", "Kim chaqqon?" kabi o'yinlar ularda bo'lgan o'ziga ishonch, boshqalardan kam bo'lmaslik, raqobat bardoshlik hislarini shakllantiradi.

Ko'pchilik tomonidan yaxshi samara beradigan didaktik o'yin barcha darslarda samara berishi ta'kidlansa-da, darsga mos o'yin tanlash o'qituvchi oldiga qo'ygan maqsadi sari yetkazishini bilishi lozim. Didaktik o'yinlar darsning talimiy-tarbiyaviy maqsadidan kelib chiqib tanlanadi. Yana bir muhim jihati tanlangan o'yin o'quvchining yoshiga ham mos kelishi lozim. Har qanday yoshda oila o'quvchi uchun muhim maskan sanaladi. O'yinlar orqali kollektiv ham bolaning oilasi ekanligini va u ushbu oilaning ajralmas qismi, faol a'zosiligini singdirish lozim. Zero, har bir pedagogning oliy maqsadi jamiyat uchun zarur bo'lgan ongli shaxsni tarbiyalashdir! Har bir o'yinda imkon darajasida kollabaratsiya – hamkorlikni shakllantirish va maqsadga erishish uchun jamoaviy ruhni uyg'otish lozim. Zero o'zgalar yordamiga muhtoj bo'lmagan inson jamiyatdan yakkalanib qoladi.

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy – jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim tarbiya jarayonida asosan o'quvchlarda ta'lim olish motivlarini ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik

o'yinlardan foydalaniladi va alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda. Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional mavzuli konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ishlatiladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar ta'lim – tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini borishi bilan alohida o'ringa ega. O'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakllari hisoblanadi.

Didaktik o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab olish lozim. Ular quyidagi to'rt jihatni o'zida mujassamlashtiradi:

1. Darsda o'quvchining faolligi oshadi.
2. Fanga bo'lgan qiziqishi ortadi.
3. O'quvchining mustaqil fikrlash doirasi kengayadi.
4. Sinfda o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi kallabaratsiya shakllanadi.

O'yin faoliyatining texnologiyasini ham esdan chiqarmaslik lozim. Shu asnoda aytish kerakki, har qanday o'yin hamisha ham siz kutgan natijani bermasligi mumkin. Bunda quyidagi qoidani eslash va shunga amal qilish tavsiya etiladi:

1. O'yindan ko'zlangan maqsadni aniqlash va loyihalash.
2. Ushbu maqsadni amalga oshirish yo'llarini belgilash.
3. Olingan natijalarni tahlil qilish.
4. O'yin strukturasi tegishli o'zgartishlar kiritish.

Bu qoidalar birgalikda amalga oshiriladi. O'yindan ko'zlangan maqsad aniqlangach, maqsadni amalga oshirish strategiyasi ishlab chiqiladi. O'yin shu strategiyaga asosan olib borilib, natijalar tahlil etiladi. Tahlil natijasiga ko'ra maqsad amalga oshmagan bo'lsa, o'yin strukturasi o'zgartirish kiritiladi. Ham qanday metodik o'yin ishtirokchilarning faoliyatiga ham bog'liq ekanligini unutmaslik kerak.

Didaktik o'yinlar asosida dars tashkil etilayotganda, qaysi o'yin darsini tanlash muhim ahamiyatga ega. Chunki bir o'yin darsining strategiyasi boshqasiga tushmasligi, mos kelmasligi mumkin. Shu asnoda ayrim o'yin darslari haqida to'xtalib o'tamiz.

Ishchanlik o'yin darsi – dars mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi

bilimlarni o'zlashtirish mashqi. Bunda o'quvchilarda faoliyatga bo'lgan xohishni, mashg'ulotga bo'lgan qiziqish va mas'uliyatni shakllantirish muhimdir. Bunday darslar o'quvchiga motivatsiya berish bilan boshlanadi. O'yin maqsadi tushuntirilib, hal etilishi lozim bo'lgan masala birinchi planga chiqariladi.

Rolli o'yin darsi – dars mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarga oldindan ma'lum ro'llarni taqsimlash va dars jarayonida shu ro'lni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi. Bunday darslar adabiyot yoki tarix darslarida ko'proq qo'l keladi. Ma'lum qahramon yoki tarixiy shaxsni gavdalantirishga qaratilgan bunday didaktik o'yinlar o'z maqsadidan kelib chiqib, oldindan rejalashtiriladi. Vazifalar taqsimlab beriladi, ayrim hollarda matnlar yodlanadi, turli liboslar olib kelinadi, hatto o'quvchilarning tashqi imiji ham hisobga olinib (soqol, mo'ylab...) tashkil etilishi lozim.

Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha chuqur, aniq ma'lumotlar berish darsi. Bunday darslarni tashkil etishda o'quvchilar mutloq hukmronlik ko'rinishida bo'lishi talab etiladi. Darsni tashkil etish uchun ko'plab o'quvchilar tanlab olinadi. Shu sababli teatrlashtirilgan darslarga ko'proq o'quvchilar faolligi oshadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, dars teatr kabi rollarni bajarish orqali amalga oshadi. Bunday darslarda ro'lli o'yinlarga tayyorlangan o'quvchilar miqdorining ko'pligi kuzatiladi. Shu sababli har bir ishtirokchi o'ziga yuklatilgan vazifan kelib chiqib, boshqalarga nimani o'rgatishini ifodalab turishi lozim.

Ishbop o'yin darsi – tegishli o'quv fani bo'yicha dars mavzusiga aloqador bo'lgan shaxsni gavdalantirishga qaratilgan dars. Bunda o'quvchi hayotning ayni damdagi biror qahramonini (hokim, direktor, o'qituvchi, prezident, deputat...) gavdalantiradi. Ishbop o'yin darslarida biror qahramonni o'sha vaziyatning o'zidayoq imitatsiya (taqlid qilish, aks ettirish) qilib berishi lozim. Taqlid qilinayotgan qahramon obrazini yaratib, uning vazifalarini tushunib, tayyorgarlik ko'rmasdan ijro etib berish – hayotning turli vaziyatlariga tushib qolgan inson uchun juda muhim. Bu dars vaziyatdan chiqib ketishga, boshqalarning ham ishi og'ir ekanligini tushunishga qaratilgan. Rolli o'yin darslaridan ishbop o'yin

darslarini farqi shundaki, rolli o‘yin darslariga bir necha kun tayyorlanishi va shu darsga mo‘ljallab kiyimlar olib kelishi lozim bo‘lsa, ishbop o‘yinda o‘sha vaziyatning o‘zidayoq berilgan vazifani, ma’lum shaxsni o‘xshatib bajara olishi nazarda tutiladi.

Kompyuter darsi – tegishli o‘quv fani bo‘yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimediya, virtual o‘quv kursi va shu kabilar) asosida o‘tiladigan dars. Darsni tashkil etish uchun kompyuter xonasi kerak bo‘ladi. Har bir o‘quvchiga mavzuga aloqador vazifalar kompyuterda tayyorlanishi beriladi. Kim birincha va sifatli material tayyorlash vazifasi aytiladi. Bunday darslar informatika darslarida juda qo‘l keladi, ammo boshqa fanlarga ham tadbiq etish mumkin. Masalan, ayni damda o‘tilayotgan “Amir Temurning yurishlari”, “Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi” mavzularining birida taqdimot tayyorlash, rolik tayyorlash, infografika asosida material tayyorlash vazifalari berilishi mumkin.

Yamarka darsi – dars mavzusini bo‘laklar bo‘yicha oldindan o‘zlashtirish o‘quvchilarning o‘zaro muloqat asosida sinfga qiziqarli tushuntirish orqali o‘tiladigan dars. Dars rejasi asosida har bir reja sinfdagi mikroguruhlariga taqsimlab beriladi. Guruhlar o‘rtasida hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi. Har bir guruh mavzuni qismlarga bo‘lgan holda o‘zlashtiriladi. Navbat bilan hamkorlik asosida mavzu yoritilib beriladi.

Kim oshdi savdosi darsi – o‘quv fani ayrim bo‘limi bo‘yicha bilimlarni har bir o‘quvchi qanchalik ko‘p bilishini namoyish etish darsi. Dars metodik o‘yin shaklida tashkil etiladi. O‘tilgan mavzular yuzasidan to‘plangan bilimlarga asoslanib, mavzu yuzasidan kim ko‘p ma’lumot aytish vazifasi beriladi. Aytaylik, mavzu “Ot va uning turlari” bo‘lsin. Ot haqida kim ko‘p ma’lumot aytmoqchi bo‘lsa, ma’lumotlar sonini aytadi, keyin undan ham ko‘proq ma’lumot aytmoqchi bo‘lgan o‘quvchi bo‘lsa, navbat beriladi. Shartga ko‘ra eng ko‘p ma’lumot aytadigan o‘quvchi tanlab olinadi va ma’lumotlari eshitiladi.

O‘yin darsi – dars mavzusiga mos o‘yin orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini tashkil etish darsi. Darsni bir necha o‘yinlar orqali qiziqarli tarzda tashkil etishga qaratilgan. Biz ko‘p hollarda o‘zimizning prinsiplarimizni saqlagan holda, o‘zimiz bilgan narsalarni o‘rgatamiz.

Aslida esa, o‘quvchilarning qiziqishlarini inobatga olib, ular istayotgan tarzda dars tashkil etilishi yanada qiziqarliroq bo‘ladi. Ushbu o‘yin darsi shu maqsadni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan. Dars mavzusini turli metodik o‘yinlar orqali berish yoki qabul qilib olishga qaratilgan ushbu darsda bolalar go‘yo o‘yin o‘ynayotgandek bo‘ladi, o‘qituvchi esa dars maqsadidan kelib chiqib, mavzuga qaratilgan o‘yinlar tashkil etadi. O‘yin g‘oliblari rag‘batlantirilib boriladi va shu tariqa baholanadi.

Konsert darsi – dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi konsert shaklida ifodalash mashqlari bo‘lib, o‘quvchilarni faollashtirish va bilimni mustahkamlash imkoniyatini beradi. Bunday darslarda o‘quvchilar ancha faol bo‘lishlari lozim. Bir darsga bir necha o‘quvchi tayyorgarlik ko‘radi. Navbatma-navbat sahnaga chiqib, o‘z darsini o‘tib berishadi. Konsert darslarida o‘quvchilar mikro guruh bo‘lib ishlashlari mumkin. Har bir mikro guruh dars jarayonida o‘z konsertlarini qo‘yib berishadi, aniqrog‘i konsertlashtirilgan darslarini o‘tib berishadi. Mavzuni yoritishda sahnalashtirish birinchi planga chiqadi.

Sud darsi – o‘quvchilar bilan dars mavzusiga mos “sud” jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni tashkillashtirish darsi. Juda qiziqarli qilib tashkil etilishi mumkin bo‘lgan dars turi hisoblanib, unda o‘quvchilar o‘zlarini huddi suddagidek hisoblab, mantiqiy va tanqidiy fikrlarga tayongan holda olib boriladi. Har bir o‘quvchiga vazifalar taqsimlab beriladi. Aytaylik, adabiyot darsida bir asar tahlili bo‘layotgan bo‘lsin. Asar sud qilinadi, kimdir oqlovchi, kimdir qoralovchi bo‘ladi. Asarni yaxshi tomonlari, salbiy tomonlari, jamiyatga keltirayotgan foydali tomonlari isbotlab beriladi. Bu dars bilan o‘quvchilarda kritik va kreativlik shakllanadi. Yangi darsliklar ayni shunday darslar tashkil etishga rosa mos keladi. Tarix darslarida esa sud darslarini ma’lum bir tarixiy fakt ustida amalga oshirish mumkin. Masalan, “Samarqand qamali” mavzusini o‘tayotganimizda shu usulni qo‘llash tavsiya etiladi.

Tergovchi bilimdonlar darsi – dars mavzusini oldindan puxta o‘rgangan o‘quvchilar yordamida qiziqarli savol – javoblar, tahlillar asosida isbotlab, tushuntirish mashqlari bo‘lib, bunda o‘quvchilar dars mavzusini o‘zlashtirib eslab qolishlari uchun qulaylik yaratadilar. Har bir o‘quvchiga mavzuni o‘zlashtirib kelish, mavzu yuzasidan qiziqarli

savollar tuzishi, mantiqiy va tanqidiy topshiriqlar yaratishi vazifasi topshirilgan bo‘ladi. Dars jarayonida har bir o‘quvchi faol ishtirok etishi, berilgan savol va topshiriqlarga chuqur tahlillarga asoslangan javoblar taqdim qilishlari talab etiladi. Har bir terminning mohiyati aniqlanishi, mavzu to‘liq ochilishi, turli savol-javoblar orqali olib borilishi bilan boshqa darslardan ajralib turadi. Tergovchi bilimdonlar darsi har bir savol mohiyati ochilgunicha tergov davom etaverishi bilan belgilanadi. Dars biroz shovqin bo‘lishi bilan bir qatorda vaqtni ko‘p olishi ham mumkin.

Integral dars – bir nechta fanlarga doir integratsiyalash uchun qulay bo‘lgan mavzular bo‘yicha tashkil qilingan dars bo‘lib, o‘quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib ta’lim jarayonidagi faolliklarini taminlaydi. Dars jarayoni boshqa fanlarga aloqadorligi nuqtayi nazaridan bugungi ona tili darslarida ko‘proq qo‘llaniladi. Ona tili darslarida “Elektromobil”, “Chiqindilar” yoki “S vitamini” kabi mavzularni o‘tayotganimizda integral darslarni amalga oshirish juda qulay. Bunday darslar o‘quvchilarga fanlararo bog‘liqlikni o‘rgatish bilan ularda fanlar tuzilishining ilmiy asoslarini to‘liq idrok etish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish hamda ijodiy tafakkurlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. “Son” mavzusini matematika, tarix, geografiya, adabiyot fanlariga integratsiya qilish oson bo‘lsa, “Nutq uslublari” mavzusini fanning ichki mavzulari bilan integratsiyalash mumkin.

Mo‘jizalar maydoni darsi – o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan qiziqarli o‘yinlar bo‘lib turli savollarga belgilangan vaqt davomida to‘g‘ri javoblar topish va g‘oliblarni rag‘batlantirish orqali o‘quvchilarda fikrlash, topqirlik va ziyraklik, bilimlarni kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi. Dars shartlaridan biri xonaning mo‘jizalarga boy holatda jihozlanishidir. Dars jarayonida o‘quvchilar turli shartlarni bajarish orqali mavzuni o‘zlashtirishga qaratiladi. Shartlarni bajarishda vaqt (reglament)ga jiddiy e’tibor qaratish kerak.

Matbuot konferentsiyasi darsi – dars mavzusini savol-javoblar orqali o‘zlashtirish mashqi. Bunda o‘quvchilar oldindan berilgan mavzuga maxsus tayyorgarlik ko‘rishlari talab etiladi. Mavzuni har bir o‘quvchi o‘ziga belgilangan vazifaga tayyorlanadi. Dars boshlangach har bir o‘quvchi o‘z mavzusini bitta-bitta chiqib so‘zlab beradi. Mavzu yuzasidan

bahs olib boriladi. Bahslarda faol ishtirok etgan o‘quvchilar baholanadi. Shu tariqa keyingi o‘quvchilarga ham navbat beriladi. Konferensiya darslarida o‘quvchilarning mutloq erkin bo‘lishi, o‘z fikr va mulohazalarini himoya qilishi talab etiladi. Bu dars uchrashuv tariqasida ham o‘tkazilishi mumkin, shuning uchun munosabat bildirishga alohida tayyorgarlik qilib olish kerak. Savol va javoblarda o‘rinsiz savol bermaslik, o‘z isbotini topgan javoblarning berilishi o‘ta muhim. Shu jihati bilan ham matbuot konferensiyasi darsi hayotiy vaziyatlarga boy bo‘ladi.

Quvnoqlar, zukkolar klubi darsi – qiziqarli savollar va ularga javoblar topish orqali mustaqil fikrlashni o‘rgatish mashqi. Oldindan tayyorlab qo‘yilgan qiziqarli savollarga dars jarayonida javob berish lozim. Tayyorlangan savollar mantiqiy bo‘lishi, aniq va muqum javobga ega bo‘lishi, boshqa javoblarga burilib ketmasligi talab etiladi. Savollarni o‘qituvchining o‘zi, imkon darsajasida o‘quvchilar o‘tgan darsliklar asosida tuzgan bo‘lishi kerak. Sinf o‘quvchilari ikki mikro guruhga bo‘linib olib, navbat bilan beriladigan mantiqiy savollarga to‘g‘ri javob topishi vazifasi beriladi. To‘g‘ri javob topgan mikro guruh bir ballni qo‘lga kiritadi, xato javob berganlar esa 0 ball oladi. Dars shartiga ko‘ra savol-javob so‘ngida jamoalar birorta sahna ko‘rinishi qilib berishlari ham mumkin. Bu vazifani vaqtdan yutish maqsadida sardorlar bellashuvi tarzida o‘tkazishlariga ham imkon beriladi. Darsda faol bo‘lgan va javoblarni topgan o‘quvchilar baholanib, dars yakunlanadi.

O‘zaro o‘qitish darsi – o‘quvchilarning dars mazmuni bo‘yicha matnning ayrim abzatslari yoki shunga o‘xshash kichik bo‘laklarini birlariga tushuntirishlarini tashkil etish orqali mavzuni o‘zlashtirish darsi. Bunday darslarni tashkil etish uchun avvalo yangi mavzu o‘quvchilarga bo‘lib beriladi. Har bir o‘quvchi mavzuning o‘zi olgan qismini yaxshilab o‘zlashtiradi. Agar bo‘lib berilgan qism o‘zlashtirilmasa dars siz kutgan natija bilan yakunlanmay qolishi mumkin. Shuning uchun ikki o‘quvchiga bir qism berilishi maqsadga muvofiq, agar bir o‘quvchi shu qismni o‘zlashtira olmagan bo‘lsa, ikkinchi o‘quvchi tushuntirib berishi mumkin.

Dars boshlangach, o‘quvchilar ikkita mikro guruhlariga bo‘linadi, har bir mikroguruh a‘zosi o‘ziga berilgan mavzuning qismini guruh a‘zolariga

tushuntirib berishadi. Guruhning barcha a'zolari mavzularini tushuntirib bergach, savol-javob qilib mustahkamlab olish shart. Dars jarayonida barcha o'quvchilar ishtirokiga qarab baholanadi.

O'quvchilar olib boradigan dars – dars mavzusini o'quvchilar tomonidan tushuntirib berilishini tashkil etish orqali o'quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan jarayon. Bunda darsning 6 bosqichini 6 o'quvchi bo'lib oladi. Har bir o'quvchi o'z vazifasini o'qituvchidan bilib olishi kerak. Aytaylik, darsning kirish qismini olgan o'quvchi, davomadni aniqlaydi, navbatchi raportini tinglaydi, sinf tozaligiga qarab chiqadi, o'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshiradi. Yangi mavzuni tushuntirish bosqichiga tayyorgarlik ko'rgan o'quvchi, yangi mavzuni tushuntiradi, savollar bo'lsa javob beradi, ayrim hollarda o'qituvchidan ham yordam olishi mumkin. Yangi mavzuni mustahkamlash bosqichini olgan o'quvchi, birorta metodik o'yin bilan o'zlashtirilgan mavzuni mustahkamlashi yoki qo'shimcha savol-javob tashkil etishi mumkin. Xullas, o'qituvchi nazoratida o'quvchilar tomonidan dars tashkil etiladi.

Tanlov darsi – sinfdagi o'quvchilarning bir yoki bir nechta mavzu bo'yicha oldindan tayyorgarlik ko'rgan holdagi tanlovini tashkil etish, g'oliblarni aniqlash darsi. Bu dars ko'proq mustahkamlash darslarida qo'l keladi. Ilgari o'tilgan bir nechta dars, yoki bir bo'lim yuzasidan qaysi o'quvchi qanday o'zlashtirganligini aniqlashga qaratilgan dars hisoblanadi. Ma'lum bir bo'lim yoki mavzular yuzasidan sovol-javob tariqasida tashkil etilib, tanlav e'lon qilinadi, g'olib o'quvchi o'qituvchining esdalik sovg'asini oladi. Darsda faol o'quvchilar baholanadi.

Juftlikda ishlash (binar) darsi – o'quvchilarning juft bo'lib, dars mavzusini birgalikda o'zlashtirishi yoki bir-birining bilimlarini mustahkamlashi darsi. Bunda zarur bo'lganda juftliklar dars davomida turlicha o'zgartirilishi mumkin. Binar darslar ilgaridan o'quvchilarni qiziqtirib kelgan. Mavzuni tushuntirishda yoki savolga javob berishda ikki kishi bo'lish anchagina qulaylik tug'diradi. Chunki, bir o'quvchi bilmagan narsani ikkinchi o'quvchi bilishi va aytishi mumkin. Dardagi kamchilik, orqada qolayotgan o'quvchilarni chetda qoldirmaslikdir. Har doim sherigining javobiga tayanadigan o'quvchilar shunchaki baholanib

ketmasligi qat'iy nazoratga olinadi. Yaxshi tomoni esa binarchi o'quvchilar mavzuni qay darajada o'zlashtirganliklarini bir-biriga savollar berib ham aniqlab berishi mumkin. Bu jarayon ko'proq vaqt olishi bilan birga, shovqinni ham oshiradi. Dars so'ngida o'quvchilar faolligiga qarab baholanadi.

Dialog darsi – o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish va o'z fikrlarini bayon etish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida dars mavzusini o'quvchilar bilan dialoglar tashkil etish orqali tushuntirish va mustahkamlash mashqlaridan iborat. Bu darslar tashqi tomondan shunchaki suhbat usuliga o'xshaydi. Chunki, darsda o'qituvchi har bir o'quvchi bilan gaplashib chiqadi, ya'ni dialog qiladi. Ana shu dialogdan aniqlangan natijaga qarab o'quvchilar baholanadi. Natijasi sust bo'lgan o'quvchilarga mavzu qaytadan tushuntirib beriladi. Dialog darslarida o'quvchilarning erkinligi, kattalardek suhbat qilishi, nutqining o'sishi kabi jihatlarga e'tibor beriladi va bu jihatlarda sust o'quvchilar bilan qayta ishlanadi. Natijada barcha o'quvchilarning og'zaki nutqi o'sishiga erishiladi. Bunday darslar ijtimoiy va tabiiy fanlarda ko'proq qo'l keladi.

Aylana bo'ylab mashq darsi – o'quvchilarning navbatma-navbat ishtiroki asosida yangi mavzuni o'zlashtirish yoki o'tilgan darsni takrorlab, mustahkamlash mashqlaridan iborat. Sinf o'quvchilari 3 ta mikro guruhga bo'linadi. Har bir mikro guruh aylana bo'lib o'tirib olishadi. Har bir mikro guruh azolari mavzuni navbat bilan aytib berishadi. Mustahkamlash qismida ham navbat bilan savol-javob qilinadi. O'quvchilarning barchasini qatnashishini ta'minlash, faolroq bo'lishiga erishish uchun bunday darslarda bitta mikro guruhga "5", ikkinchi mikro guruhga "4", uchinchi mikro guruhga "3" baho qo'yilishi oldinday aytib qo'yiladi. Faolligi ta'minlanmagan mikro guruh qoniqarsiz baho olishdan cho'chib, yaxshiroq ishtirok etishlari mumkin.

Innovatsiyalar darsi – o'quv fani sohasidagi yoki maktab hayotiga tegishli yangiliklarni joriy qilish, shuningdek, o'quvchilarning ijodiy faoliyatlari natijalarini amalda qo'llash bo'yicha taklif va loyixalar bilan tanishtirish darsi bo'lib, o'quvchilarning bilimlarini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bunday darslarda o'quvchilarning kreativligi yaqqol namoyon bo'ladi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida duch kelinishi mumkin bo'lgan vaziyatlar berilib, ularga yechim topish vazifasi yuklatiladi. Yuklatilgan vazifalarni qaysi o'quvchi kreativ yondashgan holda bajarsa, yoki loyixasini ishlab chiqsa yuqori baho qo'yiladi. Past natija ko'rsatgan o'quvchilarga yo'nalishlar berib boriladi. Bunday dars usullari o'quvchilarni katta hayotga tayyorlaydi. Teran, aniq, kreativ va kritik fikrlashlarini o'stiradi. Hayotida duch keladigan muammolardan qanday chiqib ketishi lozimligi o'rgatiladi.

3 §. Didaktik o'yinlarning ishlatilish tajribasi

Bugungi kun talabi – o'yinqaroq o'quvchilarni ko'proq darslarga jalb etish, ularni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatish, jamiyatga yetuk kadr sifatida tayyorlash pedagoglar oldida turgan pirovard maqsadlardan biridir. Quyida biz o'z tajribalarimiz asosida ishlatib, amaliyotda sinab ko'rgan ayrim didaktik o'yinlar haqida bilimlarimizni sizlar bilan bo'lishmoqchimiz. Darslaringiz jarayonida ishlatib ko'rib, fikr va mulohazalaringizni taqdim etishingizdan xursand bo'lamiz.

Musiqali quti didaktik o'yini


Sinf o'quvchilari mikro guruhga bo'linib oladilar. Har bir mikro guruhga bittadan quticha beriladi. Quticha ichiga mavzuga aloqador 6 - 10 ta savol yozilgan kartochkalar solib qo'yilgan bo'lishi lozim. Mikro guruh o'quvchilari stol atrofida aylana bo'lib turib olishlari so'raladi. So'ngra kayfiyatni ko'ratuvchi musiqa-qo'shiq qo'yiladi. Qo'shiqqa hamohang ravishda mikro guruh a'zolari yengil raqsga tushgan holda stol atrofida qutichani ko'tarib raqsga tushishadi. Raqs davomida quticha o'quvchilar qo'lida bir-birlariga uzatilib turiladi. Musiqa ma'lum vaqt o'tgandan keyin kutilmaganda o'chirib qo'yiladi. Musiqa tugagan vaqtda quticha kimning qo'lida qolgan bo'lsa, o'sha oq'uvchi qutichani ochib, bir savol



yoʻzilgan kartoshkani olib, javob beradi. Berilgan javobning toʻgʻriligiga qarab, oʻsha oʻquvchi baholanadi. Keyin yana musiqa qoʻyiladi. Oʻquvchilar stol atrofida raqsni davom etadi. Huddi shu tartibda savollar tugagunicha oʻyin davom etadi.

Kubik didaktik oʻyini

Avval qartondan chiroyli kubik yasab olish lozim. Kubikni oq yoki rangli qogʻozlarni yopishtirgan holatda bezab olish tavsiya etiladi. Oq



qogʻozdan yasalgan kubiklar yuqori sinflarda, rangli kubiklar quyi sinflarda yaxshiroq boʻladi. Yasalgan kubikning yon tomonlariga savollar yoki topshiriqlar yozib chiqamiz. Yoki kubikka karmonchalar (karmoshka) yopishtirib chiqsak, boshqa darslarda ham almashtirib ishlatishimizga qulay boʻladi. Oʻquvchilardan birini chiqarib, kubikni otish va kubikning qaysi

tomoni yuqoriga qarab qolgan boʻlsa, oʻsha tomonida yoʻzilgan savol yoki topshiriqqa javob berishini aytamiz. Savol yoki topshiriqqa toʻgʻri va toʻliq javob bergan oʻquvchiga yuqori baho qoʻyiladi. Keyin navbatdagi oʻquvchi chiqib kubikni otadi va shu tarzda oʻyin davom etadi.

Quti ichida shart didaktik oʻyini

Bu oʻyin nutqni oʻstirishga moʻljallangan. 3 ta mavzuga aloqador 10 tadan soʻzlar kartochkalarga yoʻzilib, quti ichiga solib qoʻyiladi. Kartochkalar aralashtirib, oʻquvchiga birinchi mavzu yuzasidan matn yaratish vazifasi beriladi. Har bir tuzgan gapidan keyin bir soʻz taqdim etiladi va mavzuni shu soʻzni qoʻshib davom ettirish lozim. Bu oʻyin chiroyli matn tuzishga halaqt berish asnosida boʻlib, mavzuga aloqador boʻlmagan soʻzlarni qoʻshib gap



tuzishga ancha qiynaladi. Shu jihati bilan ham nutqining ravon, chiroyli tuzishga erishish sharti mavjud.

Keyin ikkinchi ishtirokchi chiqib, ikkinchi mavzu haqida gapiradi, gapirish jarayonida bir soʻzni qutidan olib, shu soʻzni ishtirokidagi gap bilan mavzuni davom ettiradi. Unga ham ham shunday topshiriq beriladi, faqat birinchi ishtirokchidan farqli oʻlaroq, gap qutidan olingan soʻz bilan boshlanishi lozim. Oʻyin shu tariqa davom etadi. Mavzu yuzasidan chiroyli, mantiqli matn tuza olgan oʻquvchilar yuqori baho bilan ragʻbatlantiriladi.

Qora oyna didaktik oʻyini

Yozuv taxtasiga katta qora (vaziyatga qarib boshqa rangda boʻlishi, yoki yozuv taxtasining oʻziga chizilishi ham mumkin) vatmon yopishtirilib qoʻyiladi. Sinf oʻquvchilari 6 ta mikro guruhga bolinib, 6 ta topshiriq tarqatiladi. Har bir mikro guruh javoblarini alohida varoqqa yozib chiqadi. Shartga koʻra “qora oyna”ni toʻldirib chiqish vazifasi beriladi. Masalan: **varvarizmga misol toping:** karoche, uje, davno...; **tarixiy shaxslarga taʼrif bering:** buyuk sarkarda, shohjahon...



Guruh meni didaktik oʻyini

Bugungi demokratik jamiyatimizda erkin fikrlaydigan, mustaqil ish olib bora oladigan insonlarni tarbiyalash muhim hisoblanadi. Sinf oʻquvchilari mikro guruhlariga boʻlinadi. Har bir guruh aʼzosi oʻzining meni haqida bitta ijobiy (bir nechta boʻlishi ham mumkin) xislat yozadi (aytadi) va mikro guruhda bu xislatlar umumlashtiriladi. Natijada ideal inson meni hosil boʻladi. Bu usul orqali oʻquvchi baholanmaydi. Natijada oʻquvchilar menini kashf etishi mumkin. Ayrim hollarda oʻquvchi idealini ham yaratish mumkin.

Xuddi shu oʻyinni salbiy xislat haqida ham oʻtkazish mumkin. Oʻquvchilar oʻzlaridagi eng yomon xislatlardan birini yozadi. Bunda

o‘quvchilar ongida qanday inson yonom inson deyilishi haqidagi tasavvurlarini bilib olishimiz mumkin. O‘yin so‘ngida hosil bo‘lgan shaxs xislatlari tahlil qilib, mantiqiy fikrlatishimiz ham mukin.



Buzuq telefon didaktik o‘yini

Bu o‘yin shartiga ko‘ra 5 nafar o‘quvchi eshik ortiga chiqarib qo‘yiladi. Bir nafar o‘quvchiga kichik voqeaband matn (*“Men To‘ra To‘rayevichning yordamchilaridanman. T.To‘rayevichning muhim ishlari chiqib qolib soat 9 dagi majlisni siz o‘tkazishingizni aytdilar. Soat 11 da chet el deligatorlari keladi, ularni savdo qo‘mitasi yonidagi "Olmos" mehmonxonasiga topshirasiz. Soat 2 da kasaba uyushmasi tomonidan tashkil qilinadigan hayriya tadbirida ishtirok etasiz va u yerda qo‘y so‘yiladi. Bu qo‘yning go‘shidan 2 kg ini Tura Turayevichga yetkazishingiz kerak”*) o‘qib beriladi. Matnning mazmunini eslab qolib, keyingi o‘quvchiga so‘zlab berishi lozimligi aytiladi. Matn o‘qib berilgach, eshik ortidagi ikkinchi o‘quvchi chaqirilib, birinchi o‘quvchi matnni gapirib berishi kerak. Ikkinchi o‘quvchi matnni tushunib, eslab qolishi talab etiladi. Ikkinchi o‘quvchi eslab qolgan matnni eshik ortidagi uchinchi o‘quvchini chaqirib, unga aytib berishi aytiladi. Shu tariqa 5 nafar o‘quvchi eslab qolgan matnni aytib berishadi. Oxirida matn qanchalar buzilib ketganligini ko‘rish mumkin. Bu o‘yin bilan o‘quvchilarda eslab qolish ko‘nikmasi shakllansa, ayni vaziyatda birovdan eshutilgan ma’lumot nechog‘liq to‘g‘ri chiqmasligini ham uqtirish kerak.

Kulgichlar didaktik o‘yini

Xafa va kulib turgan 2 ta smayliklar chizilgan bir varaq qog‘oz beriladi, har bir guruh o‘ziga yoqqan va o‘zlashtirib olgan ma’lumotni kulib turgan smayliklar ostiga, o‘zlashtira olmagan, yoqmagan faktlarni xafa smayliklar ostiga yozadi. Bu munosabat darsni qaysi qismiga ko‘proq ishlov berish lozimligini ko‘rsatadi. Natijada o‘z-o‘zini baholashga olib keladi.

Bu didaktik o‘yin orqali o‘quvchilar ham baholanishi mumkin. Darsda qaysi o‘quvchi qanday ishritok etganligini shu jadvalda boshqa o‘quvchilar ham ifodalab berishadi. Yaxshi qatnashgan bo‘lsa, yaxshi tomonlarini, sust qatnashgan bo‘lsa, o‘sha tomonlarini ko‘rsatib to‘ldirib berishadi. Natijada har bir o‘quvchi o‘zining ojiz tomonlarini bilib olib, o‘sha tomoniga ishlashlari lozim.

	
<p>Qiziqarli. Yuqori kayfiyatda. Interfaol. Tafakkurni o‘stiradi. Yangi bilimlar oldim.</p>	<p>Qiziqmas. Judayam zerikarli. Hech nima o‘rgana olmadim. O‘z ustida ishlashi lozim. Zamonaviy metodlarni o‘rgatishi kerak.</p>

Mening reklamam didaktik o‘yini

Bu o‘yin o‘quvchilarni kritik va kreativ fikrlashlarini o‘rganib chiqadi. O‘quvchilardagi o‘ziga xos tasavvurlarni shakllantirish, ularni boyitish, boshqalarga o‘xshamaydigan jihatlarni ko‘rsatishlari uchun ishlatiladi. Bolalar televideniya va internet orqali juda ko‘plab reklamalarni kuzatib borishadi. Aslini olganda reklama mahsulotni tezroq va ko‘proq sotish uchun mo‘ljallanadi. Ya’ni ish unumdorligini ta’minlaydi. O‘quvchilarni hayotga tarbiyalayotgan o‘qituvchilar bu didaktik o‘yinni ko‘proq o‘tkazishlari tavsiya etiladi.

Sinf o‘quvchilari mikro guruhlariga bo‘linadi. O‘yin shartiga ko‘ra har qanday reklama qilinmagan bir mahsulotni (kitob,



ruchka, qalam, termos, payola, tuxum...) o'zini yoki rasmini ko'rsatib, u yuzasidan topshiriq beriladi.

Topshiriq:

1. Quyidagi rasmning reklama matnini tayyorlang.
2. Uni o'z guruhingiz bilan taqdimot qiling.

Natijada o'quvchilar berilgan obyekt yuzasidan reklama matni tayyorlaydilar. Bunda matn tayyorlash uchun 3 daqiqa vaqt beriladi. Bu vaqt oralig'ida o'quvchilar reklama matni tayyorlaydi va tayyorlangan matni kim, qaysi payt, qay holatda o'qib (aytib) berishini belgilab oladilar. Har bir mikro guruh o'z reklamalarini taqdimot qiladi. Qaysi guruhning reklamasi chiroyli, ta'sirli va kreativ chiqqan bo'lsa, yuqori baholar bilan rag'batlantiriladi.

Nima uchun didaktik o'yini

O'quvchilargi bitta matnни o'qib, tanishib chiqishlari vazifa qilib beriladi. Matn yuzasidan bir fakt aytiladi. Va o'sha faktning sababini aniqlash uchun bir o'quvchi boshqa bir o'quvchiga "Nima uchun?" savolini beradi. Savollar ketma-ket beriladi.

Topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing.

Hozirgi kunda millat ma'naviyatiga xavf solayotgan tahdidlardan biri ommaviy madaniyatdir. Ommaviy madaniyat XX asr o'rtalarida shakllangan fenomen bo'lib, unga qisqaroq va tushunarliroq qilib ta'rif beradigan bo'lsak, ommaviy madaniyat bizga chetdan kirib kelayotgan milliy va diniy qarashlarimizga yot ma'naviy va axloqiy illatlarni o'z ichiga olgan xurujlar yig'indisidir.

Yetakchi G'arb mamlakatlarida estetik va ma'naviy-madaniy ehtiyojlari nisbatan tor odamga mo'ljallangan ijodiy asar yoki buyumlarni ommaviy ravishda ishlab chiqarish tadbirkorlikning bir turiga aylangan. Ommaviy madaniyat bozor bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning qonunlariga muvofiq doimo foyda keltirishi kerak. Shunga ko'ra ommaviy madaniyat janridagi ijodiy asarlar (kino, musiqa, moda) axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egosentrizm g'oyalarni targ'ib qiladi.

Ommaviy madaniyat insonlarning madaniy va estetik talablari saviyasini pasaytiradi. Ijtimoiy munosabatlarda insoniylik tamoyilini buzadi.

Ommaviy madaniyat xalqning eng katta boyligi bo'lgan yoshlarni o'ziga qaratib, ularni ma'naviy va madaniy qarashlarini mensimaslikka undaydi. Bundan tashqari, yoshlarni yengil hayotga chaqirib, mas'uliyatsiz ruhda voyaga yetishiga sababchi bo'ladi. Xususan, ommaviy madaniyat yoshlar ongida teleserial yoki videofilmdagi bosh qahramonlarning ichishi, chekishi, mushtumzo'rliigi, axloqiy me'yorlarni mensimasligi bilan o'ta salbiy ta'sir o'tkazadi.

Ommaviy madaniyatni targ'ib qilayotganlar hayotga bir marta kelasan bu hayotda xohlaganingcha yasha, qiyinchiliklarga qo'l silta, biz bilan bo'l, baxtli bo'lasan deb da'vat qiladi, ular hayotda barcha ishlarni qilish mumkin, imkon topsang bas deb uqtirishadi. Albatta, insonning nafsiga yengillik, xohlagan ishini qilish yoqadi. Ko'plab yoshlarni ommaviy madaniyatga ergashib ketayotganining sababi ham shunda.

Har zamonda buzuqlikni, faxshni, bexayolikni har xil nomlar, yaltiroq shiorlar bilan oqlashga intiladigan, targ'ib qiladigan axloqsiz toifalar chiqib turgan. Bunday buzuqliklarni Islom dini doimo qoralab kelgan.

Demak, ommaviy madaniyat kabi buzuqlikni targ'ib qilayotgan tahdidlardan chetda bo'lish har bir musulmon kishining zimmasidagi vazifa ekan. Payg'ambarimiz Muhammad sollalohu alayhi vasallam: "...Hayo iymondan bir juzdir", – dedilar. Dinimiz hayoni iymon darajasiga ko'targan bir o'rinda, barcha mo'min kishilar ommaviy madaniyat kabi axloqsizliklardan chetda bo'lishi, farzandlari, do'st-u birodarlarini ham bu ishlardan ogohlantirishi lozim bo'ladi. (*Fikrat.uz saytidan olindi*)

Masalan: Ko'plab yoshlarni ommaviy madaniyatga ergashib ketayotganining sababi nima?

.....

Nima uchun?

....

Nima uchun?

.....

Mantiqiy savollar didaktik o‘yini

Bizga ma’lumki, Prezidentimizning 2022-yil 11-maydagi PQ – 134-sonli qarori qabul qilingandan so‘ng, maktabning barcha dastur va darsliklar yangidan shakllantirildi. Yangi darsliklarga ko‘ra o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga, kreativ va kritik dunyoqarashini o‘stirishga harakat qilinmoqda. Uzundan uzun nazariy ma’lumotlarni berishdan ko‘ra hayotida duch keladigan mantiqiy muammolarni o‘rgatish dolzarb masalaga aylandi. Shu sababli bunday didaktik o‘yinlar fanga kirib keldi. O‘yin shartiga ko‘ra, barcha o‘quvchilarga mantiqiy savollar beriladi. Har bir o‘quvchi shartni bajarib, daftariga qayd qilib boradi. Taxminan savollar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Tuyaqush o‘zini qushman deb ayta oladimi? (Tuyaqush gapirmaydi)

Stolda 70 dona oq qog‘oz turibdi. Har 10 soniyada 20 ta qog‘ozni sanash mumkin. Bu holda 50 ta qog‘oz ajratib olish uchun necha soniya vaqt ketadi? (10)

Men suvman va suv yuzida suzib yuribman. Men kimman? (muz)

Hamma narsani ko‘ryotganda uni ko‘rmaysiz, hech narsani ko‘rmaganda esa uni ko‘rolasiz. (Qorong‘ulik)

Ko‘rganda quvonamiz, lekin baribir ko‘zimizni olib qochamiz. (Quyosh)

Xonada 3 ta qizil, pishgan olmalar bor. 1 ta pishgan olmani yeb qo‘ysak, nechta qizil olma qoladi? (2 ta)

Xonada 5 ta lampa yonib turibdi. 2 tasini o‘chirib qo‘ysak, nechta lampa qoladi? (5 ta)

Xonada 10 ta sham yonib turibdi. 6 tasini o‘chirib qo‘ysak, nechta sham qoladi? (6 ta)

Xotira mashqi didaktik o‘yini

Bu metodni o‘tkazishda o‘qituvchi yoki bir o‘quvchi ma’lum miqdordagi faktlarni sanab o‘tadi. Qolgan o‘quvchilar esa eshitgan va esida saqlab qolgan ma’lumotlarini qaytarib aytadi. Aytgan ma’lumotlarning miqdori va sifatiga qarab bolalar baholanadi. Bu bilan bolalar o‘zlari bilmagan faktlarga ega bo‘ladi va xotirasi charxlanadi.

O'quvchilar o'zlarining qanday faktlarni bilishi, qaysilarini bilishi shart emasligini ham anglashlari lozim.

Qiziq ma'lumotlar

Barmoq izlarida boshqalarda uchramaydigan 40 ta o'ziga xoslik bor. Ko'z pardasida esa bunday o'ziga xoslik 256 tani tashkil etadi.

Inson ko'zi kattaligi tug'ilganida qanday bo'lsa, bir umr shunday saqlanib qoladi. Quloq va burun esa davomiy o'sib turadi.

Ko'zimizning diametri 2,5 cm atrofida bo'lib, og'irligi 8 g chiqadi.

Ko'zimizdagi 107 millionta hujayraning har biri yorug'likni sezish qobiliyatiga ega.

Ko'z harakatini boshqarib turadigan mushaklar tanamizdagi eng faol mushaklar hisoblanadi.

Inson ko'z soqqasining oltidan bir qismigina ko'rinib turadi.




Sevimli kishimizga qaraganimizda ko'z qorachiqchalarimiz 45 foizga kattalashar ekan.

Inson ko'zi soniyasiga 50 tagacha narsa-buyumga diqqatni jamlay oladi.

Fikrni jamlash didaktik o'yini

Fikrni jamlash, diqqatni oshirish va axborotni tez qayta ishlash metodi.

Bunda bizga har xil turdagi rangli qog'ozlar kerak bo'ladi. Kamida 5 yoki 6 xil rangli qog'oz yonma-yon qo'yiladi. Imkoni boricha barcha o'quvchilarga berishimiz kerak. O'quvchilarga ranglar ketma ketligi aytiladi va ular shu ketma ketlikdan adashmagan holda ranglarni qo'llari bilan tezlikda ko'rsatishlari yoki qog'ozlarni



ustiga bosishlari kerak. Birinchi va to'g'ri barjargan o'quvchi g'olib bo'ladi.

Tinglab tushunish didaktik o'yini

Sinf o'quvchilariga bitta matn o'qib beriladi. O'quvchilardan matnni diqqat bilan tinglash talab qilinadi. Matnni tinglab bo'lgandan keyin, o'quvchilarni mikro guruhlariga bo'lib olamiz. Mikro guruhda o'quvchilar soni qancha kam bo'lsa, shuncha yaxshi bo'ladi. Matnda keltirilgan ma'lumotlarni qay darajada eslab qolishganlarini bilishimiz uchun, eslab qolingani ma'lumotlarni qog'ozga yozishadi. Qaysi mikro guruh ko'p ma'lumotlarni yozsa, o'sha guruh g'olib bo'ladi.

Tasavvur dunyosi didaktik o'yini

Sinf o'quvchilariga umumiy topshiriq beriladi. Yozuv taxtasiga yoki monitorga bir rasm chiqariladi. O'quvchilar shu rasmda ilg'ayotgan so'zlarni daftarlariga qayd etib borishadi. Har bir o'quvchi o'zi yozayotgan so'zlarni raqamlab borishadi. Oradan 4 daqiqa o'tgach har bir o'quvchi nechta so'z topganligini aytishadi. Kim ko'p so'z topgan bo'lsa, uning dunyoqarashi yaxshi ekanligi aytiladi. Aslida bunday usul juda oddiy bo'lib ko'ringani bilan, bir inson ko'rib turgan so'zni boshqa inson ko'rmasligi mumkin. Bu bilan o'quvchilarni jamiyatda bo'layotgan, oilada bo'layotgan, otrof muhitda bo'layotgan o'zgarishlarga befarq bo'lmasligini taminlaydi.

Bunda o'quvchilar mavzuga bog'liq holda imloviy xatolarga yo'l qo'ymasdan o'zlari tasavvur qilgan jarayon haqida so'zlar yaratishi kerak. Bu metod o'quvchilarga fikrlashga, fantaziyalarini oshirishga yordam beradi.



Aytaylik, bir rasm berildi. O'quvchilar bu rasmdan ilk ko'rgan so'zlarini yoza boshlaydi: *kitob, siyohdon, xat, pat, bog'ich, qizil...*

Agar bunda o'quvchi tabiatan mavjud bo'lgan: *qora, sariq, oq, ko'k, havorang, pushti, yashil, kulrang* singari ranglarni; *burchak, tomon, qiyshiq, to'g'ri, qiya, uchi, uchburchak, to'rtburchak, qiya, aylana,*

doira, yoq, yon, orqa, oldi, usti, tagi, katta, kichik, baland, past, oval, tekis, notekis singari geometrik terminlarni; *temir, shisha, qog‘oz, mato, ip...* singari boshqa so‘zlarni anglay olishi lozim.

Baliqlarni qutqar didaktik o‘yini

Bu o‘yin savol-javobning zamonaviy usulidir. O‘quvchilar oddiy savol-javobdan ko‘ra qiziqarli savol-javoblarni tezroq va yaxshiroq eslab qoladilar. Shuning uchun bu o‘yindan foydalanish tavsiya etiladi. O‘yinni o‘tkazish uchun sinf o‘quvchilari mikro guruhlariga bo‘linadi. O‘tilgan mavzu yuzasidan savollar tuziladi. Keyin varoqchalarga baliqchalar rasmi chizilib, tuzilgan savollar baliqchalarning orqa tomoniga yozib chiqiladi. Bunda o‘quvchilar o‘tilgan mavzuni mustahkamlab oladilar va ularning bilimi yana oshadi.



Bu didaktik o‘yin jarayonida yozuv taxtasiga yuqorida tayyorlab olingan turli xil rangdagi baliqlar yopishtiriladi. Baliqlar akvariumning ichida bo‘ladi. Akvariumning

yoniga dengiz rasmi ham chizib qo‘yiladi. Mikro guruh o‘quvchilari chiqib navbat bilan savollarni oladi va javob beradi. Savolga to‘g‘ri javob bersa, baliqni dengizga qo‘yib yuboradi, agarda noto‘g‘ri javob bersa, baliq akvarium ichida qoladi. O‘yin shu tarzda davom etadi. O‘yin oxirida dengizga qo‘yib yuborilgan baliqlarga qarab qaysi guruh g‘olib bo‘lganini aniqlab, baholanadi.

O‘tmish va kelajak didaktik o‘yini

Bu o‘yinni turli jarayonlarda qo‘llashimiz mumkin. O‘qituvchi o‘tayotgan mavzudan kelib chiqib, o‘quvchilarga bir varaqdan qog‘oz tarqatib chiqadi. O‘quvchilar varaqqa T chizmasini chizadi.

O'tmish	Kelajak

Ikkiga bo'lingan chizmaning bir tomoniga 10 yil oldingi rivojlanish, ikkinchi tomoniga hozirgi kundagi rivojlanish haqida o'zlarining fikr-mulohazalarini bayon etishadi. Yoki 10 yil oldingi men, 10 yildan keyin men. 10 yil oldingi ta'lim, 10 yildan keyingi

ta'lim. 10 yil oldin o'qituvchilar va 10 yildan so'ng o'qituvchilar. Shu tartibda vazifalar beriladi. O'qituvchilar o'zlarining kreativ fikrlarini yozadi. Mashq so'ngida fikrlar muhokama etiladi. Kelajakni tasavvur qila oladigan o'quvchilarga yuqori baholar qo'yib rag'batlantiriladi. Ushbu metod o'quvchining fikrlash qobiliyatini kengaytiradi, yozma nutqni shakllanishiga yordam beradi.

Eshitib rasm chizish didaktik o'yini

Ayrim o'quvchilarni rasm chizishga ishtiyoqi baland bo'ladi. Ko'pchilik esa, ko'rgan narsalarini rasmini chizishga o'rganishgan.

Eshitib rasm chizish bir oz qiyinroq vazifa, yaxshi tomoni esa, chizilgan rasmni chiroyli yoki xunuk ekanligi tekshirilmaydi. Aksincha, tasavvur qila olganmi-yo'qmi shu tekshiriladi. Aytaylik "Taqlid so'zlar" mavzusi o'tilyapti. Taqlid so'zlarga mos audio eshittiriladi va



shu asosida tasavvur qilgan narsasini sur'atlarda ifodalaydi. Masalan: arraning daraxt kesayotgan tovushi, shamol tovushi, sharsharaning tovushi, miq qoqilayotgan paytdagi ovoz, eshikning ochib-yopilishi

jarayoni ovozi, lovullab yonayatgan gulxan ovozi eshittiriladi. O‘quvchilar nimani ovozini eshitayotgan bo‘lsa, tezda chizib berishlari kerak. Bu o‘yin orqali o‘quvchilarning dunyoqarashi, tasavvurlar olami kengayadi. O‘yinni rasm, ona tili, adabiyot, tarix, geografiya, biologiya, texnologiya, fizika singari darslarda qo‘llash ko‘proq samara beradi.

Yillar tilga kirganda didaktik o‘yini

Har qanday o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham qaysidir raqamlarga albatta murojaat qiladi. Bu inson xotirasini mustahkamlashga qaratilgan jarayon. Ammo shunday raqamlar ketma-ketligi mavjudki, bu raqamlarda albatta bir sir yashiringan bo‘ladi. Quyidagi “Yillar tilga kirganda” didaktik o‘yini ayni o‘sha raqam yozilgan sanada qaysidir voqelik asosida bir umumlashma mavjud bo‘ladi. Har qanday raqamlarning ketma-ket kelishi bir mavzu doirasida jumboqqa aylanishi mana shu metodning mohiyati hisoblanadi.

Bu o‘yinli darsda o‘quvchi ma’lum sanalar yozib qo‘yilgan maxsus qog‘ozga qaysi yilda nima voqea yuz berganligini to‘ldirib chiqishlari lozim. Masalan, 10 ta yillar yozilgan maxsus jadvalni to‘g‘ri to‘ldirib chiqish lozim bo‘lgan holda o‘quvchi 9-10 tagacha to‘g‘ri javob yozgan bo‘lsa, “5” baho qo‘yish mumkin. 7-8 tasiga “4”, 5-6 tasiga “3” baho qo‘yilsa maqsadli bo‘ladi. Masalan:

Tarix darsida


№	YILLAR	BO‘LGAN VOQEALAR
1	1996	
2	1997	
3	1998	
4	1999	<i>Ayollar yili</i>
5	2000	
6	2001	
7	2002	
8	2003	

Adabiyot darsida

№	YILLAR	BO'LGAN VOQEALAR
1	1903	<i>G. Gulom tug'ildi</i>
2	1905	<i>Oybek tug'ildi</i>
3	1907	<i>A. Zahhor tug'ildi</i>
4	1908	<i>M. Shayxzoda tug'ildi</i>
5	1909	<i>H. Olimjon tug'ildi</i>
6	1910	<i>Mirtemir tug'ildi</i>
7	1912	<i>U. Nosir tug'ildi</i>
8	1915	<i>Zulfiya tug'ildi</i>
9	1920	<i>S. Arxmad tug'ildi</i>
10	1936	<i>E. Vohidov tug'ildi</i>

Zehnli zukko didaktik o'yini

Bu o'yinni o'tkazish uchun juda ko'p rangli: tabiat, jonivor, mevalar va vatanni ulug'lovchi rasmlar kerak bo'ladi. Bir necha rangli rasmlar tanlab olinadi va ularga ta'rif beriladi. Berilgan ta'rif chiroyli va ijobiy bo'lishi talab etiladi. Har bir berilgan ta'rifdan o'qivchilar o'zlariga moslarini ya'ni didlaridagilarini tanlab olishadi. Tanlab olingan chiroyli matnni darsga mos ravishda tahlil qilishadi. Masalan:



Serquyosh o'lkamning mevalari

O'zbekistonimizning shirindan-shakar mevalari butun dunyoni hozirgacha lol qoldirib kelmoqda. Ularning ichida qovun va tarvuzlar,

olma-yu anorlar, behi-yu gilolar, shaftoli-yu o'riklarning ta'mi beqiyos. Yurtimizda olmalarning maxsus navlari yetishtirilib, hatto katta bog'lari ham yaratilgan. Ularning ichida "Besh yulduz" nomi bilan dong taratgan ajoyib tamli, hushbo'y olma navi alohida ajralib turadi...

Bunda keltirilgan matnning tahlilini olib borishda harflar imlosi, bo'g'inlar, yuklamalar, sifat mavzularimi, olmoshmi, gap bo'laklarimi qaysi mavzu o'tilayotgan bo'lsa ham, shu mavzuga tegishli jihatlar tanlab olinib o'rganiladi.

Qaysi o'quvchi zehnli-zukko bo'lsa, yaratilgan matndan mavzuga oloqador jihatlarni tezroq topib izohlab berishadi va mavzu bo'yicha baholanadi.

Bu o'yinni tarixiy faktlarga tayangan holda tarix darslarida, geografik faktlarga asoslangan holda geografiya darslarida, badiiy adabiotdagi biror asarga tayangan holda adabiyot darslarida, tarbiya darslarida ko'proq qo'llash mumkin.

Ha-yo'q didaktik o'yini

O'yinning asosiy sharti javob beruvchi o'quvchi tezlikda "ha" yoki "yo'q" tarzida javob berishi lozim. Bunda o'qituvchi (yoki o'quvchi) tomonidan oldindan tayyorlab qo'yilgan savollar ketma-ket o'qiladi yoki aytiladi. Savollar og'zaki tartibda bo'lishi, savol berish bir necha o'quvchi tomonidan amalga oshirilishi ham mumkin.

Takrorlash darslarini o'tayotgan mahalda savollar tuzish bir oz yengil bo'lib bir necha mavzulardan tuzilishi ham mumkin. Bunda qiyinchilik javob berayotgan o'quvchiga tushadi. Lekin savol-javoblar tezkor bo'lgani uchun savollarni osonroq tuzish maqsadga muvofiqdir.

Bu o'yinda 2 kishi (ikki o'quvchi yoki o'qituvchi va o'quvchi) ishtirokida amalga oshiriladi. Javoblarning so'roqlari -mi so'roq yuklamasi yordamida tuziladi. O'yin asosan dialog tarzida o'tadi. Shuning uchun o'yin harchand qiziq bo'lsa-da (ayniqsa, liderlar uchun) dars jarayonida tez-tez faqat qisqa vaqt ichida o'tkazilishi taklif etiladi.

1. Otlar ikkiga bo'linadimi? – Ha
2. 5 ta kelishik qo'shimchasi bormi? – Ha
3. -ni qaratqish kelishigi qo'shimchasimi? – Yo'q

4. Egalik qo‘shimchasi sonlarga xos xususiyatmi – Yo‘q
5. -chi shaxs otini yasamaydimi? – Ha
6. Qayer so‘rog‘i otlarga xosmi? – Ha....

Raqamlar siri didaktik o‘yini

Bu o‘yin asosan 5-6-sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan bo‘lib, ularning tezkor xotirasini mustahkamlaydi va ijodkorlikka undaydi. O‘yinni o‘ynash uchun maxsus raqamlar ostiga harflar berkitiladi masalan: A- 1 raqamiga, B-2 raqamiga D-3, E-4, F-5 raqamlariga, xullas, alifbodagi hamma harflar raqamlar ketma-ketligida yashirilgan bo‘ladi. Chunonchi,

bola so‘zi → 2,14,11,1

Yuqoridagi raqamlar ostidagi so‘zlarni topib, shunday joylashtirib chiqingki, undan xalq maqoli kelib chiqsin.

2,8,11,8,12

10,8,19,14,2

2,20,11,14,26,8

Javob: bilim, kitob, bulog‘i → **Kitob bilim bulog‘i**

Harflarni to‘g‘ri yoz didaktik o‘yini

Bu o‘yinda faqat bitta harf bilan farq qilib turuvchi 5 ta so‘z topish topshiriladi ularning variantlari juda ko‘p bo‘lib, quyidagicha misollarni asos qilib olish mumkin.

O‘				
O‘	Y			
O‘	Y	I		
O‘	Y	I	N	
O‘	Y	I	N	I

Orqa tomondan qo‘shish

S	O	B	I	T
	O	B	I	T
		B	I	T
			I	T
				T

Old tomondan qo‘shish


Buzilgan so‘z tarkibi didaktik o‘yini

O‘yinni o‘ynash uchun o‘qituvchi oldindan buzib yoki teskari qilib yozib qo‘yilgan so‘zlarni maxsus plakatga yozib qo‘ygan bo‘ladi o‘yin

ishtirokchisi ularni to'g'ri topishi lozim. Bunda o'qituvchi bitta gapni yoki bir nechta gaplarni yoki matnni teskarisiga yozib chiqqan bo'lishi kerak. O'yin ishtirokchisi ularni to'g'ri topib, ma'lum ballni qo'lga kiritadi. "Buzilgan so'z tarkibi" o'yinining asosiy maqsadi: o'quvchilarni tezroq idroklashiga asos bo'lib xizmat qilishidir.

Guruhlarga bo'lib dars o'tish jarayonida bu o'yinni bir necha variantlarda taqdim qilish mumkin. Bunda 1-bo'lib bajargan guruh g'olib hisoblanadi. O'yinda tezkorlik talab qilinadi.

1- namuna:



2-namuna: (Teskari o'qiladi)

.tij-mij fnis .idnalshob srad. idnilach qorig'no'q .idshilek agbatkam
ralalob

Javobi: Bolalar maktabga kelishdi. Qo'ng'iroq chalindi. Dars boshlandi. Sinf jim-jit.

So'zlar zanjiri didaktik o'yini

O'yin shartiga ko'ra har bir so'z aytilganida oxirgi harfiga yangi so'z aytish lozim bo'ladi. Bunda birinchi bo'lib o'qituvchi bitta so'z aytib boshlab beradi. Bu o'yin juda sodda bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Shuni unutmaslik lozimki, bu usulda o'yin o'ynash mashqi bir so'z turkumi doirasida bo'lishi ham mumkin. Bu holatda yuqori sinf o'quvchilari ham o'ynasa bo'ladi. Masalan, bir so'z turkumi doirasida:

Ot so'z turkumiga;

Kitob-bola-asal-loviya-anor-rasul-lochin-nina-anjir-rohat-tarozi....

Fe'l so'z turkumiga;

Keldi-ilmoq-qayirish-shoshgan....

Bu o‘yinning ikkinchi usuli ham bor. O‘yinning boshlanishida bir so‘z aytiladi va aytilgan so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga so‘z topish lozim, keyin ikkinchi so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga. Shu zaylda davom ettirib borib o‘yin so‘ngida oxirgi so‘z iloji boricha birinchi so‘zning bosh bo‘g‘ini bo‘lishi lozim. Misol:

Maktab-tabiat-atrof-oftob-obod-odob-obid-idrok...


Aynan shu o‘yinni fanga tegishli terminlar aytish tartibida ham olib boorish mumkin. Bunda tartib oddiylashadi, ya’ni bir o‘quvchi aytgan termini boshqa o‘quvchi aytmassligi lozim. 3 soniya ichida termin ayta olmay qolgan o‘quvchi guruhni tark etadi. Oxirida qolgan 3 nafar o‘quvchi baholanadi.

Bilag‘on didaktik o‘yini

O‘quvchiga topshiriq sifatida bitta so‘z beriladi. Shu so‘z orqali qolgan so‘zlar vujudga keladi. Demak, oldindan tanlangan so‘z oddiyroq va qisqaroq bo‘lgani maqsadga muvofiqdir.

Masalan: KUT so‘zi

Kut so‘zining har bir harfiga yangi so‘z topilishi lozim va topilgan so‘zlarning har bir harfiga ham yangi so‘z topilishi lozim.



Kerak, olis, nom, uzuk, zina, ulug‘, narvon, tog‘, o‘ra, nima, nihoyat, alamli.

Undan so‘ng topilgan so‘zlardan matn yaratish topshiriladi. Turli so‘zlarni bir-biriga bog‘lab matn tuzish san‘atlarini ham sinab ko‘rish mumkin.

Hozir olis tog‘lar orasida nima qilayotganimni aytsam, bo‘lsa kerak. Kecha konga borib uzun narvonni o‘raga qo‘yib nihoyat chiqayotganimda zumrad uzugimni tonna-tonna toshlar o‘rasiga tushirib yubordim. Rosa alam qildi. Bildimki, kutish kerak. Shunda zinadan bir ulug‘ inson chiqib kelib mening alamli yuzimga tikilib uzuk tutqazdi. Men esa hayratdan yoqa ushlab qolibman. Shu asnoda uyg‘onib ketdim...

Jurnalist bilan muloqot didaktik o‘yini

O‘yinni boshlash uchun oldindan tayinlab qo‘yilgan o‘quvchi jurnalist bo‘lib turadi va u sinf o‘quvchilaridan intervyu olish uchun tashrif buyuradi.

O‘quvchilar bilan suhbatlashadi. Suhbat jarayonida har bir o‘quvchi o‘zlarini intervyu berayotgan siyosatchi (kim qaysi kasbga qiziqsa, shu kasb egasi sifatida qatnashishi mumkin) tarzida tutishlari lozim. Bunda o‘quvchilar o‘zlarini buyuk shaxsdek his qola olishi, katta odamlardek muloqatda bo‘la olishi, erkin so‘zlay olishi lozim. Shuning uchun bu o‘yinning shartini o‘quvchilarga bir kun oldin berib yuborish va shartlarga o‘quvchilar bir kun tayyorlanib kelishi maqsadga muvofiqdir.

Dars boshlangach o‘quvchilar bilan bo‘ladigan muloqot jonli bo‘lishi kerak. Shu tariqa boshlangan darsda jurnalist quyidagicha savollar tuzib kelishi mumkin:

- *O‘zingizni tanishtirsangiz.*
- *Men, Turg‘unov Shuhratman.*
- *Sizning kasbingiz?*
- *Hozirgi kunda bankda hisobchi bo‘lib ishlayman.*
- *Sizga tanlagan kasbingiz yoqadimi?*
- *Ha, albatta, bu kasbga yoshligimdan qiziqaman sababi otam hisobchi bo‘lishgan bu kasb menga ota kasb bo‘lib, ularning ishlarini davom ettirayapman.*
- *Bu kasbni tanlashingizga sabab nima?*
- *Bu kasbni tanlashimga oilaviy muhit ta’sir qilgan bo‘lsa kerak.*
- *Ustozlaringiz haqida so‘zlab bersangiz.*
- *Mening ustozlarim juda ko‘p bo‘lib, ularning samarali mehnatlari tufayli biz shogirdlari hozir shu ishlarda ishlab yuribmiz. Mening birinchi*

ustozim otam bo'lgan. Ulardan hisobchilik kasbiga bo'lgan muhabbatni o'rganganman.

– *Siz bilan hali yani uchrashamiz. Hozircha siz uchun belgilangan joyga borib o'tirishingizni so'raymiz., xayr.*

– *Xayr.*

Keyingi o'quvchi bilan muloqat boshlanadi...

Tug'ilgan kunga sovg'a didaktik o'yini

Sinfdagi o'quvchilardan birning tug'ilgan kuni yaqinlashayotgan, yoki yaqinda o'tgan bo'lishi ham mumkin. O'sha o'quvchini o'yin bahonasida tabriklash ananasi joriy etiladi. O'yin savol-javob tariqasida o'tkaziladi. Tug'ilgan kunini nishonlayotgan o'quvchiga guruh o'quvchilaridan sovg'a tayyorlash maqsadida gullar dastasi tayyorlash kerak bo'ladi. Bunda guruh a'zolari berilgan savollarga javob bersagina, gul taqdim qilinadi. Gullarni chiroyli tarzda buket qilish bir o'quvchiga tayinlanadi. Savollarga berilgan javoblardan yutib olingan gullar dastasi tug'ilgan kun egasiga taqdim qilinadi. Albatta bu guldasta ramziy ma'noda. Dars tamom bo'lgach, ramziy guldastani yanagi safargi tug'ilgan kun egasiga qoldirishadi. (Guldastani berib yuborsangiz ham bo'ladi.)



Bu o'yinda chiroyli buket tayyorlansa, tug'ilgan kun egasi juda hursand bo'ladi.


1. Navoiy qayerda tug'ilgan?
2. Qanaqa asarlarini bilasiz?
3. "Hamsa" dostonlarini sanab bering.
4. "Haytar-ul abror" dostonida nima haqida fikr yuritilgan?
5. Navoiyning taxalluslarini bilasizmi?
6. Alisher Navoiy haqidagi qanday kitoblarni bilasiz va ularni

o‘qiganmisiz?

7. Navoiy haqidagi kinofilmlarni ko‘rganmisiz?

Avtobuscha didaktik o‘yini

O‘yinni maqollar yoki iboralar va bog‘lovchilar mavzularida foydalanish samaralidir. Negaki, 8 nafar o‘quvchiga bir xil topshiriq beriladi. Bu topshiriq: masalan, maqol aytish bo‘lsa, 8 nafar o‘quvchi ketma-ket avtobus bo‘lib turib olishadi. Kim maqol aytolmay qolsa, yoki boshqalar aytgan maqolni qaytarib aytsa, avtobusdan tushib qolishadi. Shu tariqa qalغانlar bilan o‘yin davom etaveradi oxirigacha yetib kelgan zukko o‘quvchi 5 ball bilan, undan oldingisi 4 ball bilan, undan oldingisi 3 ball bilan baholanadi.




Avtobuscha o‘yinini boshqa fanlarda ham keng ishlatish mumkin. Har bir mavzu yuzasidan terminlarni aytish, qaidalarni aytish, fikrlar aytish, mavzuni ketma-ket so‘zlab berish, bir mavzu doirasida fikrlar aytish singari shartlarni qo‘yib, o‘tkazish mumkin.

Moychechak didaktik o‘yini

Moychechak o‘yinini guruhlariga bo‘lib dars o‘tish jarayonida qo‘llasa, ko‘proq samara beradi. Aytaylik, fe‘l (qaysi mavzu bo‘lsa ham farqi yo‘q) so‘z turkumi o‘tilayotgan bo‘lsa, avval savollar yozilgan maxsus gulbarglar tayyorlanib qo‘yilgan bo‘ladi. Savollar yozilgan gulbarglar tarqatiladi va javob berish uchun guruhlariga yuzlanadi. Savollar yozilgan gulbarglarga javob topilib ketilaveriladi. Bunda har bir topilgan javob uchun bittadan gulbarg sovg‘a qilinadi. O‘yin oxirida yutib olingan gulbarglardan ajoyib moychechak hosil qilinadi. Agar savollarga

javoblar yaxshi berilmagan bo'lsa, moychechak to'liq va chiroyli chiqmaydi. Bunda qaysi guruhning moychechagi qalin va chiroyli chiqqan bo'lsa, o'sha guruh g'olib bo'ladi.

Bu o'yin tarmoqlash metodiga juda o'xshash bo'lib, bunda ham mavzuga tegishli bo'lgan savollar yozilgan bo'ladi. Tarmoqlashdan farqli o'laroq, bu o'yin savol-javob tariqasida uyushtiriladi. O'yinni kichik sinflarda o'tkazilishi taklif etiladi. Ona tili, tarix, geografiya, matematika, fizika, tabiatshunoslik hattoki texnologiya fanlarida ham o'tkazish mumkin.



Jumboq didaktik o'yini

O'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo'yilgan maxsus jadvallar tarqatiladi. Jadvallarga oldindan quyidagicha raqamlar yozib qo'yilgan

bo‘ladi (masalan 1 raqami). Raqamlar ostidagi harflar bir xil bo‘lishi shart. Jumboq jadvalini to‘ldirish uchun o‘quvchidan topqirlik bilan zukkolik talab etiladi. Jadvalni kim birinchi va to‘g‘ri to‘ldira olsa, shu g‘olib bo‘ladi. Quyida jadvalning 5 ustunli uchta varianti berilgan. Siz o‘quvchilaringizning bilim saviyasiga qarab 4-7 ustunliklarini ham berishingiz mumkin. Shuni unutmangki, har ehtimolga qarshi javoblari ham sizda tayyor turishi kerak. Vazifa berayotganingizda shart vaqtini 1 raqamlari ostida qaysi tovush borligini aytish bilan boshlaysiz. Shu vaqtdan boshlab hamma bir vaqtning o‘zida yozib boshlaydi. Agar javoblar ichida xatolari bo‘lsa, 5 balldan xatolar miqdorini olib tashlash tavsiya etiladi. Aytaylik, javoblarning 2 tasi xoto bo‘lsa, $5-2=3$ ball qo‘yiladi.

1				
1	2			
1	2			
1	2			
1	2			

1				
2	1			
	2	1		
		2	1	
			2	1

2	2	2	2	
1	1	1	1	1

Javoblari:

B				
B	U			
B	U	T		
B	U	T	A	
B	U	T	O	Q

Q				
O	Q			
Y	O	Q		
U	L	O	Q	
Q	U	L	O	Q

B				
O	O			
Y	B	K		
I	I	I	I	
T	T	T	T	T

5555 didaktik o‘yini

Bu o‘yinda 5 kishi ishtirok etadi. 5 qadam uzoqlikda turishadi. Har bir o‘quvchiga 5 tadan savol beriladi, savollar dastlab sodda, keyinchalik murakkablashib boradi. Har bir savol uchun 5 soniya vaqt beriladi.

O‘yinning nomi ham shuning uchun “5555” deb nomlanadi. O‘yin davomida savollarga javob bergan o‘quvchi bir qadam oldinga yuradi. Kim birinchi bo‘lib besh qadam yursa, o‘sha o‘quvchi g‘olib bo‘ladi. Agar ikki ishtirokchi barobar javob bersa, bu holatda ikkisini ham bir qadam oldinga yurgizish maqsadga muvofiqdir.

Bu o‘yinning

boshqacharoq yana bir turi borki, bunda o‘quvchilarning hammasi javob bergach haqiqiy javob aytiladi va to‘g‘ri javob egalari bir qadam ildamlaydi. Shu tariqa marraga qarab besh qadam yurilsa, bahosi besh ball hisoblanadi.

Bu so‘z kimniki didaktik o‘yini

So‘z turkumlariga doir so‘zlar kartochkalarga yozilib aralash holda beriladi. Bu o‘yinni so‘z turkumlari mavzusini o‘tgan vaqtlarda, so‘z turkumlarini takrorlash darslarida qo‘llash o‘rinlidir. Oltita so‘z turkumiga olti nafar o‘quvchilar qatnashadi (mavzular necha turga bo‘linsa, shuncha o‘quvchi ishtirok etishi mumkin). Har bir o‘quvchi o‘ziga taalluqli so‘zni topadi. Kimdir otni, kimdir olmoshni, yana kimdir sifatni... hamma tanlab olgandan so‘ng qolib ketgan so‘zlar muhokama qilinadi. Vaziyatga qarab tanlangan so‘zlarning to‘g‘ri-noto‘g‘riligi ham izohlanishi mumkin. Har bir o‘quvchi nutqini rivojlantirish maqsadida topgan so‘zlariga gaplar tuzishlari ham mumkin. Chunonchi, olma, sariq, qiziq, oyinchoq, ket, yurib, bor, ko‘l, telefon, qo‘l, meniki, bu, o‘yin, katta, yoqimli, kech, yonida, shahar, tulkidek, kapgir, beshovi, chiqmoq, yo‘q, surur, ikki, yo‘l, yuzlab, shu, chiroyli va boshqalar.

Aynan shu o‘yinni boshqa fanlarda ham ishlatish mumkin. Aytaylik, bir nechta mavzuga alaoqador so‘zlar aralashtirib yuboriladi. O‘quvchilar qaysi so‘z qaysi mavzuga aloqador ekanligini ajratib olishlari lozim. Ajratib olingan bir mavzuga mos bo‘lgan so‘zlar, o‘yin oxirida muhokama qilinadi. O‘yinda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Siz uni taniysiz didaktik o‘yini

Bu o‘yinni o‘tkazish uchun avval har bir o‘quvchi bitta sinfdoshini ismini daftariga yozadi. O‘sha o‘quvchi kim ekanligini poishimiz uchun

unga tegishli bo'lgan 4 yoki 5 ta sifatlarni, belgilarni, harakterlarni ismining ostiga qayd etadi.

Sifat mavzusini o'tayotganda topshiriq sifatida insonlarga xos xislatlarni yozishlarini berish mumkin. Keltirilgan sifatlardan sinfdoshlar ichidan bir o'quvchiga ta'rif beriladi. O'quvchilar gap kim haqida ketayotganligini topishlari lozim.

Masalan: Ziyrak, aqlli, bilimli, kuchli, urushqoq, g'iybatkash, jahldor, yalqov, anqov, sust o'zlashtiradigan, bilimsiz, yoqimli, kichkina, uzun, do'mboq...

Yuqorida keltirilgan so'zlar ichidan bir o'quvchiga ta'rif beriladi so'ng u kim ekanligi topiladi.

Eslatma: hamma uchun umumiy bo'lgan



–bilimli, aqlli, chiroyli singari belgilarni yozmaslik kerak. Aks holda har bir o'quvchi “meni aytyotgan bo'lsa kerak”, deb o'ylashadi.

Yuqori cho'qqi didaktik o'yini

Yuqori cho'qqi didaktik o'yinini o'ynashda yozuv taxtasiga yoki maxsus vatmon qog'ozlarga teskari qilib yozilgan raqamlar mavjud bo'ladi, aniqrog'i pastdan yuqoriga qarab raqamlangan bo'ladi. Raqamlarning ustki qismiga mavzuga tegishli birorta vazifa berilishi mumkin.

Deylik, so'z yasovchi qo'shimchalar o'tilgan. Vazifa esa -chi qo'shimchasi orqali yangi so'zlar hosil qilish bo'lsin. Bunda kim yuqori cho'qqiga birinchi bo'lib chiqsa, g'olib bo'ladi. Vazifani bajarish uchun ikki nafar o'quvchi chiqadi. Ikkisi ikki qo'shimcha asosida so'zlar yasab, u so'zlarni taxtaga – raqamlarni to'parasiga 1 raqamidan boshlab yoza boshlaydi. Keying so'zni 2 raqamiga ... tartib bo'yicha yazadi. Kim birinchi bo'lib, 10 raqamigacha yozib bo'lsa, g'olib bo'ladi.

Vazifalar quyidagicha bo'lishi mumkin:

-chi
qo‘shimchasiga

- 10.
- 9.
- 8.
- 7.
- 6.
5. ...
4. suyun+chi
3. o‘yin+chi
2. suv+chi
1. gul+chi

Turdosh otdan
yasalgan atoqli
otlarga

- 10.
- 9.
- 8.
- 7.
- 6.
5. ...
4. Boltaboy
3. Yoqutxon
2. Olmos
1. Temir

	Bubur hayoti bilan bog‘liq faktlar		Chingizxon hayoti haqidagi faktlar		7 raqami bilan aloqador faktlar
10.		10.		10.	
9.		9.		9.	
8.		8.		8.	
7.		7.		7.	
6.		6.		6.	
5.		5.		5.	
4.	4.	...	4.	...
3.	1483-yil tug‘ilgan	3.	Ismi Timuchin	3.	Haftada 7 kun
2.	12 yoshida taxtga o‘tirgan	2.	1206-yildan Chingizxon	2.	7 og‘ayni botirlar.
1.	Boburnoma’ni yozgan.	1.	Mo‘g‘ul hukmdori	1.	7 o‘lchab bir kes.

Raqamli manba didaktik o'yini

Uchdan o'n ikkigacha bo'lgan raqamlar yozilgan kartochkalar bo'ladi. O'qituvchi shu kartochkalarni ko'rsatishi bilan shu ko'ringan raqamga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni aytadi.

Masalan: 3 raqami, bu raqam ko'rsatilgan paytda o'quvchilar 3 ta sifat darajasi borligini, 3 ta zamonlar borligini, yordamchi so'zlar turkumi ham 3 ta ekanligini va boshqalarni aytishadi. O'yin shu tariqa davom ettiriladi.



7 raqami ko'rsatilgan paytda: 7 hazina, 7 avlod, kamalakning 7 rangi, jahonning 7 mo'jizasi, olmoshning 7 turi, haftaning 7 kuni... Bulardan tashqari bu raqamlarga izoh ham so'ralishi mumkin: *yetti avlod* – buva, ota, o'g'il, nabira, chevara, evara,

begona...

12 raqami ko'rsatilgan paytda: 1 yilda 12 oy bor, 12 ta muchal, soat strelkasi 12 gacha, 12 ta burj, 12 ta so'zlar turkumlari, 12 lik sanoq sistemasi, shashkada 12 tadan dona bo'ladi...




O'yin shartiga ko'ra eng ko'p ma'lumot aytgan yoki yozgan o'quvchilar g'olib bo'lishadi va yuqori ball olishga musharraf bo'ladi.

Yutuqlar didaktik o'yini

O'quvchilarga savollar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Doskaga esa boshqa kartochkalar osib qo'yiladi. Iloji boricha ikki tomondagi kartochkalarning soni teng bo'lishi lozim. Doskadagi kartochkalarning ranglari har xil bo'lib, ularning orqasiga maxsus raqamlar yozib qo'yilgan bo'ladi: 300, 500, 260, 420, 370 singari o'quvchilar javob bergach ularni tanlab olish imkonini ham qo'lga kiritadi va doskadan bironta kartochkani tanlaydi va orqasidagi yutuqni necha raqam ekanligini bilib oladi. Shu tariqa hamma javob bergach eng yuqori yutuqni kim yutganligi aniqlanadi va u o'qituvchining maxsus sovg'asini qo'lga kiritadi. Bunda bir nechta

kartochkalar olib yuqori ball to'plaganlar 5 baho bilan rag'batlantilishi mumkin.

Shakli quyidagicha:



So'zlar shodasi didaktik o'yini

“So'zlar shodasi” didaktik o'yinini o'tkazish uchun maxsus vatmon qog'oz va flamaster kerak bo'ladi. Agar ular yo'q bo'lsa, yozuv taxtasi bilan ham ishlash mumkin. O'yinni boshlash uchun yozuv taxtasiga bitta murakkab so'z yoziladi, hamma u so'zni mustaqil o'qiydi. Keyin ikkinchi so'z yoziladi. Endi ikki so'zni qo'shib biror gap tuzish vazifasi beriladi. So'ngra uchinchi so'z yozib qo'yiladi va yozib qo'yilgan uchta so'zni bir-biriga bog'lab gap tuzish vazifasi topshiriladi. Shu tariqa so'zlar soni 6-7 tadan oshib boshlagach o'quvchilar qiynalib gap tuza boshlashadilar. Shundan so'ng ma'noli gap tuza olgan o'quvchilar baholanib boriladi.

Masalan: olma, mashina, daraxt, yulduz, kiyim, chol, kompyuter, bahor...

Mening albomimda olma, mashina, daraxt, kiyim, yulduz, bahor, chol va kompyuterlarning rasmlari bor.

Baland parvoz didaktik o'yini

Sinfda daraxt tashkil etiladi (doskaga tog'ning rasmi chizib qo'yilsa ham bo'ladi). Daraxtga sinf o'quvchilarining jurnaldagi raqamlari (rasmi yoki familiyasi ham bo'lishi mumkin) ilib qo'yilgan bo'lishi kerak. Darsda o'quvchilarning ishtirokiga qarab, yoki savollarga berayotgan javoblariga qarab daraxtga ilib qo'yilgan raqamlar sekin asta yuqoriga qarab ko'tarilib boriladi. Natijada daraxtning eng yuqorisiga chiqqan

o‘quvchi yuqori parvoz qilgan bo‘ladi. Daraxt shoxlaridagi raqamlar joylashuviga qarab o‘quvchilar baholanadi.


Baland parvoz o‘yinini o‘ynash asosan takrorlash darslarida samara beradi, qolgan darslarda ko‘proq baholash uchun ishlatiladi.



Porla quyoshjon didaktik o‘yini


Bunda o‘quvchilarga yozuv taxtasiga quyosh rasmi chizib beriladi. Quyosh rasmidagi nurlar soni kamroq beriladi. Har bir nurning evaziga o‘tilgan mavzu yuzasidan misollar yoki fikrlar yoziladi. Quyosh atrofi qanchalik misollar bilan to‘ldirilsa, quyoshning porlashi kuchayib boradi. Kimning quyoshi chiroyli porlasa, yuqori ball olish imkoniyatini qo‘lga kiritadi.

Bu o‘yinda qaysi mavzu o‘tilayotgan bo‘lsa, shu mavzu yuzasidan quyoshjonni porlatishimiz mumkin. Deylik, ot mavzusi:



Adabiyot darslarida esa bironta obrazga keltirilishi lozim bo‘lgan ta’riflar yuzasidan quyoshjonni “porlatish” topshirilishi mumkin. Bunda o‘quvchilar mustaqil izlanishlari bilan birgalikda obraz haqida o‘ylab ko‘rishlari ham nazarda tutiladi.

Masalan: Shum bola qanday obraz?




Tafakkur gulshani didaktik o‘yini

Dars so‘ngida "Tafakkur gulshani" didaktik o‘yini savol-javob tariqasida tashkil etiladi. O‘quvchilar javoblarini yozma taqdim etadilar. Bu o‘yin adabiyot, tarix, geografiya singari fanlarda, takrorlash darslarida juda qo‘l keladi. Mavzu yuzasidan olib boriladigan bahslar so‘ngida o‘quvchilarning umumiy fikrlari jamlanadi va har bir guruh jamlangan fikrlarini yozib umimiy bitta fikr aytadi. Umumlashtirilgan javobdan hosil bo‘lgan oxirgi xulosa tafakkur gulshani sifatida taqdim etiladi. Bunda har bir o‘quvchining fikrlari inobatga olinishi lozim guruh sardorlari kim qaysi fikrni aytib o‘tganligini eslatib, xulosa fikrni taqdim qiladi.

Vagonchalar didaktik o‘yini

Insonlar har doim yangilikka o‘ch bo‘lishadi. Jumladan, o‘quvchilar ham. O‘quvchilarga taqdim qilinayotgan ushbu o‘yin ularni qiziqishlarini ham hisobga olgan. Har bir o‘quvchi o‘zining “vagon”lariga minib olishadi va vagonlarida yuklangan vazifalarni bajarishadi. Bu o‘yinni o‘tkazish sinf va mavzu tanlamaydi: har qanday sinflarda va har qanday mavzularda o‘tkazilaveriladi.

Shuni unutmaslik kerakki, vagonlar asosida guruhlariga bo‘lingan o‘quvchilar berilayotgan vazifalarga birgalashib javob berishlari lozim.



Aralash test didaktik o‘yini

Bu o‘yin mashg‘ulotni o‘tkazish uchun kompyuter va ekran bo‘lishi lozim. Agar kompyuter va ekran bo‘lmagan holatda yozuv taxtasiga yozish mumkin. Ekraning bir tomoniga maxsus savollar yoziladi. Ikkinchi tomoniga aralash holda javoblar yoziladi. Agar savollar qatoridan bir savol olib qo‘yilsa, ikkinchi tomondan uning javobini ham olib tashlash lozim bo‘ladi. Oxirida hamma savollarga javob topilgach muhokamaga o‘tish tavsiya qilinadi. Ko‘rinishi quyidagicha:

1. Ega nima?
2. Kesim nama?
3. Aniqlovchi nima?
4. Hol nima?
5. Ravish nima?
6. Ot nima?
7. Aniq ot nima?
8. Sifat nima?
9. Asos nima?
10. So‘z nima?

Predmetning belgisi
So‘zning tub ma‘nosi
Predmetning nomi
Kesimning belgisi
Eganing belgisi
Gapning markazi
Tushunchani ifodalovchi birlik
Ko‘rinib turadigan jism
Harakatni bajaruvchi saxs, narsa
Harakatning belgisi


Yozuv taxtasiga javob yozilayotganda javoblarning to‘g‘risiga savollarning raqamlarini ham qo‘yish mumkin.

1. Ega
2. Kesim
3. Aniqlovchi
4. Hol
5. To‘ldiruvchi

kimni? nimani? qanday?
qanaqa?
kim? nima? qayer? nima
qildi? nima bo‘ldi? kimdir?
qachon?
qayerdan? kim bilan? nima
uchun? nega?

Svetafor didaktik o‘yini

Deylik, bironta mavzu uyga berib yuborilgan. Mavzu yaxshilab o‘qib kelingan. Bunda mavzu yaxshilab mustahkamlanishi lozim. O‘qituvchi tomonidan tayyorlangan uch rangdagi svetafor kartochkalari to‘plangan. O‘quvchilar guruhlariga bo‘linadi va o‘zaro bahs olib borishadi. Ularga savol berish natijasida aniqlangan baholar o‘rniga: “5” ga yashil, “4”ga sariq, “3”ga qizil kartochkalar berib boriladi. Dars oxirlashgach hamma svetaforlar yasashadi. Qaysi guruh svetafori to‘liq bo‘lmay qolsa, yoki



biron rang ortib qolsa, shu baholarni to‘rtga qo‘shib baholar soniga bo‘linadi va o‘tracha bahosi qo‘yiladi. Bu usulda dars o‘tish bolalarni qiziqtirish bilan birgalikda o‘quvchilarni erkin ijodkorlikka ham o‘rgatadi. Masalan:

Guruhda to‘rtta svetafor yasaldi, ikkita rang-sariq va yashil ortib qoldi. Bular 4 va 5 baholardir. Ikkisini qo‘shib ikkiga bo‘lsak, to‘rt yarim bo‘ladi. O‘quvchilar darsda yaxshi qatnashgan bo‘lsa 5 baho qo‘yish mumkin bo‘ladi.


Xotira tezligi didaktik o‘yini

Bu didaktik o‘yin asosan o‘quvchilarni xotirasini sinash maqsadida o‘tkaziladi. Bunda ular tezlik bilan javob berishlari lozim. Turli savollar tezlik bilan beriladi. Bir soniya ichida javob berishlari shart. Bir soniya ichida javob bera olmasa, keyingi savolga o‘tib ketilaveriladi. Savollar oddiy, o‘quvchi uchun tushunarli, kundalik ehtiyojlardan kelib chiqqan holda tuzilishi tavsiya etiladi. Masalan:

1. Mening ismim?
2. Men tanlagan kasb?
3. Mening burjum?
4. Mening do‘stim?
5. Mening ustozim?
6. Men sevgan kitob?
7. Men sevgan adib?...


Fan quyoshi didaktik o‘yini (Baholash)

Yozuv taxtasiga chizib qo‘yilgan quyosh rasmlari bu o‘yinni shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Guruhlarda ishlash jarayonida ularga berilgan topshiriqlarni chiziqchalar orqali baholash juda yaxshi samara beradi. Deylik, sinf o‘quvchilaridan tuzilgan mikro guruhlar javoblariga qarab “Fan quyoshi” nur sochishi mumkin. Quyosh rasmining nurlari o‘quvchilar berayotgan javoblar bilan bog‘liqdir. Demak, qaysi mikro guruh yaxshi, yoki to‘liq javob bersa, o‘sha guruhning fan quyoshi o‘zgacha nur “sochadi”. Har bir to‘g‘ri javob uchun quyosh nurlari ko‘payish o‘rniga uzunlashib boradi. Eng uzun nur yaratgan mikro guruh g‘olib hisoblanadi.




Xotira mashqi didaktik o‘yini


Dastlab sinf o‘quvchilari bir necha mikro guruhlarga bo‘linishi lozim. Birinchi mikro guruhdagi o‘quvchilar orasidan bitta o‘quvchi tanlab olinadi va ikkinchi guruh o‘quvchilari o‘zlarini turli hatti-harakatlari bilan uni chalg‘itishadi. 4-5 nafar ishtirokchilar turli hatti-harakat qilganlaridan keyin birinchi guruh ishtirokchisi ularni qaytarib, ko‘rsatib berishi lozim. Masalan, ikkinchi guruh ishtirokchilaridan biri qo‘llarini ko‘tarib tushirishi, ikkinchisi boshini qimirlatib, yo‘talib olishi, uchinchi ishtirokchi esa, kitoblarini bir-bir varoqlab olishi mumkin, to‘rtinchi ishtirokchi doskaga chiqib nimanidir yozib, keyin joyiga borib o‘tirishi lozim. Shundan so‘ng birinchi mikro guruhdan tanlab olingan 1-a‘zo ikkinchi guruhdagi yuqorida keltirilgan 4 nafar o‘quvchini hatti-harakatini takrorlab beradi. Agar harakatlar to‘g‘ri topilsa, a’lo baho oladi. Bu mashq bilan o‘quvchilarni qiziqishlarini oshirish bilan birgalikda xotirasini ham mustahkamlaydi. Bu o‘yinni o‘quvchilar zerikib qolishganida darsga jalb qilish maqsadida o‘tkazish o‘rinlidir.




1- ishtirokchi




2- ishtirokchi



3- ishtirokchi



4- ishtirokchi




5- ishtirokchi

Xotira mashqi-2 didaktik o'yini

Bu o'yinni o'tkazish uchun 6-7 ta stollar kerak bo'ladi, yoki ularni o'rnini bosuvchi 6-7 ta buyum kerak. O'yinni boshlashdan avval bu o'yin shartlari aytib o'tiladi. Shartga ko'ra, 6-7 ta stollar orasidan bir o'quvchi (qo'mondon) aylanib, qaytib, sakrab o'tishi mumkin.

Undan so'ng ikkinchi ishtirokchi (razvetkachi) birinchi ishtirokchi (qo'mondon) bosib o'tgan yo'ldan adashmasdan o'tishi kerak. Bu o'yinning ikkinchi nomi "razvetkachi" deb ham nomlanadi. Bunda qo'mondon bosib o'tgan yo'lni u hududdan chiqib ketganidan so'ng eslab qolib razvetkachi ham shu yo'lni adashmasdan bosib o'tishi nazarda tutilgan. Bunda o'quvchilarning xotirasi mustahkamlanadi va shu asnoda o'quvchilarning qiziqi. Uning ko'rinishi quyidagicha deb hisoblash mumkin:



Ertak tuzish didaktik o‘yini

Har bir bob tugagandan keyin ona tili, tarix, geografiya, matematika darslarida ertak aytish ananasini shakllantirish maqsadli bo‘ladi. Ananaviy ertaklarimizda voqeliklar asosan insonlar hayoti bilan bog‘liq bo‘ladi. Bizning ertagimizda esa voqeliklar mavzu yuzasidan bo‘ladi. Ya’ni o‘tilgan mavzu ertak sifatida aytib berishi lozim. Bu o‘yin o‘quvchilarning ma’lumotlarni xotirasida yaxshi saqlab qolishlariga qaratilgan. Masalan:

Bir otaning ikki o‘g‘li bor ekan kattasining ismi Asliy sifat, kichigining ismi Nisbiy sifat ekan. Garchi ikkalasi aka-uka ya’ni sifatning farzandlari bo‘lsa-da, har birining o‘ziga xos tomoni bor ekan. Asliy sifatning o‘ziga xos tomonlari bo‘lib odamlar ularni ajratishi juda oson ekan. Nisbiy sifatning ham o‘ziga xos tomonlari bor ekan. Asliy sifat Nisbiy sifatga qaraganda darajalana olishi bilan farq qilib turar ekan...

Asosdosh so‘zlarni top didaktik o‘yini

Qo‘shimchalar, yoki asos mavzulari o‘tilayotganda samarasi katta bo‘ladi. Yozuv taxtasiga bitta asos yozib qo‘yiladi shu asosga kim ko‘p so‘z topish vazifasi beriladi. Berilgan vazifa bo‘yicha eng ko‘p so‘z topgan guruh yoki o‘quvchi baholanadi. Bunda o‘quvchilarning so‘zlarni asos va qo‘shimchalarga ajrata olish qobiliyati baholanadi. Adashib yozilib ketilgan asosdosh bo‘lmagan so‘zlar o‘yin oxirida izohlanadi va sabablari ko‘rsatiladi.




Masalan: suvoq va suvarak so‘zlari suv so‘zidan yasalmagan.

Kelishiklar didaktik o'yini

Bu o'yinda kelishik qo'shimchalari aytilsa, ularning nomi to'g'ri topilishi lozim. Kelishik nomlari aytilsa, ularning qo'shimchalari to'g'ri topilishi kerak.

Kelishiklar mavzusi o'tilayotganda har bir kelishik shakllarini yuzaga keltiradigan kelishik bosh kelishik ekanligi aytilib, qolgan kelishiklar bosh kelishikdan keyin kelishi nazarda tutiladi. Kelishiklar va uning qo'shimchalari yuzasidan bo'ladigan savol-javoblar quyidagi jadvallar asosida yuzaga keladi. Rasmlar bilan ishlash o'quvchilar ongiga tez ta'sir etibgina qolmay, balki ularning eslab qolish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Yashirin holatda kelgan kelishiklarni topish ham bu o'yinni qiziqarli tus olishiga xizmat qiladi. Kelishiklar tartibini va qo'shimchalari tartibini yod olib, savol-javob tarzida mustahkamlanadi.



Harflar didaktik o'yini

Bu o'yinni qo'llash uchun bitta harf tanlab olinadi. Tanlab olingan harfga so'z topish mashqi beriladi, topilgan har bir juft so'zning oxirgi va bosh harfi bir xil bo'lmog'i lozim. Shartga ko'ra topilishi lozim bo'lgan so'zlar fanlar yuzasidan bo'lishini inobatga olsak,


O'yinni o'ynash tartibi quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

K	A	K	L	I	K
E					E
R					S
A					A
K	E	M	T	I	K

A	S	R	O	R	A
Z					D
I					I
Z					B
A	S	L	I	Y	A

Baliq ovi didaktik o'yini

Bunda sinfda tashkil etilgan maxsus quti yordamida o'yin o'tkaziladi. Quti ichiga oldindan tayyorlanib, konvertlarga joylashtirilgan savollar va temir bo'lakchalari (qistirgich) joylashtirib qo'yiladi. Bolalarga qiziqarli bo'lishi uchun qarmoq ham yasaladi va qarmoq uchiga magnit yopishtirib qo'yiladi. Qarmoq yordamida uzoqda turgan quti ichidan baliq (savol yozilgan konvert) tutiladi va tutilgan baliqni javobini topgan o'quvchilar baholanadi. Savollar yangi yoki o'tilgan mavzuga mos bo'lishi lozim. Javob topilmay qolgan vaqtlarda savol guruhga berilib muhokama qilinadi. O'yinni qisqaroq vaqtda o'tkazish yaxshi, aks holda, o'quvchilar zerikib qolishlari mumkin.



Oq terakmi, ko‘k terak didaktik o‘yini

Bizga ma'lumki, xalqimizda azaldan mavjud bo'lgan "Oqterakmi, ko'k terak" milliy xalq o'yini bor. Bu o'yinni ko'pchilik yoshligida o'ynashgan. Biz bu o'yinni fanda qo'llab ko'rmoqchimiz. Sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi. Odatga ko'ra "Oqterakmi, ko'k terak, bizdan sizga kim kerak" deydi birinchi guruh. Ikkinchi guruh biron ishtirokchini ismini aytadi. Savol aytilgan ishtirokchiga ikkinchi guruh tomonidan beriladi. Savolga javob bera olsa, o'z guruhida qoladi. Javob bera olmasa, ikkinchi guruhga qo'shiladi. Qaysi guruh birinchi guruhdan ikki barabar ko'p bo'lib qolsa, osha guruh g'olib hisoblanadi. Baholar ishtirok etishga qarab qo'yiladi: savol berganlarga 1 balldan, ikkinchi guruh azosini chaqirib olishga majbur qilganlarga 2 balldan beriladi.

Asirga olish didaktik o‘yini

Sinf o'quvchilaridan 8 nafari ishtirok etishi mumkin. 8 nafar o'quvchini to'rttadan qilib ikki mikro guruhga bo'lamiz. Ikki guruh a'zolari bir-birlariga qarab turib olishadi. O'yin shartiga ko'ra birinchi guruhning birinchi a'zosi ikkinchi guruhning birinchi a'zosiga savol beradi (topshiriq, test, bir so'zning sinonimini so'rash kabi). Agar savolga to'g'ri javob bersa, javob bergan o'quvchi savol bergan o'quvchiga savol beradi. Savolga noto'g'ri javob bersa, to'g'ri variantni savol bergan o'quvchi aytadi va javob bera olmagan o'quvchini asirga olib, o'z guruhiga qo'shib oladi. O'yin shu tariqa davom etadi. 10 daqiqadan keyin qaysi mikro guruhning asirlari ko'p bo'lsa, o'sha guruh g'olib bo'ladi. Bu o'yinni barcha fanlarda darslarning mustahkamlash qismida ishlatish mumkin.

Kamalak didaktik o‘yini

Adabiyot, tarix, geografiya, biologiya darslarida ko'proq qo'llash samarali bo'lgan bu o'yinni o'tkazish uchun yangi o'tilgan yoki takrorlanayotgan mavzu haqida fikr yuritiladi. Ona tili darslarida esa tahlil qilish uchun ishlatiladi. Bu o'yin asosan 5,6,7,8 bosqichgacha bo'lishi mumkin (qaysi sinf o'quvchisi ekanligiga bog'liq). Asar tahlili darsida:

1- qahramonlarning o'xshash jihatlari;

- 2- davr muhitining ta'siri;
- 3- ijodkorning yondashuvi;
- 4- vaqealarning haqiqatga yaqinligi;
- 5- boshqa asarlarga o'xshash jihatlari;
- 6- bugungi kundagi ahamiyati;
- 7- siz o'sha davrda bo'lib qolsangiz;
- 8- eng qiziqarli nuqtasi.



Deylik, har bir savol tagidagi ranglar har xil. Ularni to'g'ri topib kamalak hosil qilinsa, g'olib aniqlanadi.

Ona tili darslarida tahlillar qilinayotganda berilishi mumkin bo'lgan kamalak ranglari:

- 1- mustaqil so'z turkumlarini toping;
- 2- yasama so'zlarni aniqlang;
- 3- yordamchi so'zlarni toping;
- 4- bosh bo'laklarni aniqlang;
- 5- ikkinchi darajali bo'laklarni toping;
- 6- gapning qaysi turi ekanligiga izoh bering.

Kamalak o'yini orqali takrorlash darslari juda chuqurlashib ketadi. Shu boisdan, savollarni soddaroq tuzilishi maqsadlidir. Bu o'yin takrorlash darslarida ko'proq samara berib qiyoslash metodiga yaqin turadi. Balki qiyoslash metodini boshqacha shakli deyish ham mumkin. Bu o'yinni qiyoslash metodidan farqi ko'rgazmalilik asosida va o'yin tarzida o'tishidir.

Qarsaklar didaktik o'yini

Bu didaktik o'yinni ishga solish uchun dastlab ishtirokchilar tanlab olinadi. Bunda besh nafardan o'n ikki nafargacha ishtirokchi qatnashishlari mumkin. Didaktik o'yinni o'tkazish uchun eng qulay bo'lgan guruh bu 7 nafardan iborat mikro guruh hisoblanadi. Garchi bu metodika juda soddako'rinsa-da, aslida bola ongini rivojlantiradi, topqirlikni shakllantiradi, xotirani mustahkamlaydi, natijaga erishish

ko'nikmasini vujudga keltiradi. O'yinni o'ynash uchun ishtirokchilar aylana tarzida turib olishlari lozim. So'ngra bir-birlariga qo'llarini berishib birinchi ishtirokchi ikkinchisining qo'lga qarsak urishi uchun imkoniyat yaratiladi. Uning sharti shunda-ki, bir ishtirokchi aytgan manbani ikkinchisi qaytarmasligi, 3 soniya vaqt ichida mavzuga tegishli bo'lgan manbani aytishi lozim. Aks holatda ishtirokchilar safidan chiqib ketishadi.

Metodik o'yin 7 kishilik guruhda bo'layotganda baholash tizimi quyidagicha bo'lsa maqsadga muvofiqdir. 1-bo'lib chiqib ketgan ishtirokchi baholanmaydi, ikkinchi va uchunchi bo'lib chiqib ketgan ishtirokchi 3 ball, to'rtinchi va bechinchi bo'lib chiqib ketgan ishtirokchilar 4 ball, oxirida qolgan oltinchi va yettinchi ishtirokchilarga esa 5 ball qo'yish tavsiya etiladi. O'yinning qiziqroq bo'lishi uchun yoki rag'batlantirishning ajoyib eski usuli ham samaralidir. Masalan, ikkita 5 ballga da'vo qilayotganlarning ham musobaqalashtirib, ular orasida oxirida qolib ketgan ishtirokchiga(g'olibga) "yulduzchali" 5 ball qo'yish mumkin.

Rasmi boshqatirma didaktik o'yini

Bunda biror rasm tanlab olinadi. Tanlab olingan rasmlardan biri yozuv taxtasiga ilib qo'yiladi va topshiriq beriladi. O'quvchilar rasm asosida so'zlar topishi lozim. Topilgan so'zlarning miqdoriga qarab baholanadi.

Masalan:

daraxt

Inson

Yashil

Rang

Havo

Quyosh

Shox

Keksalik

Qiz

Yigit

Qora



Ko'z

Quloq

Burun

O'y

Qizil

Qosh

Fikr

Sariq

Lab

Muhabbat

Issiq...

Rasmi boshqotirma didaktik o'yini tarixiy faktlarga asoslanib tarix darslarida, geografik xaritalarga asoslanib geografiya darslarida, ingliz tili so'zlarini topshish orqali ingliz tili darslarida ham keng va samarali o'tkazish mumkin. O'yin davomida eng ko'p ma'lumot topa olgan yoki so'z ayta olgan (yozgan) o'quvchilar yuqori baho oladi.

Qirol sherga yordam didaktik o'yini

Hayvonlar bilan ularning shohi – sher uzoq sayohatga chiqishibdi. Ular rosa yo'l yurib qarashsa, sherdan ancha uzoqda qolib ketishgan ekan. Aziz o'quvchilar, sizlarning ko'magingizda boshqa hayvonlarni sherga yetkazib berishimiz lozim. Bunda siz mening savollarimga javob bersangiz bitta hayvonni uning yoniga olib kelish imkoniga ega bo'lasiz. Sher atrofiga kim ko'p hayvonlarni olib borsalar shu o'quvchi yuqori baho oladi.



Zinapoya didaktik o'yini

Zinapoya o'yinini o'tkazish juda oson bo'lib, unda oddiy bir turkmdagi so'zlarni ketma-ket yozib chiqiladi. O'yin sharti shundan iboratki, dastlab ikki harf ishtirokida tuzilgan so'z keyinchalik uchta, keyin to'rtta, keyin beshta va undan ko'p bo'lishi lozim. So'z harflari qanchalik ko'p bo'lib borsa, shunchalik murakkablashib boraveradi.

Masalan, ot so'z turkumiga:

OT
ONA
BOLA
KOMIL
SHOHIDA
BAHOROY
SIRDARYO
SARDORBЕК
ABDULAZIZ
AYIQPOLVON
YUMRONQOZIQ
Sifat so‘z turkumiga:
OQ
KO‘K
QORA
SARIQ
BEBAHO
SERJ AHL
KATTAROQ
TEZYURAR
QIZIQARLI
SERHARAKAT
BALANDPARVOZ
Tarix darsiga:
UD
YOY
QUVA
SOPOL
MIXXAT
SHOSHKENT
NAPALYON
CHINGIZXON
SOHIBQIRON


Rasm chizaman didaktik o‘yini

Sinf o‘quvchilari ma’lum bir mavzu yuzasidan rasm chizishadi. Rasmda mavzu yuzasidan beriladigan bilimlar aks etib turishi kerak. Aytaylik, tarix darsida kimdir gul rasmini chizib, yaproqlariga tarixiy faktlarni yozib qo‘yishi mumkin. Kimdir mashina chizib turli qismlariga faktlarni, mavzuni yoritish uchun rejalarni yozib chiqishi mumkin.

Masalan: Mustaqil so‘z turkumlarini ifodalovchi rasmlar chizish topshiriladi. Rasmdagi detallar so‘z turkumlarini yoki o‘tilgan mavzuni asoslab turishi lozim:

mustaqil so‘zlar odami

mustaqil so‘zlar yulduzi



Harakatli diktant didaktik o‘yini

O‘tilgan mavzularning har biri uchun qo‘lay bo‘lgan bu metodik o‘yin, asosan, o‘quvchilarning yozma nutqini tekshirishga qaratilgan. Bundan tashqari matn tuzishlariga ham asos bo‘ladi. O‘qituvchi “Boshlang” degandan “To‘xtating” teguniga qadar vaqt oralig‘ini bayon etish lozim. Har bir ishtirokchi o‘ziga xos so‘zlar ishlatib yozishi mumkin bo‘lgan bu o‘yin quyidagicha amalga oshiriladi:

O‘qituvchi turli harakatlar qilishi mumkin: yozuv taxtasiga biron nimani yozishi, derazaning oldiga borishi, gullarga suv quyishi, stentlarni kuzatishi va o‘qishi, biror o‘quvchining daftarini tekshirishi mumkin. O‘quvchilar mana shu holatlarni kuzatib diktant yozib chiqishlari kerak.

Yozilgan diktantlarni o‘qib berib, baho oladilar. Bunda asosan o‘quvchilarning so‘z ishlatish san’atlari bilan matnni to‘g‘ri tuzish san’ati baholanadi. O‘qilgan matnlar orasidan mavzuga tegishli tushunchalar ajratilishi ham mumkin. (Harakatli diktant yozdirish uchun 3 daqiqa yetarli bo‘ladi). Harakatli diktant o‘yini og‘zaki ham o‘tkazish mumkin.

Omadi savollar kvadrati didaktik o‘yini

Har bir kvadratga savollar yozilgan bo‘ladi. Ularning ranglari ham har xil bo‘lishi lozim. Kvadratlarning yarmi baholar yarmi savollar bilan to‘ldirilgan va ular bekitib qo‘yilgan bo‘ladi. O‘quvchi tanlagan kvadrat baho chiqsa omadi kulib shu bahoni oladi. Savol chiqsa, savolga javob berib shu bahoni oladi. Kvadratlardan birini bitta o‘quvchi ikki matra tanlash imkoniyatiga ega. Mavjud baholar qo‘shilib ikkiga bo‘linadi va o‘rtachasi qo‘yiladi. Aytaylik, birinchi tanlangan vaqtda 4 baho chiqdi, ikkinchi tanlanganda savol tushsa, savol+4 qo‘shib ikkiga bo‘linadi va baho sifatida qo‘yiladi. Ikki marta savol yoki ikki marta baho chiqishi ham mumkin.

Birinchi bilimdon didaktik o‘yini

O‘qituvchi sinf o‘quvchilarini hisobga olib maxsus konvertlar tayyorlab qo‘yadi. Bu konvertlarda turli she‘rlardan parcha, to‘rtlik yoki maqollar so‘zlarini aralashtirib yozib qo‘yishi mumkin. Konvertlar tarqatilgan o‘quvchilar orasida kim to‘g‘ri va birinchi bo‘lib she‘rni yoki maqolni tiklab aytib bersa, g‘olib o‘sha o‘quvchi sanaladi.




O‘yinni barcha fanlarda bemaol ishlatish mumkin. Konvertga qirqib solib qo‘yilgan matn qaysi mavzuga aloqador bo‘lsa, o‘sha fan egasi qo‘llaydigan birinchi bilimdon didaktik o‘yini hosil bo‘laveradi. Tarix darslarida tarixiy faktlar, fizika darslarida fizik ma’lumotlar joylashtirilishi kerak.

Payvand didaktik o‘yini

Bu didaktik o‘yinni o‘tkazish uchun biologiya, tabiat fanlarini yaxshi bilish kerak. Bizga ma’lumki, payvand asosiy novdadan o‘rib chiqadi. Masalan, olma daraxtiga behi, gilos, nok kabi mevalarni payvand qilish mumkin.

Ona tili fanida bu o‘yinni ishlatish uchun biror turkumga aloqador so‘z tanlanib, yozuv taxtasiga chizilgan daraxtga yozib qo‘yiladi. Keyin o‘quvchilar shu turkumga aloqador so‘zlarni asosiy so‘zga payvand qilishadi.

Biologiya, tabiat, tarix, ximyo darslarida ham payvandlash o‘yinini o‘tkazish yaxshi samara beradi.



Yashirilgan so‘z didaktik o‘yini

Bir o‘quvchi chiqariladi. O‘quvchi bir so‘zni qog‘ozga yozib, o‘qituvchiga topshiradi. O‘qituvchi u so‘zni maqullagach, musoboqa boshlanadi. Yashiringan so‘z haqidagi xohlagan savolini o‘quvchilar berishlari mumkin. So‘z yashirgan o‘quvchi savollarga to‘g‘ri javob berib turadi. Bu o‘yin ha yoki yo‘q o‘yidan salgina farq qiladi: javoblarni topishda savollarga boshqa so‘zlarni ishlatib ham javob berish mumkin.

Masalan, **XXXXX** so‘z yashiringan deylik.

Topish uchun savol: mustaqil so‘z turkumimi? –Ha. Belgini ifodalaydimi? –Yo‘q. Ot so‘z turkumimi? –Ha. Aniq otmi? –Ha. Turdosh otmi? –Yo‘q. Aniq otmi? –Ha. Nechta harfdan iborat? –3 ta. Nchta unli? –1 ta. Sinonimi nima? –Oyi. Javob: **ona**. To‘g‘ri.

So‘zni to‘g‘ri toping didaktik o‘yini

Bir xil harflar tengligiga ega bo‘lgan so‘zlar beriladi. Masalan 4 harfdan tashkil topgan 15 ta so‘z aytiladi yoki yoziladi. Sharti shundaki hamma so‘zlarning harflari aralashtirib yuborilgan bo‘ladi. O‘quvchilar harflarni joyiga qo‘yib so‘zlarni tiklab chiqishlari kerak. Masalan:

DOAB – BODA
LIMO – OLIM
OZYI – ZIYO
KKO‘R –KO‘RK
OTAG‘ –TOG‘A
IRAD – ADIR ...

Bu o‘yinni barcha fanlarda ishlatish mumkin, boshqa fanlarda ishlatilganida, o‘sha fan doirasidagi terminlarni topish vazifasi berilishi tavsiya etiladi. Bunda o‘quvchilar fanni nechog‘lik bilishlari bilan bir qatorda idrok va xotira ham mustahkamlanadi.

Qadamma-qadam didaktik o‘yini

Bu didaktik o‘yinda uch-besh kishi ishtirok etishlari mumkin. O‘quvchilar bir qator bo‘lib turib olishadi. Savollar hammaga bir xil beriladi. Savolning javobini berishgandan so‘ng to‘g‘ri javob aytiladi. Bir kishi bergan javobni boshqalar ham qaytarishlari mumkin. To‘g‘ri javobni bilib olishgach to‘g‘ri javob bergan o‘quvchilar bir qadam oldinga chiqishadi. Bir qadam oldinga chiqqan o‘quvchi bir ballni qo‘lga kiritadi o‘yin oxirida oldinlab ketgan o‘quvchilarga yuqori baho qo‘yiladi. O‘yinni barcha fan o‘qituvchilari o‘tkazishi mumkin. Bu savol-javobning qiziqarli usuli hisoblanadi.

Adabiy tahlil didaktik o‘yini

Badiiy asarni tahlil qilish ilgarigi kunlarga nisbatan bugun ancha susaydi. Buning sababi tahlil qilinishi lozim bo‘lgan masalalar ko‘pligidan deb o‘ylaymiz. Ammo badiiy adabiyot, uning serjilo xususiyatlari sira



pasaymaydi. Shu sababli asarlarga murojaat qilish bizlar uchun odatiy bir holdir. Maktab o‘quvchilariga o‘qish uchun berib yuborilgan asarni tahlil qilishning bu turdagi usuli quyidagicha amalga oshiriladi:

O‘quvchilar turli guruhlariga bo‘linib olishadi. Har bir guruh

asarning voqeligidan kelib chiqqan holda nomlanadi. Masalan: Tilshunoslar, Tarixchilar, Insonparvarlar, Tanqidchilar, Siyosatshunoslar, Tibbiyotchilar, Iqtisodchilar, Etnograflar va boshqalar.

O‘quvchilar berilgan asarni guruh nomlariga ko‘ra tahlil qiladilar: Asardagi ko‘chirma gaplarni, iboralarni, bolalar tilini, so‘z ishlatilish san‘atini tilshunoslar guruhi tahlil etsalar, asardagi tarixiy shaxslarni, davr muhitini tarixchilar; pullarni, ishlab chiqarishni, texnikaning rivojlanishini iqtisodchilar tahlil ostiga olishadi. Agar mavzu mana shu tarzda tahlil etilsa, ham keng qamrovli tahlil bo‘ladi, ham o‘quvchilarning eslarida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Topoloq didaktik o‘yini

Topoloq o‘yini ona tili darslarida o‘quvchilarni ijodkorlikka undaydi. Bunda har bir o‘quvchi mustaqil topshiriqni bajarishadi. Bir vaqtning o‘zida hamma o‘quvchilar ishlashlari mumkin. Yoki uch-to‘rt kishi ishlashlari ham mumkin. O‘yin sharti shundan iboratki, o‘qituvchi tomonidan maxsus jadval chizib qo‘yiladi. Jadvalda turli hatflar yozilgan bo‘ladi. Shu harflardan o‘tilgan mavzuga doir so‘zlar tuzishi kerak. Tuzilgan so‘zlarning miqdori ko‘pligiga qarab o‘quvchilar baholanadi.

A	K	J	R
U	S	N	D
I	B	Q	L

Ot mavzusi o‘tilganda ot so‘z turkumiga tegishli so‘zlar tuzilishi maqsadga muvofiq. Sifat o‘tilganda sifatga, fe‘l o‘tilganda fe‘lga tuziladi. Shuni unutmaslik kerakki bir harf bitta so‘zda bir marta ishlatiladi. Lozim topilgan holatda tuzilgan so‘zlardan gaplar yaratishlari ham mumkin. Bunda tuzilgan gaplar bir biriga bog‘lanishligi lozim. Yoki boshqacharoq usulda ishlatish ham mumkin. Tuzilgan so‘zlardan ma‘noli bitta gap hosil qilish lozim. So‘zlar turli xil bo‘lganligi sababli gap tuzish bir ozgina qiyinchilik tug‘diradi. Baholash ham shunga yarasha bo‘ladi. Masalan,

yuqoridagi jadval asosida quyidagi ot soʻz turkumiga tegishli soʻzlarni yasash mumkin: uka, dil, raqs, rais, Ural... (juda, kal, bu, buni kabi soʻzlar kirmaydi chunki, bu soʻzlar boshqa turkumga xos).

Alifbo didaktik oʻyini

Alifboni oʻrgatish 1-sinf danoq boshlanadi, biroq yuqorigi sinflarda batamom qaytarilmaydi. Binobarin oliy oʻquv yurtiga kiruvchilar uchun beriladigan testlarda ham alifbodan savollar tuzilgan. Shu tufayli 5-sinflarda quyidagi oʻyinni oʻtkazish maqsadlidir. Yana bir asosimiz, qoloq yoki sust oʻzlashtiruvchi oʻquvchilar bilan ishlashda ham, baholashda ham qoʻl keladi.

Maxsus kataklarga alifbo tartibida kelgan soʻzlar bekitiladi. Sust oʻzlashtiruvchi oʻquvchilarga qaysi soʻz yashiringanligini topish vazifasi beriladi. Vazifani aʼlo darajada bajargan oʻquvchiga murakkabroq topshirish berish mumkin. Oʻyin shakli quyidagicha:

2	8	11	8	12	8	12	24	14
12	20	11	24	1	12	20	18	19


Charxpalak bilimdoni didaktik oʻyini

Oʻyinlar ijodkorlikdan tashqari tezlik va topqirlikni ham talab qiladi. Shunday didaktik oʻyinlardan yana biri charxpalak bilimdoni oʻyini. Dastlab oʻquvchilar guruhlariga boʻlinadi, keyin navbatma-navbat savol beriladi javob bergan oʻquvchi savol berish imkonini qoʻlga kiritadi. Javob bera olmagan oʻquvchi joyiga oʻtiradi. Oxirida qolgan oʻquvchilar baholanadi.

Quti ichida qutilar didaktik oʻyini

Bu oʻyin darsni tashkil etish uchun 5 dona kata-kichik qutilar kerak boʻladi. Eng katta quti ichiga kichikroq qutini, uni ichiga undan kichikrogʻini, eng ichiga eng kichkinasini solib qoʻyamiz. Savollar ham quti ichiga kirishi bilan murakkablashib boradi. Eng ichkaridagi qutining

savoli ancha murakkab bo‘lib, undan foydalanish faqat liderlarga xos bo‘lishi nazarda tutilgan. Sababi shundaki, agar katta quti ishidagi savolga javob bo‘lmasa, uning ichidagi quti savoli o‘qilmaydi va o‘yin shu joyida to‘xtatiladi. Bu o‘yinni o‘ynash uchun o‘quvchilar ko‘proq mikro guruh bo‘lib olishlari lozim. O‘yinning uchinchi qutisiga kelib qolgan bo‘lsa va o‘yin to‘xtatilishi lozim bo‘lsa, bu holatda o‘quvchilar kelib qolgan quti raqamiga mos ravishda ballar qo‘yiladi. Masalan, 3- quti 3 ball.



1-quti 1ball 2-quti 2ball 3-quti 3ball 4-quti 4ball 5-quti 5ball

Qizig‘i shundaki, bu qutilarning har biri bir-birining ichiga joylashtirilgan bo‘ladi va sinf o‘quvchilariga mos tarzda tuzib chiqiladi. O‘yinni o‘tkazilish tartibida o‘z ixtiyori bilan savollarga javob berish mumkin bo‘lgan holatlar ham bo‘ladi. Bunda javob berish uchun chiqqan o‘quvchi o‘z ixtiyori bilan, ya’ni 5 ballni qo‘lga kiritish maqsadida qutilar ichidagi savollarga javob berib ko‘rishi mumkin. Bunda savollar biroz soddalashtiriladi.

O‘yinning asosiy samarasini mikro guruhlarda his qilish oson bo‘ladi.

Mevalar bazmi didaktik o‘yini

O‘quvchilar avval mikro guruhlariga bo‘lib olinadi. Agar 4 guruhga bo‘linishgan bo‘lishsa, yozuv taxtasiga dastlab kattakon daraxt, undan so‘ng esa 4 ta savat rasmi chizib qo‘yiladi. Har bir guruh o‘z mevalarini belgilab olishadi: aytaylik, 1-guruh olmani, 2-guruh behi, 3- guruh nok, 4-guruh shaftolini tanlashdi. Aralash holatda qo‘yilgan mevalar ichidan har bir guruh a’zosi o‘z mevasini borib olishadi va savolga javob berishadi. Agar savollarga javob bera olmasa, mevani qaytarib daraxtga joylashtiradilar. Har bir guruh o‘quvchilari navbatma-navbat chiqishib,

o‘z mevalarini terib olishlari kerak. Mevalar daraxtidagi aralash mevalarning soni har bir guruh uchun teng bo‘lishi lozim.

Bolalar bu o‘yinga qiziqish bilan qaraydi, sababi har bir ochiq qolayotga sovol guruhni bir pog‘ana pastga tushirib qo‘yadi. Javob berilmagan savolni daraxtga ilib ketishgach, keyingi navbati kelgunicha



guruh kutib

o‘tiradi. Qaysi guruh o‘quvchilari birinchi bo‘lib o‘z mevalarini yig‘ib savatchasiga solib bo‘lsa, o‘sha guruh g‘olib bo‘lishadi.

Olma

Behi

Nok

Shaftoli

Ta’rif kim haqida didaktik o‘yini


Bironta asar o‘tilgan bo‘lsa, uning qahramonlariga ta’rif berilishi mumkin. Yoki uzoq o‘tilgan asarlar yuzasidan ham bu o‘yinni o‘tkazish mumkin. O‘yin o‘tkazilishini umumiy yoki guruhlarda tashkil etish kerak. Bir guruh a’zosi bir qahramonga ta’rif beradi. Qolganlar esa bu qahramon kim ekanligini topadi. Topilgan qahramonlar ismini yozib olishadi dars oxirida kim qaysi qahramonni qanday darajada o‘zlashtirganliklarini aniqlab olish mumkin. O‘yinni tarix darslarida tarixiy shaxslarga nisbatan ham qo‘llash mumkin.

Omadli topqirlar didaktik o‘yini

Bu metodik o‘yinni tashkil etish uchun maxsus savollar bo‘lishi lozim. Savollarga javoblar topilgach oldindan tayyorlab qo‘yilgan raqamlar ortidaga harflardan biri tanlanadi. Masalan, 12 raqamini ortida “B” harfi bor deylik. Savolga javob to‘g‘ri topilgach bironta raqam aytiladi va shu raqam ortidagi harf yutuq sifatida taqdim etiladi. Yutuq

sifatida olingan harflarni birlashtirib bironta soʻz tuza olinsa, gʻolib guruh aniqlanadi. Savollar aniq va soddaroq boʻlishi maqsadga muvofiqdir.

Deylik, ot nima? Savoliga javob topildi. Topilgan javob uchun bironta son aytadi siz esa shu son ortidagi harfni savolning javobini aytgan mikro guruhga taqdim qilasiz. Agar savolga javob topilmay qolsa, boshqa mikro guruh harf olishi uchun javob aytishi mumkin. Bunda yutuq javobni topgan guruhga beriladi.



Omadli topqirlar oʻyini jadvali

1- Oʻ	2- U	3-E	4-S	5-A	6-O	7-NG	8-B
9-L	10- M	11-D	12-T	13-Gʻ	14-SH	15-F	16- J
17-Q	18- K	19-R	20-I	21-V	22-CH	23-G	24-N
25-H	26-X	27-Z	28- Y	29-P			

Sheʼr rasmi didaktik oʻyini

Oʻquvchilardan biri bironta sheʼrni yoddan aytadi. Aytilgan tasviriy sheʼrni qolgan oʻquvchilar rasmini chizishadi. Bunda rasm darsi bilan adabiyot uygʻunlashadi. Rasm chizish orqali oʻquvchi oʻzi tasavvur qilgan jarayonni aks ettirib berishadi. Oʻyin oxirida chizgan rasmlarini taqdimot qiladilar. Bunda bolalar oʻgzaki nutqi bilan fikrlash doirasini namoyon etadilar.

Sheʼr rasmi didaktik oʻyini oʻtgazganimizda oʻquvchilar sheʼrni yaxshilab tushunib oladilar va shu yoʻl bilan tahlil etib borishadi.

Huddi shu jarayonni boshqa mavzularda ham qoʻllab, tarixiy qahramonni, voqeani chizishlari ham mumkin.

Antiq krossvord didaktik oʻyini

Bunda mavzuga oid bironta termin tanlab olinadi. Masalan, **sintaksis**. Endi sinf oʻquvchilarini mikro guruhlariga boʻlib, shu terminga tegishli


birorta krasvord tuzishlari topshiriladi krasvord savollarsiz faqat javob bilan bo‘ladi. Masalan: sintaksis

	S	A	O	R				
S	I	N	T	A	K	S	I	S
O	F	T		V	O‘	I	S	O‘
N	A	O		I	M	N	M	Z
	T	N		Sh	A	O		
		I			K	N		
		M			Ch	I		
					I	M		

Asar qahramonlari xarakteri didaktik o‘yini

Bir asar o‘qilgandan keyin undagi qahramonlarni xarakterlariga qarab quyidagi archaga joylashtirib chiqilishi lozim. Salbiy qahramonlarni chap tomonga, ijobiy qahramonlarni o‘ng tomonga xarakter darajasiga ko‘ra joylashtirib chiqish vazifasi topshiriladi. Shuni unutmaslik kerakki, bunda asar qahramonini archaning yuqorigi qismiga qo‘yganligini sababi izohlanadi. Shundagina nima uchun bu qahramonda ijobiy hislatlar yoki salbiy hislatlar ko‘p ekanligi asoslanadi. Bu bilan asarni tahlil qilish bola ongini shakllantirishda muhim omil bo‘lishi kerak.

Aytaylik, “Mehrobdan chayon” asari o‘tildi.



Kim tez topadi didaktik o‘yini

Bu o‘yinni o‘tkazish juda oson bo‘lib kichik sinflarda ko‘proq samara beradi. Deylik, bir atamani olib, undan kim ko‘p so‘z hosil qilish

vazifasini berish mumkin. Bunda kim ko‘p so‘z topishi emas balki oz vaqt ichida kim tezroq va ko‘proq so‘z topishi aytiladi.

Masalan: Sintaksis



Fikrlarni o‘stirish didaktik o‘yini

Kishik varoqchaga bir so‘z yoki gap yozib qo‘yiladi. Gap nima haqida ekanligi aytiladi o‘quvchilar varoqqa nima yozilganligini va nima uchun bunday yozilganligini topishi lozim. Varoqqa nima yozilishi muhim emas, balki yozuv haqidagi fikrlarning keng tarmoqli ekanligi va o‘quvchilarning mustaqil fikrlari muhim sanaladi.

Bir, ikki, manba didaktik o‘yini

O‘quvchilar qator bo‘lib turib olishadi. Galma-galdan mavzu bo‘yicha manbalar aytishadi. O‘quvchilardan biri “1” deydi, keyingisi “2” deydi, undan keyingisi “manba” deb mavzuga tegishli bironta manba (ma’lumot)ni aytadi. Shunday qilib keyingi o‘quvchiga navbat keladi u ham “1” deydi, keyingisi “2” deydi va uchinchi manba keltiradi o‘yin shu tariqa davom etadi kim manba keltira olmasa o‘yinni tark etadi. Bunda har bir o‘quvchidan mavzuni yaxshi o‘zlashtirganligi talab etiladi. Aks holatda baholanishdan mahrum bo‘ladi. Baholash sistemasiga kelsak o‘qituvchi guruhdagi o‘quvchilar soniga qarab oxirigacha ishtirok etgan o‘quvchilarni yuqori baho bilan rag‘batlantiradi.

O‘yindan kutilayotgan natija, o‘quvchilarni sergaklikka chorlashi bilan birgalikda mavzuni mustaqil o‘rganish u haqida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lishini ham ta’minlaydi. Bundan tashqari, har bir o‘quvchi o‘z

ustida ishlaydi va boshqalar fikrini ham kuzatib turadi. Maqullashi ham mumkin aks holatda inkor qilib o'z fikrini ham aytadi. O'yin shartlaridan biri bir manba ikki marta qaytarilmasligi lozim.

Agar o'yinni mikro guruh sardorlari o'rtasida o'tkazilsa, oxirida qolgan guruh sardorigina baholanadi yoki rag'batlantiriladi.

Sayohat didaktik o'yini

Havo shariga minish naqadar rohatbahsh bo'lsa kerak. Agar siz havo sharidan qo'rqmasangiz bu o'yinni o'ynatib ko'ring. Bunda o'quvchilarni ko'proq og'zaki nutqi shakllanadi. Bu o'yinni o'tkazish uchun o'quvchilarni mikro guruhlariga bo'lib olish tavsiya etiladi. Har bir mikro



guruh uchun havo sharlari beriladi va havo sharlariga ismlari yozib qo'yiladi. Yozuv taxtasiga 3-4 bosqichdan iborat shakllar chizib qo'yiladi. Sharga bo'ror, yomg'ir, qor, bulut singari xodisalar tahdid solib turadi qaysi mikro guruh savollarga javob bera olmasa, bu tahdidlardan bir pog'ona pastga tushadi. Agar mikro guruh bir necha bor pastga tushsa, havo shari mag'lubiyatga uchraydi. Savollarga

tez va to'g'ri javob berish talab etiladi. Savollar oldindan tayyorlab qo'yilishi lozim bo'lib, o'yin boshlangach hamma hayajonda turishi lozim.

Velosiped didaktik o'yini

Har bir o'quvchi o'zi qiziqqan narsalar bor bo'lib, o'qituvchi bu narsalarni o'zi bilishi lozim. Kimdir velosipedga, kimdir moshenaga, yana kimdir boshqa narsalarga...

Bu o'yinda har bir o'quvchi alohida olingan savollarga javob beradi. Masalan, bitta savolga javob bergan o'quvchi velosiped qismlaridan birini qo'lga kiritishi mumkin. Ikkinchi savolga ikkinchi qismini shunday qilib

3-4 savolga to'g'ri javob bergan o'quvchi butun boshli velosipedni qo'lga kiritadi. Va o'quvchilar olqishi bilan rag'batlantiriladi. Dars so'ngida berilgan rag'batlar hisobi chiqarilib o'quvchilar oldida maqtaladi. Bu o'yin bilan o'quvchining maqsad sari intilishiga turtki beriladi. Kelajakda ham maqsadlar qo'yib unga intilishga harakat qilish ko'nikmasi shallanadi.



Yoki mashina bo'lishi ham mumkin mashina uchun ko'proq savol kerak bo'ladi. Oddiy narsalar uchun 1-2 ta savol kifoya bo'lsa, mashina yoki aftobus uchun 7-8 tagacha savolga javob berishi lozim.




Gaplar tahlili didaktik o'yini

Bir qaraganda juda oddiy ko'ringan bu usulning dars jarayonidagi samarasi anchagina yaxshi bo'ladi. Biror rasm berilib bu rasm orqali eng chiroyli va ma'noli gap tuzish vazifasi beriladi. Tuzilgan gaplardan saralarini yozuv taxtasiga yozib tahlilga tortish mumkin. Guruhlarga bo'lib vazifa berilganda bir guruh yozgan gapni ikkinchi guruh, ikkinchi guruh yozgan gapni uchinchi guruh tahlil qilishi lozim. O'quvchilarni og'zaki nutqini o'stirishda foydalanish mumkin. Ko'proq holatlarda matnlar ham tuzish mumkin. Bunda qaysi mavzu o'tilgan bo'lsa, mustahkamlash uchun foydalanish yaxshi samara beradi.

Masalan: ravish mavzusini o‘tganimizda sifatdan ajratish uchun foydalanish mumkin.

Kunduz kuni kuchli, qora ot to‘rt g‘ildirakli, chiroyli qizil aravasini qiynalmasdan, tekis ko‘chada asta-sekin tortib ketmoqda.



Savatni gullarga to‘ldir didaktik o‘yini

Bu o‘yinni o‘ynash juda oson. Guruhlarga bo‘lingan sinf o‘quvchilariga har bir guruh uchun alohida savat (quti)lar beriladi turli gullar rasmi chizilgan savollarga javob topish vazifasi aytiladi kim agar savatlarga gullar rasmini birinchi bo‘lib topib aytib bersa, g‘olib hisoblanadi.

Musobaqa tarzidagi bu o‘yinning maqsadi shuki, marra sari intilish har bir o‘quvchiga xos hususiyat bo‘lishi lozim. Bunda o‘quvchilar oldilariga qo‘ygan ulkan maqsadlarga erishish uchun hamma narsalarga tayyor turishi lozimligi uqtiriladi.

Savol-javob o‘yining bu turida har bir o‘quvchi berayotgan javob albatta inobatga olinib, dars so‘ngida umumiy baholanadi.

Ma’noli matn didaktik o‘yini

O‘yinni o‘ynash uchun ikki o‘quvchi yetarli. Guruh bo‘lib o‘ynalsa ham bo‘ladi. Deylik, bir o‘quvchi bir matn tanlaydi. Tanlangan matn mavzusini aytadi va mavzu yuzasidan tayyorlanishi lozim bo‘lgan matn uchun 1-gapni e‘lon qiladi. Shundan so‘ng o‘yinning asosiy qismi boshlanadi. 2- o‘quvchi mavzu yuzasidan aytilgan 1-gapni davom ettirib, matn to‘ldirishi lozim. Matn 3-4 gapdan iborat bo‘lgach, 1-o‘quvchi chalg‘itish uchun matnga bir gap qo‘shadi. 2- o‘quvchi esa qo‘shilgan

gapga mantiqan to'g'ri tushadigan keyingi gapni aytadi va bir necha gap tuzadi. O'yin shu tariqa og'zaki tarzda davom etadi. Noto'g'ri tuzilgan matnlar o'yin oxirida tahlil qilinadi va o'quvchilar baholanadi.

Quvib yet didaktik o'yini




Bir necha o'quvchilar ketma-ket turgizilib qo'yiladi. Birinchi o'quvchi mavzuga oid bir so'z aytadi, ikkinchisi o'sha so'zni takrorlab, ikkinchi so'zni qo'shib aytadi. Uchinchisi ikki so'zni qaytarib uchinchi so'zni qo'shib aytadi. Xullas, oxirgi o'quvchi yuqorida aytilgan so'zlarni hammasini takrorlab aytib berishi lozim. Kim ayta olmasa, o'yinni tark etadi va qolgan o'quvchilar davom ettiradilar.

Masalan: fe'l → fe'l, ravish. → Fe'l, ravish, olmosh.... →

Svetofor didaktik o'yini



Darslarni samarali va qiziqarli tashkil etish uchun bu metodik o'yinni tashkillashtirish foydadan holi emas. Sababi o'yinni o'tkazish juda oson. Uch rangdagi: qizil, sariq, yashil kartochkalar tayyorlanib olinadi. Ularni ketma ket almashtirilib bir ozdan keyin bitta rang



tanlab olinadi va u rang ko'rsatilmay turiladi. Uch o'quvchi chiqarilib rang tanlaydilar kimdir qizil, kimdir sariq, kimdir yashil. Kimning kartoshkasini rangi chiqsa, shu o'quvchiga maxsus savol beriladi. Javob berilsa o'ynayveradi. Javob berolmay qolsa, o'yindan chiqib ketadi. Oxirida qolgan o'quvchi hatto javob bermagan bo'lsa ham rag'batlantiriladi. Bu usul bilan o'quvchilar nohaq baho olsalar ham qolganlarini qiziqtirish va yangi bilimga undash uchun xizmat qiladi.

Hayratli fakt didaktik o'yini

Har bir o'quvchiga yaqin kunlarda ro'y bergan qisqa faktlar topib kelish vazifasi berib yuboriladi. Faktlarning eskiligi emas, balki

qiziqarliligi inobatga olinishi lozim. Yangilikka o‘ch unsonlar albatta yangiliklar yaratishga moyil bo‘lishadi. Shu tariqa sinfdagi qaysi o‘quvchi yangiliklardan xabardor ekanligini ham bilib olish mumkin.

Yangiliklar aytilgandan keyin o‘quvchilar o‘rtasida ovozga qo‘yiladi. Kimning yangiligiga ko‘proq ovoz berilsa, o‘sha o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. Topilgan yangiliklar tahlil qilinishi ham mumkin. Yozuvda esa yozma savodxonligi ham aniqlanadi. Bu vazifa uyga vazifa bo‘lishi bilan birgalikda sinf uchun ham ajoyib mashq hisoblanadi.

Aylanamiz didaktik o‘yini

Adabiyot darslarida ham, ona tili darslarida ham, tarix, biologiya, kimyo darslarida ham bu o‘yinni keng qo‘llash mumkin. Bu o‘yinni o‘ynash uchun mavzuni ma’lum bosqichlarga bo‘lib olish lozim. Ko‘proq takrorlash darslarida samarasi yuqori bo‘ladi.

Adabiyot darslarida asar qahramonlari sifatida 4-10 nafar o‘quvchi qatnashishi mumkin. Bunda har bir o‘quvchi o‘zlari bir qahramon sifatida ishtirok etadilar. Ya’ni “O‘tgan kunlar” asari o‘tilayotgan bo‘lsa, kimdir Otabek, kimdir Kumush, kimdir Homid, kimdir Zaynab obrazlari bo‘lib olishi lozim. Keyin esa o‘quvchilar aylana bo‘lib turib olishadi hammasi birvarakayiga aylanadi hamda “aylanamiz” deb aytishadi va har bir o‘quvchi o‘zlari yaratayotgan qahramonga aylanishadi. O‘yin boshlanishida har bir o‘quvchi o‘zlari tanlagan qahramonga hos xislatlarni belgilarni munosabatni, xarakterni bilishlari lozim. Aylanish jarayonida bir o‘quvchi yoki o‘qituvchi bir qahramon obrazini aytadi. O‘quvchilar ichidan bu obrazni kim yaratayotgan bo‘lsa, shu o‘quvchi aylananing ichiga kirib o‘zi haqida batafsil ma’lumot beradi. Agar berilgan ma’lumotlarga qoniqilmasa, o‘zi haqiqagi ya’ni o‘zi yaratayotgan obraz haqidagi birorta ma’lumot so‘ralishi ham mumkin. Bunda har bir yaratilayotgan obrazga aynan shu obrazning o‘zi deb qaralishi maqsadlidir.

Masalan, Kumush obrazi aylanib kelib davraga chiqdi, deylik, shunda Kumush obrazini yaratayotgan o‘quvchi “men Kumushman, sochim qora, Andijonlikman, yoshim 18 da, Otabekka bo‘lgan munosabatim qalbimni hamon o‘rtaydi” deyishi mumkin. Agar ma’lumotlar kamlik qilib qolsa,

bironta o‘quvchi (o‘qituvchi) unga savol berishi mumkin masalan: “Kumush opa qo‘shningiz Xomid haqida nimalar bilasiz? Zaynab opa haqida fikr bildira olasizmi?” kabi.

Ta’rif aytilib bo‘lingach yana aylanamiz so‘zini qaytaradi-da, keyingi obrazga navbat beriladi. O‘yin shu tariqa vaqtimizga qarab barcha yoki bir nechta qahramonlarga navbat beriladi. O‘yinda ishtirok etolmay qolgan o‘quvchilar keyingi o‘yinlarda bemalol qatnashishlari ham mumkin. Masalan “Shum bola” asari o‘tilayotganda Otabek va Homid ham ishtirok etishi mumkin. Bu bilan ikki asar o‘rtasidagi munosabatlar ham ochiladi. Qaysidir ma’noda o‘tilgan asar haqida ham ma’lumotlar aytilishi o‘quvchilarni takrorlab turishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Uzum pishdi, boqqa kel didaktik o‘yini

So‘z o‘yinlaridan biri bo‘lgan bu usulda mavzuga tegishli bo‘lgan birorta murakkab so‘z aytiladi shu so‘z asosida turli yangi so‘zlar hosil qilish kerak bo‘ladi. Vazifa o‘ta murakkab bo‘lmasa-da, o‘quvchilarning fikriy savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan:

O‘ZBEKISTONIM

O‘ZBEKISTON

O‘ZBEGIM

O‘ZBEK

O‘ZIM

O‘ZI

O‘Z

O‘

Adashtirdim, topingchi didaktik o‘yini

Adabiyot darslarida ko‘proq samara beradigan bu o‘yinning shartlari quyidagichadir: yozuvchi asarini sinchiklab o‘qilishi, qahramonlarga berilgan tasniflarni yaxshi bilishi, voqealar ketma-ketligini eslab qolish. O‘quvchini fikrlashga undaydigan, bu o‘yinda asar voqealar bayoni chalkashtirib beriladi o‘quvchilar asardagi voqealarni quyidagi chizma bo‘yicha aniqlab to‘ldiradi.


Noto'g'risi	To'g'risi

Asar tahlilida bolalarni mustaqil fikrlashga undash, ularni kelajakda adabiyot faniga qiziqishlarini shakllantirish, xotirasini mustahkamlashga qaratilgan bu o'yinda hammani bir vaqtda baholash imkoniyati mavjud. Har bir o'quvchining javoblarini tahlil qilib, g'oliblar alohida e'lon qilinadi va rag'batlantiriladi.

Aynan shu o'yinni tarixiy faktlarga asoslangan holda tarix darslarida ham ishlatish mumkin.

Tomchi suvda ma'no didaktik o'yini


O'quvchilar mikro guruhlariga bo'linib olishadi va har bir guruhga suv idish berib chiqiladi. Ularga oson savollar beriladi. Bunda har bir mikro guruh javob berish huquqiga ega. Savollarga berilgan javoblar evaziga (javobni nechog'lik to'g'ri ekanligiga qarab) har bir mikro guruhga ma'lum miqdordagi suv beriladi. Har bir guruhning suv idishlaridagi suvlar savol-javob oxirida jamlanib, qaysi guruh ko'p suv yig'ganligini ko'rib chiqib baholanadi. Qaysidir guruh 100 gramm, qaysinisidir 70 gramm yana qaysinisidir 50 gramm suv yig'gan bo'ladi. O'yin oxirida final bosqichi boshlanadi. Bunda oldindan tayyorlab qo'yilgan suvsoat (teshik kichik bakalashka va katta bakalashkalar. Kichigi kattasining ustiga kiygazilib, suv og'zidan tomib turishi lozim), maxsus savollar (savollar qisqa javob talab etiladigan va oson bo'lishi lozim) kerak bo'ladi. Suvsoatga har bir guruh yig'gan suvni o'zlari uchun solib, shu suv tomib tugaguniga qadar berilgan javoblari miqdori bilan belgilanadi. Aytaylik, birinchi guruh 70 gramm suv yig'gan shu suvni suvsoatga quyib, oqib tushguniga qadar savollar berilib turiladi. Berilgan savollarning javoblarini miqdori qo'yiladigan ballarining miqdoriga teng



bo‘ladi. Ya’ni 70 gramm suv tomib tugaganicha 12 ta savolga javob bersa, guruhga 12 ball beriladi. Shu tariqa g‘olib guruh aniqlanadi.

Chaqqon bilimdon didaktik o‘yini

Darsning samarasini oshirish, yoki o‘quvchilarning bilimini mustahkamlashga qaratilgan bu o‘yin darsi adabiyot, tarix fanlarida qo‘llanishi ko‘proq foyda keltiradi. Mikro guruhlar bilan ishlash jarayonida bu usulni qo‘llash lozim. Masalan: uchta mikro guruhga bo‘lingan o‘quvchilarga uch ijodkor (yoki tarixiy shaxs, asar nomi) rasmi berilib ular haqida kim ko‘p ma’lumot keltirishi vazifasi topshiriladi. Har bir ma’lumot aniqligi va to‘g‘riligi bilan hisobga olinadi va albatta ularning miqdori sanaladi. Eng ko‘p ma’lumot bergan guruh g‘olib sanaladi. Bu o‘yinni o‘tgazishda albatta vaqt belgilanishi lozim.



Xotira mashqi-3 didaktik o‘yini

Tilshunoslikka, adabiyotshunoslikka, tarixga, umuman olganda, barcha fanlarga taalluqli terminlar ketma ket yozilib chiqiladi. Har bir termin bitta raqam bilan yashirilgan bo‘lishi lozim. Masalan, 8 raqami ostiga zid ma’noli so‘zlar (antonim) so‘zi, 7 raqamiga ot, 3 raqamiga gap va hakazo. O‘qituvchi har bir raqam ostidagi so‘zlarni unga biriktirilgan sonlar bilan aytadi, masalan: 7 raqamida ot, 3 raqamida gap, deb jadvaldagi hamma sonlarning ta’riflarini keltiradi. So‘ngra javob berishi

lozim bo‘lgan o‘quvchi yoki guruhga yuzlanib qaysi sonni aytsa, shu son tagiga yashiringan termini topishlari kerak. 10 ta sondan nechtasini topa olishiga qarab, mikro guruh yoki yakka o‘quvchi baholanadi.

2	Bobur	9	Fard	16	Uch ildiz
3	Maqol	10	Zulfiya	17	Qissa
4	She‘riyat	11	Chiston	18	Mirtemir
5	G‘azal	12	Qofiya	19	Hikoya
6	Topishmoq	13	Roman	20	O‘zbekim
7	Navoiy	14	Alpomish	21	Oybek
8	Doston	15	O‘zbekiston	22	Turoq

Jadvalni bir fan doirasida tuzish maqsadga muvofiq. Sinflar o‘rtadida tuzilsa, ham yaxshi samara beradi. Aytaylik, adabiyot darsida adbiy atamalardan tuzish kerak. (Yuqoridagi jadval)

Badiiy asar tahlili didaktik o‘yini

Badiiy asarni tahlil qilishning turlari juda ko‘p bo‘lib quyidagi tahlil namunasini dars jarayonlarida qo‘llash foydadan holi bo‘lmaydi. O‘quvchilar turli xil mikro guruhlarga bo‘linadi. Deylik, sinfda 30 nafar o‘quvchi o‘qiydi, ularni 6 nafardan 5 guruhga bo‘lib olish mumkin va har bir mikro guruhni o‘zlarining vazifalariga ko‘ra nomlash lozim. Masalan: Tilshunoslar guruhi, Adabiyotshunoslar guruhi, Tibbiyot xodimlari guruhi, Iqtisodchilar guruhi, Tarixchilar guruhi...

Endi har bir guruh nomlaridan kelib chiqib qaysinisi qaysi vazifani bajarishi belgilab qo‘yiladi. A. Qahhorning “Bemor” hikoyasi tahlilida tarixchilar guruhi asarning tarixiy jihatini: qachon ro‘y bergan voqealar aks etgan, qanchalik tarixga mos, o‘z davrini to‘liq ifodalay olganmi, yo‘qmi shu kabilar. Iqtisodchilar iqtisodiy jihatini: o‘sha vaqtlarda davlatning iqtisodiyoti qay tarzda bo‘lgan, insonlar nima ish bilan mashg‘ul bo‘lishgan, asarda bu nimalarda ko‘rinadi va boshqalar. Tibbiyot xodimlari esa tibbiyot jihatini: o‘sha davr tibbiyoti qay darajada edi, insonlar bu soha vakillariga ishlari ko‘p tushar edimi, insonlarning dori-darmonga bo‘lgan ehtiyoji qanday bo‘lgani haqida tahlil etishlari lozim bo‘ladi. Bunda har bir guruh o‘z fikrlarini bildirgandan so‘ng,

boshqalarning fikridan kelib chiqadigan xulosalaridan keyin yana fikr bildirishlari ham mumkin.


Avlodlar didaktik o'yini

Bunda har bir o'quvchi alohida qatnashishi mumkin. O'yin shartlari quyidagicha: sinfdan bir o'quvchi tanlanadi, unga tarix, fizika, ona tili yoki adabiyot boboning biror o'g'li haqida savol beriladi. O'quvchi shu o'g'ilga tegishli nabirani yoki evarani yoki chevarani yoki begonani topishi lozim. Bunda o'quvchi o'zi idrok qila olgan tushunchani izohlab berishi kerak. Aytaylik, tilshunoslik boboning morfolofiya o'g'liga tegishli bo'lgan babira ismi kim edi? Javob: Aniq ot. Izoh berilishi: Tilshunoslik boboning o'g'li Morfologiya. Morfologiyaning o'g'llari ot, sifat, son, ravish... otning o'g'illari aniq ot, mavhum ot... shu nuqtayi nazardan morfolofiyaning nabirasi aniq ot hisoblanadi.

Bundan tashqari, morfologiyaning nabiralari juda ko'p. Ular atoqli va turdosh otlar – ot o'g'lining farzandlari bo'lsa, oddiy darjali sifat, ozaytirma daraja, orttirma daraja va qiyosiy darajali sifatlar – sifat o'g'lining farzandlari sanaladi. Olmosh o'g'lida esa 7 nafar farzandi bor. Bu atamalar morfologiyaning nabiralari bo'lganligi tufayli, tilshunoslik boboning chevaralari hisoblanadi.

Oddiy qilib tushuntiriladigan bo'lsa, qaysi atama tilshunoslikning qaysi bo'limidan kelib chiqqan bo'lsa, shu bo'limga tegishli avlod sanaladi. O'quvchilarni bunga ishontirish fanga tegishli bo'lgan atamalarni qaysi biri boshqasi bilan qanday aloqada bo'lishini bilib olishga undaydi va bu boradagi bilimlarini mustahkamlaydi. Bu o'yinni yuqori sinf o'quvchilari ustida o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lib, ular avlod tushunchasini yaxshi bilishadi. Bu o'yin o'quvchilarni fukrlash qobiliyatini ham shakllantirishga qaratilgan bo'lib, atamalar bilan ishlash ko'nikmasini ham rivojlantiradi.

Avlodlar o'yinining chizma ko'rinishi



Maqolnavistlar didaktik o‘yini

Maqollar mavzusini o‘tayotganimizda yoki xalq og‘zaki ijodini o‘tayotganimizda ushbu o‘yinni o‘tkazilishi foydadan holi emas, dars oxirlarida ham yaxshi samara beradi. Biror mavzu yuzasidan maqollar aytish topshirilishi ham mumkin. Bunda 5 -7 nafar o‘quvchi ishtirok etadi. O‘yinning sharti har bir o‘quvchi bittadan maqol aytadi, faqat birinchi o‘quvchi aytgan maqolni oldin aytib keyin o‘zining maqolini aytishi lozim. Uchinchi o‘quvchi esa yuqorida aytilgan maqollarni aytib keyin o‘zining maqolini aytadi. O‘yin shu tariqada etti maqolni ham to‘g‘ri aytgan o‘quvchiga borib taqaladi va 1-ishtirokchi yuqoridagi etti maqolni aytib sakkizinchi maqolni qo‘shishi mumkin. Maqolnavistlikdagi bunday didaktik o‘yin o‘quvchilarni ko‘proq maqol bilishi bilan birgalikda xotirasini ham mustahkamlaydi.

Diqqat, qidiruv didaktik o‘yini

O‘quvchilarni qiziqtirishni yo‘llari ko‘p. Masalan, oddiy savol-javobdan o‘quvchi zerikadi. Savollar qanchalik qiziqarli tarzda berilsa, o‘quvchilar ham uni shunday kutib olishadi. Diqqat, qidiruv o‘yini tashkil etish juda oson bo‘lib, o‘quvchilar qiziqishlariga sabab bo‘ladi. Mustahkamlash yoki takrorlash darslarida hamda mavzuni mustahkamlash qismida o‘tkazish samaralidir. Bunda o‘quvchilar sinfga kirmaslaridan oldin sinfdagi stentlarning ortiga partalarning biror qismiga, gullarning tagiga yozuv taxtasining biron qismiga maxsus savollar yashirib qo‘yilgan bo‘ladi. Mashqni boshlashdan oldin qidiruv e‘lon qilinadi. Kim qaysi savolni topib olishsa, shu savolga javob berishadi. Bergan javobiga qarab o‘quvchilar baholanadi. Savollar o‘rtamiyona bo‘lishi tavsiya etiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Didaktik o‘yin talablari qanday?
2. Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-ahloq meyorlariga nimalar kiradi?
3. Didaktik o‘yinlar tanlash va ulardan foydalanishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi, fikrlash tezligi va mas‘uliyatligi

jamiyatning bir a'zosi sifatidagi tayyorgarligi va bilim saviyasi hisobga olinadimi?

4. Didaktik o'yin nima?
5. Didaktik o'yinlarning o'ziga xos hususiyatlarini aniqlang.
6. O'yindan ko'zlangan maqsadni aniqlash va loyihalash deganda nimani tushunasiz?
7. O'yin strukturasi tegishli o'zgartishlar kiritish qay darajada muhim?
8. Rolli o'yin darsi qanday amalga oshiriladi?
9. Matbuot konferentsiyasi darsi haqida tushunchalar bering.
10. Didaktik o'yinlarning ishlatilishda nimalarga e'tibor berish lozim?

Tayanch so'z va birikmalar:

Didaktik o'yin, ishchanlik o'yin darsi, rolli o'yin darsi, teatrlashtirilgan dars, ishbob o'yin darsi, kompyuter darsi, yamarka darsi, kim oshdi savdosi darsi, o'yin darsi, konsert darsi, sud darsi, tergovchi bilimdonlar darsi, integral dars, mo'jizalar maydoni darsi, matbuot konferentsiyasi darsi, quvnoqlar, zukkolar klubi darsi, o'zaro o'qitish darsi, o'quvchilar olib boradigan dars, tanlov darsi, juftlikda ishlash darsi, dialog darsi, aylana bo'ylab mashq darsi, innovatsiyalar, musiqali quti didaktik o'yini, kubik didaktik o'yini, quti ichida shart didaktik o'yini, qora oyna didaktik o'yini, guruh meni didaktik o'yini, buzuq telefon didaktik o'yini, kulgichlar didaktik o'yini, mening reklamam didaktik o'yini, nima uchun didaktik o'yini, mantiqiy savollar didaktik o'yini, xotira mashqi didaktik o'yini, fikrni jamlash didaktik o'yini, tinglab tushunish didaktik o'yini, tasavvur dunyosi didaktik o'yini, baliqlarni qutqar didaktik o'yini, o'tmish va kelajak didaktik o'yini.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asqarova O'., Nishonov M., Xayitbayev M.. Pedagogika. – T.: Talqin, 2008.
2. Mavlonova R. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2004.

3. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: Fan, 2006.

4. Muslimov N., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013.

5. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1990.

6. Niyozmetova R. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. – T.: Fan, 2007.

7. Nurmonov A., A. Sobirov, N. Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar uchun darslik. T. 2001-yil.

8. Supiyeva Buxolidaning fikr va g'oyalari

9. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.

10. To'xtaboyev A., Eraliyev A. Tashkiliy xatti-xarakatlar. – Andijon: Xayot, 2001.

11. To'xtaxo'jayeva M. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2010.

12. Uralov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent -2021.

13. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Boolajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014.

14. Usmonov I. Kimyo fanini o'qitishda didaktik o'yinli texnologiyalardan foydalanish. – Namangan, 2014.

15. www.edunet.uz– maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti

16. Yo'ldoshev J. F., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – Toshkent, 2008.

17. Ziyodova T.U. Hozirgi o'zbek adabiy tilini o'rganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish. O'quv-metodik qo'llanma. Akademik litseylar uchun. – T.: 2002.


18. Подласий И.П. Педагогика. – Москва: Высшая образования, 2008.

Elektron ta'lim resurslari

19. <https://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-mahsus-talim-vazirligi-na-v2.html?page=4>

20. https://testjavoblari.blogspot.com/p/blog-page_92.html10

ILOVALAR



TESTLAR

1. Ilm-ma'rifat nima orqali taraqqiyotga erishadi?

- A) ta'lim*
- B) maqsad
- C) reja
- D) amaliyot

2. Shaxsning kasbiy faoliyatining muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan ma'lumat to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi...

- A) mutahhasislik
- B) malaka*
- C) tarbiya
- D) ta'lim

3. Ta'lim jarayonida yetakchi usul qaysi?

- A) Kashfiyot*
- B) Raqobatchilik
- C) Ta'lim
- D) Amaliyot

4. "Sening fikrlaring bola yuragiga yetib borib, unga o'ylab, fikr yuritib ko'rishga imkon bersin"...kabi fikrlar kimga tegishli?

- A) Abu Ali Ibn Sino*
- B) Abu Nasr Farobiy.
- C) Arastu
- D) Al-Xorazmiy

5. Sharqda ikkinchi muallim deb tan olingan olim kim?

- A) Beruniy
- B) Abu Nasr Farobiy*
- C) Zamaxshariy

D) Marg'iloniy

6. Shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bu – ?

- A) Ijodkorlik
- B) Intilish
- C) Kreativlik*
- D) Psixologiya

7. Binar so'zining ma'nosi nima?

- A) qo'sh, ikki*
- B) aloqa, aralashuv
- C) maqsad, yondashuv
- D) axborot, ma'lumot

8. Pedagogik treningni tashkil etish quyidagi nechta bosqichdan iborat?

- A) 3
- B) 2
- C) 5
- D) 4*

9. "Comptence" so'zining ma'nosi nima?

- A) Mahorat*
- B) Yugurmoq
- C) Samaradorlik
- D) Xususiyat

10. Standart qanday ma'noni anglatadi?

A) Muayyan hodisani etaloni namunasi, moduli me'yorlarini qoidalari talablarini belgilovchi me'yoriy hujjat.

B) Oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash, ta'lim yo'nalishlari

C) Tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari uchun majburiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talablar*

D) Tilni tizimli o‘rganishga asoslangan ona tili o‘qitish metodikasi

11. Og‘zaki nutq malakasini foydalanishi mohiyati?

- A) Turli maqsad va har xil o‘quvchiga mo‘ljallangan matn yoza olish
- B) Mavzu yuzasidan nutq tayyorlay olish va uni bayon qilish *
- C) Matnning uslubini farqlagan holda ravon va ifodali o‘qish
- D) Monologik nutq va suhbatni tinglab tushuna olish

12. Nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish usullari?

- A) Dars inson tafakkuri, mahsuli – bilimni yoshlarga singdirishning asosiy shakllari*
- B) Fonetik va grammatik asosiy shakllari
- C) Nutqiy faoliyat shakli, kompetensiyalar
- D) O‘zaki va yozma nutq shakli

13. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi?

- A) telekommunikatsiya hamda og‘zaki va yozma matnlarga to‘g‘ri baho bera olishi
- B) Badiiy kitoblarni muntazam o‘qish va o‘rganish
- C) Telefon, komputer, internetdan foydalanish va o‘z faoliyatida qo‘llay olish*
- D) Badiiy asarlarda aks etgan tarixiy, ma’naviy madaniy hodisalar

14. Tayanch kompetensiyalarni qachon qanday shakllantirish mumkin?

- A) Shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi orqali*
- B) Tinglab tushunish kompetensiyasini o‘stirish orqali
- C) Gapirish va o‘qishni shakllantirish orqali
- D) Matn yaratish va uni tadbiq etish orqali

15. Ona tili darsligi o‘qitishning asosiy vositasi?

- A) Og‘zaki bayon, pedagogic mahorat
- B) Pedagogik mahorat
- C) Ta’lim, metod, og‘zaki bayon, ko‘rgazma*

D) Suhbat, ta'lim, ko'rgazmalik

16. Nechinchi yildan boshlab o'zbek tili va adabiyoti fanlari bo'yicha bilimni baholash bo'yicha umummmilliy test tizimi asosida rahbar kadrlarning davlat tilida rasmiy ish yuritish darajasi belgilanadi, davlat tilini bilish darajasi to'g'risidagi guvoohnomalar beriladi?

- A) 2020-yil 7-aprel
- B) 2021-yil 1-aprel*
- C) 2022-yil 3-iyul
- D) 2019 -yil 4 fevral

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida xodimlarning umumiy cheklangan soni nechta shtat birligidan iborat Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etilgan?

- A) 6
- B) 7
- C) 8
- D) 9*

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli farmoni to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.

- A) "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"
- B) "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish, til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"*
- C) "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish"
- D) "Til siyosati va lotin yozuviga o'tish muddatini belgilash"

19. Kognitiv yondashuv bu-?

- A) Xatti harakatlarda ongliklik- ta'lim asosida hosil qilingan malaka va ko'nikmalar ustunligi tan olinadi*
- B) Yangi zamonaviy texnologiyalarga asoslanib tuzilgan, ta'limning jahon andozalariga mos keladigan dastur

C) Inson xatti-harakatlari tashqi muhit ta'siri bilan belgilanadigan, ko'p hollarda ongsiz reaksiyalar majmuasi sifatida tushuniladi

D) Tilni tizimli o'rganishga asoslangan ona tili o'qitish metodikasi talabalarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish

20. So'z va tasavvurlar asosida mantiqiy fikrlash qobiliyati bolalarning necha yoshlarida ko'proq rivojlanadi?

A) 10-11, 13-14

B) 12-13, 15-16

C) 11-12, 15-16*

D) 9-10, 12-13

21. Tarbiya bu?

A) Aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni kamol toptirishiga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon.*

B) Ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

C) Yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini, ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyani axborot, umumiy ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan o'quv jarayoni ma'naviy-axloqiy tarbiyani yuqori samaradorligini ta'milaydigan ta'lim-tarbiya muhiti.

D) Ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarni ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlari va ularni vakillari.

22. "Muallim shogirdlariga bergan darslarini amal ila chog'ishtirib o'rgatmaklari lozimdur, ta'lim ila berilgan dars va ma'lumot shogirdlarning diliga tez ta'sir qilib, ular ilmi, odobli bo'ladilar" ushbu parcha qaysi asarda keltirilgan?

- A) “Turkiy guliston yoki axloq”*
- B) “Padarkush”
- C) “Qobusnoma”
- D) “Muallimi soniy”

23. Tilning ijtimoiy hodisa ekanligini, uni “guhari sharif”deb kim ta’riflaydi.

- A) Z.M.Bobur
- B) Nodira
- C) A.Navoiy*
- D) Ogahiy

24. Bizning davrimizga kelib insoniyat 200 xil yozuvga ega. Ulardan eng ko‘p va keng tarqalgani lotin yozuvi bo‘lib, bu yozuvdan yer yuzi aholisining necha foizidan ziyodi foydalanadi?

- A) 20%
- B) 30%*
- C) 40%
- D) 25%

25. Mahorat so‘zining ma’nosini belgilang

- A) mohirlik
- B) ustalik
- C) epchillik
- D) barcha javoblar to‘g‘ri*

26. Pedagogik mahorat bu-?

- A) O‘qituvchining shaxsiy-kasbiy faoliyati natijasi bo‘lib, muayyan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisidan iborat.*
- B) Pedagog shaxsning insonparvarlik yo‘nalishiga ega bo‘lishi.
- C) Pedagogning ta’lim oluvchilarga mehribonligi.
- D) Har bir ta’lim oluvchiga insonparvarlik nuqtayi nazridan yondoshishi zarurati.

27. Didaktik usul bu-?

- A) Barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik
- B) Qisqa daqiqalarda tarbiyalanuvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati.
- C) Bu oson yo'l bilan murakkab bilimlarni tushuntira olish*
- D) Ixcham, ma'noli, oxangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq.

28. Bilim bu-?

- A) O'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni vaziyatda qo'llay olish.
- B) O'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish
- C) Mavjud bilim, ko'nikma va malakani kundalik faoliyatda qo'llay olish
- D) O'rganilgan m'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish.*

29. Malaka bu-?

- A) O'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni vaziyatda qo'llay olish.
- B) O'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish*
- C) Mavjud bilim, ko'nikma va malakani kundalik faoliyatda qo'llay olish
- D) O'rganilgan m'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish.

30. Kompetensiya bu-?

- A) Mavjud bilim, ko'nikma va malakani kundalik faoliyatda qo'llay olish*
- B) O'rganilgan m'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish.
- C) O'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni vaziyatda qo'llay olish.

D) O‘rganilgan bilim va shakllangan ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llay olish

31. “Metod” so‘zining ma‘nosi?

- A) “Yo‘l”*
- B) “Yo‘nalish”
- C) “Usul”
- D) “Yondashuv”

32. Ma‘ruza metodiga to‘g‘ri ta‘rif berilgan javobni belgilang.

A) O‘qituvchi o‘quvchining o‘zaro ta‘siri dialog shaklida amal qiladigan ta‘lim metodidir.

B) O‘rta ta‘lim maktablaring yuqori sinflarida, texnikum va kollejlarda, oliy o‘quv yurtlarda foydalaniladigan ta‘lim metodi bo‘lib, unda o‘zaro ta‘sir o‘qituvching bayoni va bolalarning tinglashi, ayrim omillar, asosiy g‘oya va bog‘lanishlarni yozib olish shaklida amal qiladi.*

C) Yangi mavzuga oid omillarni eslash, ularni dastlabki tahlil etish bilan daxldor metod.

D) U hozirgi ilmiy-didaktik tadqiqotlarda “izlanish suhbat” deb yuritiladi.

33. Ko‘rgazmali metodiga to‘g‘ri ta‘rif berilgan qatorni belgilang.

A) Bu didaktikada eng asosiy qoida bo‘lib, uning yordamida ko‘rish, o‘qish va tafakkur o‘zaro uyg‘unlashadi*

B) Bu ta‘limning turli guruhlari, sikllarida, darsning barcha bosqichlarida o‘tkaziladigan, o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko‘rsatmalari, rahbarligida bajariladigan intellektual va amaliy topshiriqlardir.

C) Ilg‘or o‘qituvchilar tajribasida ushbu metod ta‘lim metodlari sifatida foydalanish odat tusiga kirgan jarayon.

D) Ta‘limning ushbu metodlarida o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta‘siri bolalar oldiga qo‘yiladigan topshiriqlar hamda ularni qabul qilish shaklida amal qiladi.

34. Rolli o‘yin darsi qanday o‘tiladi?

A) O‘quv fani ayrim bo‘yicha bilimni har bir o‘quvchi qanchalik ko‘p biloishini namoyish etish darsi

B) Dars mavzusi bo‘yicha masalalarni hal etish jarayonida o‘quvchilarni faol ishtirok etishni ta‘minlash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish mashqi

C) Dars mavzusi bo‘yicha masalalarni o‘rganishda o‘quvchilarga oldindan ma‘lum rollarni taqsimlab va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi*

D) Dars mavzusiga mos o‘yin orqali o‘quvchilarni o‘zlashtirishlarni tashkil etish darsi

35. Teatrlashgan darsga to‘g‘ri ta‘rif berilgan javobni belgilang

A) Tegishli o‘quv fani bo‘yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari asosida o‘tiladigan dars

B) Dars mavzusi bilan bog‘liq sahna ko‘rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo‘yicha chuqur aniq ma‘lumpotlar berilishi darsi*

C) Dars mavzusiga mos o‘yin orqali o‘quvchilarni o‘zlashtirishlarni tashkil etish darsi

D) Dars mavzusi bo‘yicha masalalarni hal etish jarayonida o‘quvchilarni faol ishtirok etishni ta‘minlash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish mashqi

36. Nechinchi yilda “2022 – 2026-yillarda xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur”ni tasdiqlash haqidagi PF – 134-son Farmonida tizimni rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan?

A) 2022-yil 7-iyun

B) 2022-yil 17-dekabr

C) 2022-yil 11-may*

D) 2022- yil 7-avgust

37. An‘anaviy ta‘limda imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan topshiriqlar tizimi keltirilgan qatorni belgilang.

- A) Savodxonlik;
- B) To‘g‘ri va chiroyli yozish;
- C) Yozma nutqni rivojlantirish;
- D) Barcha javoblar to‘g‘ri.*

38. Nechinchi yildan boshlab umumta‘lim maktablari faoliyatini yaxshilash, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, innovatsion metodlar asosida dars berish sifatli ta‘lim olish uchun barcha zarur sharoitlar yaratishga eng ustivor vazifa sifatida qarala boshladi?

- A)2016*
- B)2017
- C)2022
- D)2023

39. Qachondan an‘anaviy o‘qitish usullari yoniga yangi – Yevropacha o‘qitish usullari ham kelib qo‘shila boshlaydi?

- A) XVI-XIX asrlarda
- B) 1960-80-yillarda
- C) XXasr boshlarida*
- D) 1940-yillarda

40. Mahorat so‘zining ma‘nosi qaysi qatorda to‘g‘ri berilagan?

- A) Yunoncha “mohirlik”
- B) arabcha “mohirlik”*
- C) yunoncha “epchillik”
- D) turkiycha “ustalik”

41. Ona tili darslarini tashkil etishda fikrlarni, sababini keltirib, misollar asosida umumlashtiriladigan metod qaysi?

- A) “BBB”
- B) “FSMU”
- C) “VENN diagrammasi”
- D) “Yelpig‘ich”

42. Nutqning kompetensiya elementlarini ona tili darslarida shakllantirishda nutqiy kompetensiyaga nimalar kiradi?

- A) Tinglab tushunish, gapirish, o‘qish. *
- B) Yoshish
- C) faqat tushinish
- D) faqat o‘qish

43. Sinf ikki guruhga bo‘linadi. 1-guruhga to‘liqsiz fe’llarni shaxslar bo‘yicha o‘zgartirish, 2-guruhga esa uning boshqa so‘zlar bilan biri kishiga oid namunalar yozish topshiriladi. Topshiriq turi guruhlararo alishtiriladi. Berilgan vaqt davomida topshiriqni bo‘ladi. Nuqtalar o‘rniga qaysi so‘zni qo‘yish mumkin?

- A) Venn diagrammasi
- B) ertak o‘yini*
- C) Binar o‘yini
- D) 5 savolga 5 javob o‘yini

44. Metod’ so‘zi ma’nosi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

- A) Fransuzcha “metod”, “yo‘l”
- B) arabcha “yo‘l”
- C) yunoncha “metodos”- “yo‘l”*
- D) inglizcha metodod-“yo‘l”

45. Mustaqil ta’lim – bu insonning o‘zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida ajdodlar tajribasini fan va texnika yutuqlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan shaxsiy haraktlar jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, his-tuyg‘usi, mustaqil fikrklash qobiliyati asosiy rol o‘ynaydi. Ushbu fikr kimfa tegishli?

- A) K.X.Jo‘rayev va S.T.Turg‘unov*
- B) Ayimbetov va Sherbekov
- C) Ayimbetov va Jo‘rayev
- D) Turg‘unov va Sherbekov

46. Aqliy hujum usulini birinchi marta kim qachon qo‘llangan?

- A) Ayimbetov XXasrning 60-yillari
- B) Sherbakov 1939-yil
- C) 1939-yilda A.F.Osborn*
- D) Turg‘unov XXasrning 60-yillari

47. Bu metodologiya har qanday korrikula uchun asosiy hisoblanadi. Bu metodologiya orqali o‘rganish asosan tajriba va muloqot orqali amalga oshadi. Qaysi metodologiya haqida ma’lumot berilgan?

- A) Suhbat va munozara*
- B) faol o‘rganish
- C) hamkorlikda o‘rganish
- D) muammoni bartaraf etish

GLOSSARIY

Aqliy hujum metodi – biror muammo bo‘yicha o‘quvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga (to‘xtamga) kelinadigan jarayon.

Arra metodi – barcha guruh a‘zolari o‘quv materiali yuzasidan tuzilgan yagona topshiriq ustida ishlashga qatilgan jarayon.

Aylana bo‘ylab mashq darsi – o‘quvchilarning navbatma-navbat ishtiroki asosida yangi mavzuni o‘zlashtirish yoki o‘tilgan darsni takrorlab, mustahkamlash mashqlaridan iborat.

Bahs-munozara metodi – biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs-munozara va fikr almashuv tarzida o‘tkaziladigan jarayon.

BBB metodi – o‘qituvchi o‘quvchining nimalarni bilishini, nima bilmoqchi ekanligini inobatga olib, uning bilmoqchi bo‘lgan mavzusi yuzasidan ma’lumot berishi va dars so‘nggida esa nimalarni bilib olganliklari aniqlashtirilishiga qaratilgan jarayon.

Binar (lotincha “qo‘sh”, “ikki”) ikki o‘qituvchining birgalikda ma’ruza yoki amaliyotni tashkil etishiga qaratilgan faoliyat.

Blits-so‘rov metodi – malum mavzu yoki bob yuzasidan qilinayotgan takrorlash darslarida savol tipida ko‘rsatilgan variantlarni javob tipida ko‘rsatilgan variantlarga mosligini belgilovchi jarayon.

Dastur vositalari – bu mutaxassislar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va predmetdagi tegishli mavzular bo‘yicha dars jarayonini takomillashtirishga imkon beruvchi intellektuallashtirilgan dasturlar va uni amaliyotga joriy etishga sharoit yaratuvchi dasturiy-texnik vositalar.

Davra suhbati metodi – o‘quvchilar o‘rtasida va kichik guruhlarda aylana stol atrofida o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish jarayoni.

Debat metodi – o‘quvchilarda ijtimoiy fikrni o‘zgartirishga ta’sir etish qobiliyati mavjudligiga ishonch tuyg‘ularini rivojlantiradigan jarayon.

Dialog darsi – o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish va o‘z fikrlarini bayon etish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida dars

mavzusini o‘quvchilar bilan dialoglar tashkil etish orqali tushuntirish va mustaxkamlash mashqlaridan iborat.

Didaktik o‘yin – ta’lim beruvchi usul bo‘lib, bu usul muayyan ta’limiy maqsadlarga erishishga, yani o‘tilgan o‘quv materiallarini aniqlashga, qaytarishga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo‘ladi.

Galereya metodi – kichik guruhlarda birdaniga bir nechta masalani muhokama qilish imkonini berishga mo‘ljallangan usul.

Innovatsiya (inglizcha **innovation**) - yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovatsiyalar darsi – o‘quv fani sohasidagi yoki maktab hayotiga tegishli yangiliklarni joriy qilish, shuningdek, o‘quvchilarning ijodiy faoliyatlari natijalarini amalda qo‘llash bo‘yicha taklif va loyixalar bilan tanishtirish darsi bo‘lib, o‘quvchilarning bilimlarini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Integral dars – bir nechta fanlarga doir integratsiyalash uchun qulay bo‘lgan mavzular bo‘yicha tashkil qilingan dars bo‘lib, o‘quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib ta’lim jarayonidagi faolliklarini taminlaydi.

Interaktiv (“inter” - o‘zaro, “act” - harakat qilmoq) - o‘zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo‘lishni anglatadi.

Intervyu metodi – o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatishga qaratilgan jarayon.

Ishbop o‘yin darsi – tegishli o‘quv fani bo‘yicha dars mavzusiga aloqador bo‘lgan shaxsni gavidalantirishga qaratilgan dars.

Ishchanlik o‘yin darsi – dars mavzusi bo‘yicha masalalarni hal etish jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirok etishini ta’minlash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish mashqi.

Jonli muloqot metodi – o‘quvchilar tomonidan mavzuni puxta o‘zlashtirishga erishish, hamkorlikda faol ishlashni shakllantirish, ma’lum vaziyatlarni boshqarishni o‘rgatish, o‘quvchilarning badiiy kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish.

Juftlikda ishlash (binar) darsi – o‘quvchilarning juft bo‘lib, dars mavzusini birgalikda o‘zlashtirishi yoki bir-birining bilimlarini mustaxkamlashi darsi.

Kichik guruhlarda ishlash metodi – o‘qituvchi tomonidan berilgan ma’lum bir topshiriqni hamkorlikda bajarish uchun o‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratib, berilgan topshiriqning yechish yo‘llarini ishlab chiqishni taqozo etuvchi jarayon.

Kim oshdi savdosi darsi – o‘quv fani ayrim bo‘limi bo‘yicha bilimlarni har bir o‘quvchi qanchalik ko‘p bilishini namoyish etish darsi.

Ko‘nikma – egallangan tajribalar asosida muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati.

Kompyuter darsi – tegishli o‘quv fani bo‘yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimediya, virtual o‘quv kursi va shu kabilar) asosida o‘tiladigan dars.

Konsert darsi – dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi konsert shaklida ifodalash mashqlari bo‘lib, o‘quvchilarni faollashtirish va bilimni mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Malaka – muayyan harakatlarni bajarish va boshqarish jarayonlarining avtomatlashuvi.

Mashq – o‘rganilgan bilimlarni turli o‘quv sharoitlariga tatbiq etish yo‘li.

Matbuot konferentsiyasi darsi – dars mavzusini savol-javoblar orqali o‘zlashtirish mashqi.

Menyu metodi – darsni qismlarga bo‘lib, menyu holatida o‘zlashtirishga qaratilgan ijodiy jarayon.

Metod – yunoncha “metodos” – “yo‘l” degan so‘zdan olingan bo‘lib, u, tadqiq qilish ma’nosini anglatadi hamda ta’lim metodi ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyati.

Mo‘jizalar maydoni darsi – o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan qiziqarli o‘yinlar bo‘lib turli savollarga belgilangan vaqt davomida to‘g‘ri javoblar topish va g‘oliblarni rag‘batlantirish orqali o‘quvchilarda fikrlash, topqirlik va ziyraklik, bilimlarni kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi.

Muammoli hikoya – o‘rganilayotgan mavzu doirasida hikoya boshida, hikoya davomida, hikoya oxirida bolalar oldiga muammolar qo‘yib, ularning mavzuga qiziqishlarini oshirish yo‘li.

Muammoli ma’ruza – ma’ruzadan oldin o‘quvchilarni mavzuga qiziqtirish maqsadida yoki ma’ruza oxirida o‘quvchilar oldiga muammolar qo‘yish yo‘li bilan ta’lim maqsadiga erishish.

Muammoli vaziyat metodi – ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish.

Munozara metodi – bu metod yordamida o‘quvchilarga muayyan muammo bo‘yicha to‘liq axborotlar etkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni o‘quvchilar ayovsiz “shturm” qiladilar va pirovard natijada muammoga tegishli ma’lumotlarni atroflicha o‘rganadilar.

Nuqtayi nazarining bo‘lsin metodi – o‘quvchilar o‘rtasida munozara yuzaga kelishi va ular munozara jarayonida o‘z fikrlarini o‘z sinfdoshlaridan ularning nuqtayi nazarini o‘zgartirishga ishontiradigan g‘oyalarni eshitib o‘zgartirish yoki avvalgisini mustahkamlash imkonni berish maqsadida qo‘llanadi.

O‘quvchilar olib boradigan dars – dars mavzusini o‘quvchilar tomonidan tushuntirib berilishini tashkil etish orqali o‘quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan jarayon.

O‘yin darsi – dars mavzusiga mos o‘yin orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini tashkil etish darsi.

O‘z o‘rningni top metodi – ko‘plab muammolarning yechimini topish uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, fikr bildirishda o‘z fikrini himoya qilishga, qaysi fikr tomonida ekanligini aniqlashga o‘rgatadigan usul.

O‘zaro o‘qitish darsi – o‘quvchilarning dars mazmuni bo‘yicha matnning ayrim abzatslari yoki shunga o‘xshash kichik bo‘laklarini birbirlariga tushuntirishlarini tashkil etish orqali mavzuni o‘zlashtirish darsi.

Qayta xotirlash faoliyati – o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilgan yoki darslikda berilgan namunaga qarab mashq bajarish.

Quvnoqlar, zukkolar klubi darsi – qiziqarli savollar va ularga javoblar topish orqali mustaqil fikrlashni o‘rgatish mashqi.

Rolli o‘yin darsi – dars mavzusi bo‘yicha masalalarni o‘rganishda o‘quvchilarga oldindan ma‘lum ro‘llarni taqsimlash va dars jarayonida shu ro‘lni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Savol-javob metodi – o‘quvchilarga mavzu yuzasidan savollarga javob berishni nazarda tutadigan usul.

Sud darsi – o‘quvchilar bilan dars mavzusiga mos “sud” jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni tashkillashtirish darsi.

Ta‘lim sandiqchasi (keys-stadi) metodi – o‘quvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo‘naltiradigan aniq real yoki sun‘iy ravishda yaratilgan vaziyatni tahlil etilishiga asoslanadigan ta‘lim jarayoni.

Tanlov darsi – sinfdagi o‘quvchilarning bir yoki bir nechta mavzu bo‘yicha oldindan tayyorgarlik ko‘rgan holdagi tanlovini tashkil etish, g‘oliblarni aniqlash darsi.

Tanqidiy fikrlash metodi – bahsli savollarni yechish uchun o‘quvchilarda tinglash, muloqat olib borish, turlicha fikrlarni taqqoslash, boshqa kishi taqdiriga befarq qaramaslik kabi hislatlarni shakllanishiga xizmat qiladigan jarayon.

Tasavvur olami metodi – o‘quvchilarning o‘tilayotgan fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini hayotning keyingi bosqichlarida bemalol qo‘llashi bo‘yicha shaxsiy kompetenligini shakllantirish.

Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog‘liq sahna ko‘rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo‘yicha chuqur, aniq ma‘lumotlar berish darsi.

Tergovchi bilimdonlar darsi – dars mavzusini oldindan puxta o‘rgangan o‘quvchilar yordamida qiziqarli savol – javoblar, tahlillar asosida isbotlab, tushuntirish mashqlari bo‘lib, bunda o‘quvchilar dars mavzusini o‘zlashtirib eslab qolishlari uchun qulaylik yaratadilar.

Yamarka darsi – dars mavzusini bo‘laklar bo‘yicha oldindan o‘zlashtirish o‘quvchilarning o‘zaro muloqat asosida sinfga qiziqarli tushuntirish orqali o‘tiladigan dars.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Davlat ta’lim standartlari” T., 2017-yil.
2. “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonun.
3. “Milliy dastur”. – T.; 2022-2026-yillar.
4. “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” (E. Panasenko, E. Umarov. Toshkent-1998.
5. “Ta’lim to‘g‘risidagi”gi Qonun. “Ma’rifat”, 2020.
6. Abduqodirov A. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yangi axborot texnologiyalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta’lim jurnali, 2002. 4-son.
7. Abduqudusov O. O‘rta maxsus, kasb – hunar ta’lim muassasalarida ta’lim – tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish muammolari. Metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2002.
8. Abduraimova M. Ona tili ta’limida ilg‘or pedagogik texnologiya. Toshkent, 2005.
9. Asqarova O‘., M. Nishonov, M. Xayitbaev “Pedagogika” – T., “Talqin” 2008.
10. Azizxo‘jaeva N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000.
11. Bahriddinova B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (majmua) – T., 2016.
12. Baratov Sh. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari. – T.: O‘qituvchi. 1995.
13. Choriyev R. Yangi pedagogik texnologiyalar-ta’lim –tarbiya sifat va samaradorlik omili. Toshkent – 2010. 254-255 b.
14. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. – T.: Ilm-Ziyo, 2012.
15. Ishmuxamedov R. J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Nihol, 2013, 2016.
16. Mahmudov N., Nurmonov A. va boshq. “Ona tili” 5-11-sinflar. – T.: “Ma’naviyat”, 2015-2021.
17. Mengliev B. Ona tili ta’limi: davr talabi va ijtimoiy zarurat. // “Ma’rifat” gazetasining 2017-yil 22-fevral soni.

18. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: Fan, 2006.
19. Mirsaidov K. J. Ixtisoslik fanlarini o'qitish va ishlab chiqarish ta'limi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
20. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022.
21. Muslimov N., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
22. Nazarova S. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1992.
23. Niyozmetova R. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. – T.: Fan, 2007.
24. Nurmonov A., A. Sobirov, N. Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar uchun darslik. – T.; 2001.
25. Olimov Q. T. va boshqalar. Ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasi. – T.: Fan, 2004.
26. Qodirov P. Til va el. – T.: G'afur G'ulom, 2005.
27. Rafiyev A. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi. O'quv qo'llanma. – T.; 2003.
28. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi – T.: Universitet, 1999.
29. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Darslik. – T., 2006.
30. Sayfullayeva R. va bosh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – T.: 2010.
31. Supiyeva Buxolidaning fikr va g'oyalari
32. To'xlijev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.
33. To'xtaxo'jayeva M. "Pedagogika" – T.: O'qituvchi 2010.
34. Tolipov O'., No'monova N. Zamonaviy didaktik o'yinlarni ta'lim jarayonidagi o'rni // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2004. 4-son.
35. Uralov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.; 2021.
36. Uralov A. Interfaol mashqlar. – G.; 2023.

37. Uralov A., Supiyeva B. H va X ni farqlash qoidalar va lug'ati. – T.; 2023.

38. Uralov A. Talimiy o'yinlar. – G.; 2014.

39. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'olajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. Metodik qo'llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014.

40. Xodjaboyev A. Xusanov L. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2007.

41. Yo'ldoshev J. F., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.; 2008.

42. Ziyodova T.U. "Hozirgi o'zbek adabiy tilini o'rganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish". O'quv-metodik qo'llanma. Akademik litseylar uchun. – T.: 2002.

43. Ziyodova T.U. O'qituvchi kitobi. Ona tili o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. – T.: 2002.

44. Zunnunov A., Maxkamov U., Didaktika (Ta'lim nazaryasi). O.O'Y uchun qo'llanma. – T.: Sharq, 2006.-132 b.

Elektron adabiyotlar va internet saytlari

45. <http://library.navoiyuni.uz/files/sultonsaidova%20s.%20o'zbek%20tili%20stilikasi.pdf>

46. <http://www.myshared.ru/slide/1437747/>

47. <https://fayllar.org/adabiy-til-sozlashuv-tili.html?page=3>

48. <https://lex.uz/docs/-5013007>

49. <https://onlinedu.uz/> – [A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot insituti "Uzluksiz kasbiy ta'lim" platformasi](#)

50. <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-70992-1.html?page=5>

51. <https://uz.warbletoncouncil.org/lenguaje-coloquial-585>

52. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumati portali

53. www.ziyo.uz – Ma'naviy-ma'rifiy mavzudagi materiallar sayti

54. www.ziyonet.uz – Ijtimoiy axborot ta'lim portali

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. Bugungi ta'lim xususida ayrim nazariy ma'lumotlar	
1.1. Ta'lim va o'qituvchi shaxsi	6
1 §. Talaba – ta'lim – o'qituvchi tizimi	6
2 §. O'qituvchi shaxsiga va ta'lim jarayonini tashkillashtirishga qo'yiladigan talablar	7
3 §. Ta'lim metodlari oldiga qo'yilgan asosiy talablar	11
4 §. Pazl o'yilari va boshqotirmalar	12
1.2. Ta'lim metodlari oldigagi talablar	15
5 §. Ta'lim metodlari va vositalarining tavsifi	15
1.3. Ta'lim metodlari va texnologiyalari	21
6 §. Metod va uning turlari	21
7 §. Ayrim metodlar xususida	22
8 §. Ta'lim texnologiyalari nazariyasi va amaliyoti	38
II bob. Didaktik o'yinlarni o'tkazish nazariyasi va amaliyoti	
2.1. Didaktik o'yin talablari va dars turlari	52
1 §. Didaktik o'yin talablari	52
2 §. Didaktik o'yin – dars turlari	54
3 §. Didaktik o'yinlarning ishlatilish tajribasi	64
Musiqali quti didaktik o'yini	64
Kubik didaktik o'yini	65
Quti ichida shart didaktik o'yini	65
Qora oyna didaktik o'yini	66
Guruh meni didaktik o'yini	66
Buzuq telefon didaktik o'yini	67
Kulgichlar didaktik o'yini	67
Mening reklamam didaktik o'yini	68
Nima uchun didaktik o'yini	69
Mantiqiy savollar didaktik o'yini	71
Xotira mashqi didaktik o'yini	71
Fikrni jamlash didaktik o'yini	72
Tinglab tushunish didaktik o'yini	73

Tasavvur dunyosi didaktik o‘yini	73
Baliqlarni qutqar didaktik o‘yini	74
O‘tmish va kelajak didaktik o‘yini	74
Eshitib rasm chizish didaktik o‘yini	75
Yillar tilga kirganda didaktik o‘yini	76
Zehnli zukko didaktik o‘yini	77
Ha-yo‘q didaktik o‘yini	78
Raqamlar siri didaktik o‘yini	79
Harflarni to‘g‘ri yoz didaktik o‘yini	79
Buzilgan so‘z tarkibi didaktik o‘yini	79
So‘zlar zanjiri didaktik o‘yini	80
Bilag‘on didaktik o‘yini	81
Jurnalist bilan muloqot didaktik o‘yini	82
Tug‘ilgan kunga sovg‘a didaktik o‘yini	83
Avtobuscha didaktik o‘yini	84
Moychechak didaktik o‘yini	84
Jumboq didaktik o‘yini	85
5555 didaktik o‘yini	86
Bu so‘z kimniki didaktik o‘yini	87
Siz uni taniysiz didaktik o‘yini	87
Yuqori cho‘qqi didaktik o‘yini	88
Raqamli manba didaktik o‘yini	90
Yutuqlar didaktik o‘yini	90
So‘zlar shodasi didaktik o‘yini	91
Baland parvoz didaktik o‘yini	91
Porla quyoshjon didaktik o‘yini	92
Tafakkur gulshani didaktik o‘yini	93
Vagonchalar didaktik o‘yini	94
Aralash test didaktik o‘yini	94
Svetafor didaktik o‘yini	95
Xotira tezligi didaktik o‘yini	96
Fan quyoshi didaktik o‘yini	96
Xotira mashqi didaktik o‘yini	97

Xotira mashqi-2 didaktik o'yini	98
Ertak tuzish didaktik o'yini	99
Asosdosh so'zlarni top didaktik o'yini	99
Kelishiklar didaktik o'yini	100
Harflar didaktik o'yini	100
Baliq ovi didaktik o'yini	101
Oq terakmi, ko'k terak didaktik o'yini	102
Asirga olish didaktik o'yini	102
Kamalak didaktik o'yini	102
Qarsaklar didaktik o'yini	103
Rasmi boshqatirma didaktik o'yini	104
Qirol sherga yordam didaktik o'yini	105
Zinapoya didaktik o'yini	105
Rasm chizaman didaktik o'yini	107
Harakatli diktant didaktik o'yini	107
Omadli savollar kvadrati didaktik o'yini	108
Birinchi bilimdan didaktik o'yini	108
Payvand didaktik o'yini	109
Yashirilgan so'z didaktik o'yini	109
So'zni to'g'ri toping didaktik o'yini	109
Qadamma-qadam didaktik o'yini	110
Adabiy tahlil didaktik o'yini	110
Topoloq didaktik o'yini	111
Alifbo didaktik o'yini	112
Charxpalak bilimdoni didaktik o'yini	112
Quti ichida qutilar didaktik o'yini	112
Mevalar bazmi didaktik o'yini	113
Ta'rif kim haqida didaktik o'yini	114
Omadli topqirlar didaktik o'yini	114
She'r rasmi didaktik o'yini	115
Antiq krossvord didaktik o'yini	115
Asar qahramonlari xarakteri didaktik o'yini	116
Kim tez topadi didaktik o'yini	116

Fikrlarni o‘stirish didaktik o‘yini	117
Bir, ikki, manba didaktik o‘yini	117
Sayohat didaktik o‘yini	118
Velosiped didaktik o‘yini	118
Gaplar tahlili didaktik o‘yini	119
Savatni gullarga to‘ldir didaktik o‘yini	120
Ma’noli matn didaktik o‘yini	120
Quvib yet didaktik o‘yini	121
Svetofor didaktik o‘yini	121
Hayratli fakt didaktik o‘yini	121
Aylanamiz didaktik o‘yini	122
Uzum pishdi, boqqa kel didaktik o‘yini	123
Adashtirdim, topingchi didaktik o‘yini	123
Tomchi suvda ma’no didaktik o‘yini	124
Chaqqon bilimdon didaktik o‘yini	125
Xotira mashqi-3 didaktik o‘yini	125
Badiiy asar tahlili didaktik o‘yini	126
Avlodlar didaktik o‘yini	127
Maqolnavistlar didaktik o‘yini	129
Diqqat, qidiruv didaktik o‘yini	129
Ilovalar	132
Testlar	133
Glossariy	145
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:	150